"TODD" – bu bir umr yelib-yugurib, ro'zg'or degan g'ordan qutulolmagan, tuzuk-quruq nafas rostdashga ham vaqt topmay dunyodan o'tib ketgan Mamasidiq pishiqning absurd qismati to'g'risida. Mamasidiq urushda asir tushib konslagerdan har tong uni shaxtagacha yugurtirgan nemis zobitining ismi Todd. Toddning lug'aviy ma'nosi o'lim degani ekan. Qahramon hayoti bilan bog'liq voqealarni ustalik bilan bog'lagan ijodkor hikoya so'ngida nahotki, har qanday yelib-yugurishlarning ortida Todd, ya'ni o'lim tursa degan savolni ko'ndalang qo'yadiki, masalaning bu tarzda yakunlanishi o'quvchini ham o'ylashga, hayot haqida chuqurroq mushohada yuritishga majbur qiladi.

"Bog'i Eram"da esa masalaning mohiyati ancha kengroq qamrab olinadi. "TODD"da bir inson qismati asos vazifasini o'tagan bo'lsa, bu hikoyada umuman inson hayotining tong va shom orasidek qisqa va bevafoqligi majoziy timsollarda aks ettiriladi.

Xalqimiz ongu tafakkurida jannat, do'zax kabi tushuncha-tasavvurlarning chuqur ildizlari mavjud. Dunyoning besh kunligi, hayotning o'tkinchiligi daraxt bargidek omonatligi to'g'risida ham shunday deyish mumkin. Hazrat Navoiy aytganlaridek "Xazon sipohig'a, ey bog'bon, emas mone, Bu bog' tomig'a gar ignadin tikan qilg'il," - ya'ni barglarni igna bilan daraxtga sanchib qo'ysang ham xazon lashkarini to'xtatib bo'lmas. "Bog'i Eram"da ana shu tushuncha va qarashlar bola, bobo, non, bog' timsollari vositasida konkretlashtirib tasvirlanadi.

Sotsialistik realizm adabiyotida ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab ko'rish mumkin bo'lgan real hodisa va tushunchalar qalamga olinardi. Xalq xotirasida va ruhoniyyatida yashab kelayotgan bu qarashlarning hikoyada jonli

tasvirlanishi kitobxonlarda katta qiziqish uyg'otdi. "Avliyo" hikoyasini "Bog'i Eram"ning mantiqiy davomi deyish mumkin. "Bog'i Eram"da ko'tarilgan falsafiy qarashlar, umr, qismat, bexishtu do'zax bilan bog'liq tushunchalar xalqimizning o'zga bir udumi aziz avliyolarga sig'inishi, qadamjolarini ziyorat qilishi, og'ir kunlarida ulardan umidvor bo'lishi va madad kutishi kabi realistik hayotiy aqidalar fonida ochib beriladiki, "Avliyo" hikoyasi ham muayyan turkumning mustahkam bir halqasidek taassurot qoldiradi. Yurtimizning ko'hna shahar va kentlarida xalqimiz sig'inib, sog'inib keladigan minglab qadamjolar bor. Aziz avliyolardan madad so'rash, ularning ruhi poklariga yukunish va qurbonliklar qilish udumi ongda, ongostida, qolaversa, ommaviy ongsizlik qatlarida yashab kelayotgan bu inonch tuyg'usi yozuvchi uchun yangi hayotiy material bo'lib xizmat qiladi, kattakon dardu o'ylarini, odamu olamni anglash yo'lidagi iztiroblarini badiiy bo'yoqlarda ko'rsatishga xizmat qiladi.

I. Sultonning "Boqiy darbadar", "Ozod" romanlari Pulo Koelonning "Alkimyogar", "Beshinchi tog'" romanlari qurilishi va ifoda uslubiga hamda voqelikmajoziy obrazlarda yondashishi bilan ancha yaqin turadi. Tabiiyki, I. Sulton uning romanlarini o'qigan, ulardan ta'sirlangan bo'lishi ham mumkin. Biroq uning ilk hikoyalaridan romanlarigacha bo'lgan ijodiy yo'lini xronologik tartibda kuzatadigan bo'lsak, uslubining shakllanishidagi ilk kurtaklar uning shu taxlit romanlar ijodkoriga aylanishini muqarrar va tabiiy qilib ko'rsatadi. Uning poetik uslubi asardan asarga sayqal topib, biz hozir guvohibo'layotgan poetik mahoratini qaror toptirdi, olamga qarashi, yozish manerasi hamda individual badiiy uslubini ro'yobga chiqardi.

Xulosa qilib aytganda, tahlilga tortilgan Isajon Sulton asarlari, qiyoslab o'tilgan Bahodir Qobul nasri namunalari bugungi o'zbek prozasi jahon adabiyoti yutuqlari bilan boyib borayotganligini va ayni paytda milliy nasrimiz sarchashmalaridan oziqlanayotganligini tasdiqlaydi.

---

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hasan, I. (2004). *Biri kam dunyo*. Buxoro: Buxoro nashriyoti.
2. Nazarov, B. (2017). *Iste'dod manzaralari*. In Isajon Sulton nasri badiiyati. Tashkent: Turon zamin ziyo.
3. Qur'onov, D. (2017). *O'ylashga undovchi asar*. In Isajon Sulton nasri badiiyati. Tashkent: Turon zamin ziyo.
4. Sulton, I. (2011). *Boqiy darbadar*. Tashkent: O'zbekiston.
5. Solijonov, Y. (2017). *Niyati qutlug' adib*. In Isajon Sulton nasri badiiyati. Tashkent: Turon zamin ziyo.
6. Xolbekov, M. (2020). *XX asr jahon adabiyoti manzaralari*. Tashkent: Mumtoz so'z.

## **Abdulla Oripov ijodi misolida antroponim sarlavhalarining semantik tasnifi**

**Muxtarova Zarnigor Javoxirbek qizi**  
[zarnigormuxtarova7@gmail.com](mailto:zarnigormuxtarova7@gmail.com)  
Doktorant,  
Andijon davlat universiteti

**Annotatsiya** *Sarlavha badiiy asar tahlilida muhim elementlardan biri hisoblanadi. U badiiy matn uchun ochqich vazifasini bajaradi. Sarlavhaga olingan so'zning ma'nosidan kelib chiqib kitobxon badiiy matn haqida ilk tasavvurga ega bo'ladi. Tadqiqot maqsadi Abdulla Oripov she'rlariga qo'yilgan sarlavhalar misolida antroponim sarlavha va uning semantik tasnifini, badiiy matn bilan aloqadorligini o'ragnish. Tadqiqot metodlari lingvostilistik, poetik, semantik tahlilga tayanib ish olib borildi. Tadqiqot natijalari: Abdulla Oripov ijodida qo'llangan shaxs nomini bildiruvchi sarlavhalar mazmunan mifologik antroponim sarlavha, mifopoetik antroponim sarlavha, diniy-tarixiy antroponim sarlavha, adabiy antroponim sarlavha, allyuziv antroponim, tarixiy antroponim sarlavhalarga ajratib tasnif qilindi. Xulosa qilib aytganda, antroponim sarlavhalarni shoir ijodi misolida o'rganish shoirning onomastik birliklardan foydalanish mahoratini ko'rsatib beradi. Shuningdek, ijodkorning antroponimlardan tarixiy va milliy o'zlikni anglash, diniy dunyoqarashni ifoda etish, badiiy matndagi obrazni ta'kidlash kabi maqsadlarda foydalanganini asar mazmuni bilan birgalikda tahlil qilishda yordam beradi.*

**Kalit so'zlar** *Sarlavha, antroponim sarlavha, mifologik antroponim sarlavha, mifopoetik antroponim sarlavha, diniy-tarixiy antroponim sarlavha, adabiy antroponim sarlavha, allyuziv antroponim, tarixiy antroponim*

## **Семантическая классификация антропонимических названий на примере работы Абдуллы Орипова**

**Мухтарова Зарнигор Джавахирбек кызы**  
[zarnigormuxtarova7@gmail.com](mailto:zarnigormuxtarova7@gmail.com)  
Докторант,  
Андижанский государственный  
университет

**Аннотация** *Заголовок является одним из важных элементов анализа произведения искусства. Он выступает ключом к литературному тексту. Исходя из значения слова, взятого в заголовке, читатель получает первоначальное представление о литературном тексте. Цель исследования – изучение антропонимического заголовка и его семантической классификации, а также его связи с литературным текстом на примере заголовков стихотворений Абдуллы Орипова. Методы исследования основаны на лингвистическом, поэтическом и семантическом анализе. Результаты исследования: Заголовки, обозначающие имя человека, используемые в творчестве Абдуллы Орипова, были классифицированы по содержанию на мифологические антропонимические заголовки, мифопоэтические антропонимические заголовки, религиозно-исторические антропонимические заголовки, литературные антропонимические заголовки, аллюзивные антропонимические заголовки и исторические антропонимические заголовки. В заключение, изучение антропонимических*

заголовков на примере произведения поэта демонстрирует мастерство поэта в использовании ономастических единиц. Это также помогает анализировать использование автором антропонимов в таких целях, как понимание исторической и национальной идентичности, выражение религиозного мировоззрения и акцентирование образа в литературном тексте, наряду с содержанием произведения.

**Ключевые слова**

Название, антропонимическое название, мифологическое антропонимическое название, мифопоэтическое антропонимическое название, религиозно-историческое антропонимическое название, литературное антропонимическое название, аллюзивное антропонимическое название, историческое антропонимическое название

## Semantic classification of anthroponymic titles on the example of Abdulla Oripov's work

**Mukhtarova Zarnigor Javakhibek qizi**  
[zarnigormuxtarova7@gmail.com](mailto:zarnigormuxtarova7@gmail.com)  
Doctoral student,  
Andijan State University

**Annotation**

*The title is one of the important elements in the analysis of a work of art. It acts as a key to the literary text. Based on the meaning of the word taken in the title, the reader gets an initial idea of the literary text. The purpose of the research is to study the anthroponymic title and its semantic classification, as well as its relationship with the literary text, using the example of the titles given to the poems of Abdulla Oripov. The research methods were based on linguostylistic, poetic, semantic analysis. Research results: The titles denoting the name of a person used in the work of Abdulla Oripov were classified according to their content into mythological anthroponymic title, mythopoetic anthroponymic title, religious-historical anthroponymic title, literary anthroponymic title, allusive anthroponymic, and historical anthroponymic titles. In conclusion, the study of anthroponymic titles in the example of the poet's work shows the poet's skill in using onomastic units. It also helps to analyze the author's use of anthroponyms for purposes such as understanding historical and national identity, expressing religious worldview, and emphasizing the image in the literary text, together with the content of the work.*

**Keywords**

*Title, anthroponymic title, mythological anthroponymic title, mythopoetic anthroponymic title, religious-historical anthroponymic title, literary anthroponymic title, allusive anthroponymic, historical anthroponymic*

**Kirish**

Tilshunoslikda onomastika nomlarni o'rganuvchi maxsus bo'lim hisoblanib, antroponimlar shu bo'lim tarkibida o'rganiladi. Antroponimlarga ismlar, familiyalar, otasining ismlari, laqab, taxalluslar kiradi. Ijodkorlar o'z

badiiy maqsadidan kelib chiqib antroponimlardan asarlari uchun sarlavha sifatida foydalanishi mumkin. Bunday holda, muallif uchun bu qahramonni boshqalardan ajratib ko'rsatish, uning ekskluzivligini ko'rsatish muhimdir. Badiiy asar sarlavhasi



badiiy matndagi yetakchi mazmunni ifoda etish uchun xizmat qiladi. **Tadqiqotda aniqlangan muammo** o'zbek tilshunosligida Abdulla Oripov she'rlariga qo'yilgan antroponim sarlavhalarining semantik tahlili o'rganilmagan. Tadqiqot maqsadi maqolada biz shoir ijodida qo'llanilgan antroponim sarlavhalarni semantik jihatdan turlarga ajratib tahlil qilish va bu orqali shoir ifoda etmoqchi bo'lgan fikrlarni aniqlashni maqsad qildik. **Tadqiqot vazifalari** shoir she'riyatidagi antroponim sarlavhalarni aniqlash, semantik tasnif qilish, shunga ko'ra antroponim sarlavha turlarini yaratish, shaxs nomlari va badiiy matn aloqadorligini o'rganish.

#### **Adabiyotlar tahlili va Metodlar**

Xalqaro tilshunoslikda O. Bogdanova ingliz nasrida sarlavhalarining qo'llanilishini o'rganib chiqqan. Unda antroponim sarlavhalarga ham e'tibor qaratgan. Asarlarga ayollar ismining berilishida ko'proq mualliflar jozibador ismlardangani va familiya ko'rsatilmaganini e'tirof etadi. Bunga sabab qilib asarlarning to'y bilan tugashi, qizlarning esa familiyalari o'zgarishini aytadi. Charlotta Bronte qalamiga mansub "Jeyn Eyr" romanida esa Eyr familiyasini sarlavhada berilishiga bosh qahramonning mustaqilligi, alohidaligini ta'kidlash badiiy maqsad bo'lgan. Muallif asar qahramonining ismi asar g'oyasini yetarlicha ochib bermaydi deb hisoblasa unga qo'shimcha izoh kiritgan. S.Richardsonning "Klarissa yoki yosh xonimning tarixi" asarini bunga misol qilib keltiradi (Bogdanova, 2009). O'zbek tilshunosligida S.Nasimova ilmiy maqolasida (Nasimova, 2023) antroponim sarlavhalar haqida to'xtalib, "antroponimlar bilan ifodalangan badiiy asarlar nomida mazmunij jihatdan tarixiy shaxslar yoki mifologik qahramonlar nomlari bilan, qarindoshchilik nomlari bilan bog'lanib kelgan ismlar orqali, ifodalanishi mumkin. Struktur jihatdan esa ular bitta ism, ism+ism, ism bilan hosil bo'lgan tobe bog'lanish, gap qolipidagi bog'lanish va hokazolarga bo'linadi" deydi. M.Bozorova "Umumta'lim maktablarida diniy allyuziyalarni o'qitishning ilmiy-metodik

asoslari" maqolasida allyuziv antroponimlarga izoh berib, misollar keltirgan, ularni maktab darsliklarida o'qitish metodikasi haqida to'xtalgan.

Tadqiqot ishini olib borishda struktur-semantik tahlil, konnotativ tahlil, assotsiativ tahlil, kontekstual **tahlil metodlaridan foydalanildi**.

#### **Natijalar va Muhokama**

Antroponim sarlavhalarni A.Oripov ijodi misolida quyidagicha tasnif qildik. Tasniflash jarayonida ularning anglatayotgan ma'nolariga e'tibor qaratdik.

**Tarixiy antroponim sarlavha** tarixda yashab o'tgan real shaxs nomi asosida yaratilgan bo'lib, u tarixiy shaxni, davr yoki voqea bilan bog'liq ramziy ma'nolarni o'zida ifoda etadi: "Pushkin" (haqiqiy shoirlar insonlar qalbida barhayot yashashi), "Navoiy" (Navoiy ijodining manguqlik va abadiyatga daxldorligi), "Temur" (mustaqillikdan so'ng nim oqlangan ulug' ajdodimizga hurmat), "Napoleon" (soxta buyuklik da'vosini kinoyaviy ifodasi), "Abdulla Qahhor" (ijodkorning teran fikrlashi e'tirofi), "Mo'min Mirzo" (begunohlik va zulm ziddiyati). "Mo'min mirzo" she'ri Husayn Boyqaroning sevimli o'g'li Badiuzzamon Mirzodan tug'ilgan nabirasining ayanchli taqdiri haqida. 1497-yil asir olinib, Husayn Boyqaro farmoni bilan qatl etilgan. Bu fojiga taxt uchun kurash va siyosiy nizolar sabab bo'lgan. Shoir esa she'rda hozir ham o'z manfaati uchun har narsaga tayyor "qotillar" borligi, Mo'min mirzodek jabrdiyda yoshlar ham uchrashini ta'kidlaydi. O'shanday johil insonlarga nisbatan o'z nafratini shoir ushbu she'rda aks ettiradi. Tarixiy shaxs obrazi orqali zulm qurboni bo'lgan barcha begunoh, pok qalbli yoshlar nazarda tutiladi. Sarlavhaga olingan tarixiy antroponim tarixda yuz bergan fojia, begunohlik va zolimlik o'rtasidagi ziddiyatni ifodalab kelgan.

**Allyuziv antroponim sarlavha** – badiiy matn sarlavhasida diniy manbalarda tilga olingan, badiiy adabiyotda ramziy va mifologik obraz hisoblangan shaxs nomining tilga olinishidir. Allyuziya diniy, mifologik, adabiy va

tarixiy matnda eng ko'p foydalaniladigan intertekstual vosita hisoblanadi. U stilistik vositalardan biri bo'lib, mashhur adabiy, diniy. tarixiy, mifologik fakt, voqea-hodisa, shaxs va joy nomining boshqa yozma yoki og'zaki nutq jarayonida keltirilishidir (Баженова, 2006). Allyuziv antroponim sarlavha orqali ijodkor ma'lum bir diniy manbadagi shaxs yoki qahramonga ishora qiladi. M.Bozorova o'z maqolasida badiiy matnda allyuziv antroponimlarni qo'llashdan maqsadni quyidagicha izohlaydi: "Yozuvchining bundan ko'zlagan asosiy maqsadi kitobxonda avvaldan mavjud bo'lgan diniy bilimlarni faollashtirish va bu orqali kitobxon ko'z o'ngida bir tomondan diniy qahramon, ikkinchi tomondan esa asar qahramonlarining xarakteri, ruhiy holati va tashqi ko'rinishini gavdalandirish hamda bu orqali asar personaji hamda diniy qahramon orasidagi bog'liqliklarga ishora qilishdan iboratdir" (Bozorova, 2025; 132).

"Xizr" (Oripov, Quyosh bekati, 2010) she'rida sarlavhaga olingan allyuziv antroponim Xizr, Hazrati Xizr, Xizr buva kabi nomlar bilan tilga olingan, islom rivoyatlaridagi shaxs, taqvodor inson. Xizr Qur'onda tilga olinmagan, lekin ulamolar Qur'onda "Allohning quli" nomi bilan tilga olingan shaxsni Xizr deb talqin qiladilar (Tilakova, 2021). Ibn Hajar Asqaloni Raboh ibn Ubayda rahmatullohi alayhdan quyidagi rivoyatni naql qilgan: "Umar ibn Abdulazizning qo'liga suyanib u bilan birga kelayotgan kishini ko'rdim. O'zimcha: "Bu odam (birovga suyanib oladigan) shafqatsiz kishi ekan", – dedim. Umar ibn Abdulaziz namoz o'qib bo'lgach undan: "Ey Abu Hafs, boya sizning qo'lingizga suyanib kelgan kishi kim edi?", – dedim. U: "Sen u kishini ko'rdingmi?", – dedi. Men: "Ha", – dedim. U: "Sen solih kishi ekansan, u birodarim Xizr edi. U menga kelajakda rahbar bo'lishim va adolat qilishim haqida xushxabar berdi", – dedi. Bu rivoyatdan shuni xulosa qilish mumkinki, Xizr adolatli, haqiqatni barcha narasadan ustun qo'yadigan vijdonli insonlarga homiylik qiladi. Umar ibn Abdulaziz o'tmishda o'z xalifaligi davrida adolat va tenglikning keng yoyilishiga sabab bo'lgan.

Samo peshtoqidan Xizr payg'ambar  
Zaminga quvonib tashladi nazar  
Buning sababini so'rashsa dedi:  
Meni qabul qildi yerda bir rahbar.

Xizrning quvonishi – yer yuzida adolat, haqiqatni tan oladigan vijdonli rahbar borligini anglatadi. Ramziy ma'noda Xizr haqiqat va adolat timsoli. Rahbar bu yerda shaxs nomi emas, ijtimoiy mavqe bildiruvchi umumlashma so'z. Zaminga tashlangan quvonchli nazar esa umid ramzi. She'ning Xizr deb atalishi badiiy-ramziy yechim hisoblanib, rahbarlarda bo'lishi kerak bo'lgan mas'uliyatga axloqiy va ilohiy o'lchovlar asosida baho beriladi.

### **Diniy-tarixiy antroponim sarlavhalar**

bu sarlavha shaxs nomi asosida yaratilib, unda bir vaqtning o'zida diniy va tarixiy ma'nolar aks etadi: "Bilol habash", "Oyisha". "Bilol habash" she'ri islom tarixidagi buyuk shaxs – Bilol ibn Raboh (r.a) obraziga atalgan. She'rda ushbu qahramon sadoqat va vafo timsoli bo'lib keladi ("Sidq ila vafoga bo'ldi u timsol"). She'r sarlavhasi she'rdagi asosiy obrazni nomlab, matndagi fikrlarning barchasini bir nuqtaga jamlagan. Tana rangi ("qora habash") va qalb pokligi ("oq dilida iymon ohangi") o'rtasidagi ramziy qarama-qarshilikni shoir diniy-tarixiy antroponim misolida ko'rsatib bergan.

### **Adabiy antroponim sarlavhalar**

– bunda sarlavha ijodkor tomonidan yaratilmaydi, sarlavhaga olingan shaxs boshqa bir ijodkor tomonidan yaratilgan asar qahramoni hisoblanadi. Ushbu qahramon jahon adabiyoti va madaniyatida o'zgarmas semantik modelga aylangan bo'ladi. Bunday sarlavhalar intertekstual ma'no hosil qiladi. "Otello" (Oripov, 2019; 53) she'rida Shekspirning shu nomdagi tragediyasi bosh qahramoni sarlavhaga olingan. Bu qahramon o'zida "rashk", "ishonchsizlik", "fojia", "nafrat" semalarini ifoda etadi. A.Oripov she'rda "rashk" va razillarga nisbatan "nafrat" semasini faollashtiradi:

"Istardim sendagi rashkni ham illo,  
Bulubulga dard qayda gul yo'qsa agar".  
... "Sendagi nafratni xohlardim asti,  
Razillar ko'ziga boqolsam xunxor.

Chunki haligacha, Otello, rosti,  
Yagona o'qitib qo'yguvchilar bor".

She'rda ijodkor Otelloga nisbatan ritorik murojaat qiladi, klassik g'arb adabiyotidagi obrazni milliy va umuminsoniy ruhda qayta kashf qiladi. Sarlavhaosti izohida she'r aktyor Abror Hidoyatov (Otello rolini ijro etgan) xotirasiga bag'ishlanganini aytiladi. Buning izohini she'r yakunida izohlaydi:

"Rolingni o'ynasa rashk qilib, mana,  
Qabrga tiqibsan buyuk aktyorni".

"Gulliver" (Oripov, 2019; 409) she'rida ijodkor ingliz yozuvchisi J.Sviftning "Gulliverning sayohatlari" asariga ishora qiladi. Shoir bu obrazdan ramziy timsol sifatida foydalanadi. She'r mavzusi nisbiylik, inson qadri, buyuklik va kichiklikning jamiyatga aloqadorligi haqida. Ijodkor bu dunyoda kishining asl qiymati uni kim baholayotganiga qarab o'zgarishini ulkanlar va mitti odamchalar orqali asoslab beradi. She'r bir-biriga zid bo'lgan semantik maydonlar asosiga qurilgan(mitti-ulkan). Bu yerda hajm bildiruvchi so'z ijtimoiy-ma'naviy ma'noni anglatib kelgan. Mittilar past qatlam, oddiy xalqni, ulkanlar hokimiyat, hukmronlikni bildirgan. She'rda Gulliver obrazi oddiy odam misolida ulkanlar uchun "zarra" yoki "o'lgan"day tuyilishi, mitti odamchalar uchun esa "buyuk", "ulkan" bo'lib tan olinishi shoirning asosiy g'oyasini ochib bergan. Mitti odamchalar kontekstda ijobiy baho oladi, ular orqali muallif xalqni nazarda tutadi. Demak, sarlavhaga olingan adabiy antroponim obraz ramziy ma'noda hokimlar inkor etgan, lekin xalq tomonidan ulug'langan insonni( haqiqatparvar inson, ijodkor, ziyoli, adolat tarafdori bo'lishi mumkin) ifoda etgan.

**Mifologik antroponim sarlavhada** mif yoki afsonadagi qahramon ismi sarlavhaga olinadi. "Ikar" (Oripov, 2019; 10) she'riga sarlavhaga olingan mifologik antroponim – "fazoga ilk bora qanot qoqqan", "o'zini beayov o'tda yoqqan" qadimgi yunon afsonaviy qahramoni hisoblanadi. Yunon afsonalarida u mashhur Afinalik ixtirochi Dedalning o'g'li sifatida eslanadi. Dedal Afinada sodir etgan jinoyati uchun o'lim jazosidan qochib Krit

oroliga boradi. U yerda Minos shohi uni va og'lini tutqun sifatida saqlaydi, chunki Dedal mohir rassom ham edi. Butun umr tutqunlikda yashashni istamagan Dedal esa qochish uchun kechalari o'z ixtirosi – qanotlar ustida ishlaydi. O'zi va og'li Ikar uchun ikki juft qush qanotini yasaydi. Qanotlar tayyor bo'lgach ota va bola parvoz qilishadi. Ota o'g'liga quyosh patlarni ushlab turgan mumni eritib yuborishi, shuning uchun unga yaqinlashmaslikni uqtiradi. Bola Ikar esa parvozning zavqidan yanada yuqoriroq uchadi. Quyoshning zarrin nurlari uni o'ziga rom etadi. Qiziqish uni Quyosh tomon yetaklaydi. Mumlar erib, bola Ikar bo'ronli dengizning eng qorong'u qa'riga qulaydi. Ota esa o'z ixtirosini butun umr la'natlab, o'g'lining firog'ida umr o'tkazadi. Lekin uning kashfiyoti insoniyatning kelajakdagi ixtirolariga turtki bo'ldi. Ijodkor Ikarning bitta emasligini ta'kidlaydi:

"Ikar bitta emas, yo'q, bitta emas,  
Sanog'i yulduzlar misoli katta.  
Kimki ilk savobga iz ochdimi, bas,  
Shu yilning Ikari bo'lgay, albatta".

Sarlavhaosti izohida "Talabalarga" deyilgan. Bu kelajak yosh avlodga shoirning murojaatini anglatadi:

Sinmas qanot bilan – buyuklar misol  
Ikar bo'la olgin o'zing ham axir!"

Ikar buyuk maqsad yo'lida fojia qurboni bo'lgan obraz. Shoir idealida yosh avlodni "sinmas qanot"li Ikar bo'lishini xohlaydi. Sarlavhaga olingan mifologik antroponim shoir aytmoqchi bo'lgan fikr uchun vosita bo'lib xizmat qilgan, sarlavhada intertekstuallik hosil qilgan.

**Mifopoetik antroponim obraz** – bu badiiy asarda inson nomi (antroponim) orqali mifologik, ramziy, poetik ma'nolarni o'zida aks ettirgan badiiy obrazdir. Bu kabi obrazlar oddiy qahramon nomini emas, balki afsona, arxetip bilan bog'liq ma'no yukini olib yuradi. O'zbek adabiyotida Alpomish (xalq qahramoni, kuch va sadoqat timsoli), Xizr (abadiy hayot va ilohiy yo'l ko'rsatuvchi). "Layli va Majnun" (Oripov, 2019; 351) she'rida sarlavhadagi antroponimlar Sharq mumtoz adabiyotida

mifopoetik obrazlar bo'lib, ular insoniy muhabbat va ilohiy haqiqat yo'lini o'zida ifoda etadilar. Ular tarixiy shaxs emas. Asrlar davomida ijodkorlar tomonidan qayta talqin qilinib arxetip darajasiga ko'tarilgan. Layli oshiqni Haqqa eltuvchi vosita. Majnun Haq ishqida o'zini yo'qotgan solik. She'rda Layli – istak, Majnun – iltijo timsoli sifatida talqin qilingan. Layli Ka'baga borganda Majnunsiz hayoti u uchun tiyra ekanligini aytadi. Bu orqali shoir Allohga bo'lgan ilohiy ishq Ka'badan ham yuqori turishi g'oyasini ifoda etmoqchi bo'ladi. Majnunning Ka'baga borib faqat Laylini so'rashi u uchun dunyoviy istaklardan ko'ra Haqqa bo'lgan ishq ustun turishini bildirgan.

Mifopoetik antroponim obrazlar shoirning diniy, ijtimoiy qarashlarini ifoda etish uchun vosita bo'lgan.

#### **Xulosa**

Ijodkorlar sarlavha sifatida antroponimlardan ham foydalanishadi. Sarlavhada tilga olingan shaxs kitobxon ongida avvalgi bilimlari bilan assotsiatsiya hosil qiladi va badiiy asar mazuni bilan aloqadorlik kelib chiqadi. Bu jarayonda intertekstuallik hodisasi yuz berib, ijodkor aytmoqchi bo'lgan fikr yaqqolroq anglashila boshlaydi. Natijada, shoir mahorati va sarlavhaning asar poetik yaxlitligidagi ahamiyatini yetarlicha yoritishga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Oripov, A. (2019). *Saylanma*. Toshkent: "Tafakkur qanoti".
2. Oripov, A. (2019). *Tanlangan asarlar*. Toshkent: "Sharq".
3. Oripov, A. (2010). *Quyosh bekati*. Toshkent: Sharq.
4. Bozorova, M. (2025). Umumta'lim maktablarida diniy allyuziyalarni o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. *"Inter education & global study"*.
5. Tilakova, N. (2021). Folklor va mumtoz asarlarda Xizr obrazining talqini. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. Retrieved from <https://cyberleninka.ru/article/n/folklor-va-mumtoz-asarlarda-xizr-obrazining-talqini>
6. Nasimova, S. (2023). Antroponim sarlavhalar. *Conference on Applied and Practical Sciences*.
7. Баженова, А. (2006). *Интертекстуальность// Стилистический энциклопедический словарь русского языка – М.: Флинта; , 2006. – 104-108*. Москва: Наука. Retrieved from <https://studfile.net/preview/14297733>
8. Богданова, О. (2009). *Заглавие как семантико-композиционный элемент художественного текста: на материале английского языка*. Москва. Retrieved from <https://search.rsl.ru/en/record/01003466084>
9. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ikar\\_\(mifologiya\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ikar_(mifologiya))
10. <https://muslim.uz/uz/e/post/39132-xizr-alayhissalom>

## **Futbolga oid leksikaning semantik klassifikatsiyasi**

**Xasanov Zafar Baxtiyorovich**

[xasanovzafarw088eb@gmail.com](mailto:xasanovzafarw088eb@gmail.com)

Ingliz tili 2-fakulteti yoshlar masalalari va  
ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida futbolga oid leksik birliklarning semantik tuzilishi va tasnifi atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqot futbol terminologiyasini o'yinning turli jihatlarini qamrab oluvchi semantik guruhlariga ajratish orqali amalga oshirilgan. Xususan, quyidagi guruhlar alohida e'tibor bilan o'rganilgan: ishtirokchilar (futbolchilar), hakamlar, o'yin harakatlari, maydon elementlari, natijalar, qoidalar, taktika, vaqt tushunchalari, makon, mashqlar, musobaqalar, shuningdek, jamoaviy va individual ko'rsatkichlar. Har bir semantik guruh ingliz va o'zbek tillaridagi muqobil misollar asosida izohlangan, ularning ma'naviy xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Shu bilan birga, tadqiqotda terminlarning o'zlashuvi, lingvistik moslashuvi, shuningdek milliy til xususiyatlari bilan bog'liq farqlar ham aniqlandi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, futbol leksikasi har ikki tilda semantik jihatdan boy, tizimli va kompleks tuzilishga ega, hamda terminlarning funksional va kontekstual xususiyatlari qiyosiy yondashuv orqali samarali aniqlanishi mumkin. Maqola natijalari sport lingvistikasi, qiyosiy tilshunoslik, terminologiya va tarjimashunoslik sohalaridagi tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega, shuningdek, futbol sohasidagi xalqaro kommunikatsiya, o'quv-uslubiy materiallar yaratish va tarjima jarayonida qo'llanishi mumkin.

### **Kalit so'zlar**

Futbol leksikasi, semantik klassifikatsiya, ingliz va o'zbek tillari, sport terminologiyasi, qiyosiy semantik tahlil, futbol terminlari

## **Семантическая классификация футбольной лексики**

**Хасанов Зафар Бахтиёрович**

[xasanovzafarw088eb@gmail.com](mailto:xasanovzafarw088eb@gmail.com)

Заместитель декана по делам молодежи и  
духовно-просветительской работе 2-  
факультета английского языка,  
Узбекский государственный университет  
мировых языков

### **Аннотация**

В данной статье проводится детальный анализ семантической структуры и классификации лексических единиц, связанных с футболом, на английском и узбекском языках. Исследование выполнено путем разделения футбольной терминологии на семантические группы, охватывающие различные аспекты игры. В частности, были выделены и изучены следующие группы: участники (футболисты), судьи, игровые действия, элементы поля, результаты, правила, тактика, понятия времени, пространство, упражнения, соревнования, а также командные и индивидуальные показатели. Каждая семантическая группа проиллюстрирована альтернативными примерами на английском и узбекском языках, а их



смысловые особенности проанализированы в сравнительном аспекте. Кроме того, в исследовании выявлены особенности усвоения терминов, их лингвистическая адаптация, а также различия, связанные с национальными языковыми особенностями. Результаты анализа показывают, что футбольная лексика обоих языков является семантически богатой, системной и комплексной, а функциональные и контекстуальные свойства терминов могут быть эффективно определены с помощью сравнительного подхода. Статья представляет теоретическую и практическую значимость для исследований в области спортивной лингвистики, сопоставительного языкознания, терминологии и переводоведения, а также может быть использована в международной коммуникации в футболе, разработке учебно-методических материалов и процессе перевода.

**Ключевые  
слова**

Футбольная лексика, семантическая классификация, английский и узбекский языки, спортивная терминология, сопоставительный семантический анализ, футбольные термины

## **Semantic classification of football vocabulary**

**Khasanov Zafar Bakhtiyorovich**

[xasanovzafarw088eb@gmail.com](mailto:xasanovzafarw088eb@gmail.com)

Deputy Dean for Youth Affairs and Spiritual  
and Educational Work

Faculty of English Language 2,  
Uzbekistan State World Languages University

**Annotation**

*This article provides a comprehensive analysis of the semantic structure and classification of football-related lexical units in English and Uzbek. The study was conducted by dividing football terminology into semantic groups that cover various aspects of the game. In particular, the following groups were examined separately: participants (players), referees, game actions, field elements, results, rules, tactics, temporal concepts, spatial notions, exercises, competitions, as well as team and individual performance indicators. Each semantic group is illustrated with alternative examples in English and Uzbek, and their semantic characteristics are analyzed from a comparative perspective. Furthermore, the study identifies the assimilation of terms, their linguistic adaptation, as well as differences related to the national language features. The results of the analysis indicate that football lexicon in both languages is semantically rich, systematic, and complex, and that the functional and contextual properties of terms can be effectively determined through a comparative approach. The article has theoretical and practical significance for research in sports linguistics, comparative linguistics, terminology, and translation studies, and can also be applied in international football communication, the development of educational and methodological materials, and translation practice.*

**Keywords**

*Football vocabulary, semantic classification, English and Uzbek languages, sports terminology, comparative semantic analysis, and football terms*



Futbol leksikasi semantik tuzilishi jihatidan o'yinning turli tomonlarini, qoidalarini, taktikasini hamda ishtirokchilarini qamrab oladi. Ingliz va o'zbek tillarida futbol leksikasini ma'lum semantik guruhlariga ajratish mumkin. Semantik klassifikatsiya terminlarning ma'noviy xususiyatlari, ularning o'zaro

munosabatlari hamda til tizimidagi o'rniga asoslanadi.

Ingliz va o'zbek tillarida futbolga oid so'zlarning semantik yahlili asosida, futbol leksikasini quyidagi semantik guruhlariga ajratishni maqsadga muvofiq deb topdik (Jadvalga qarang).

| Semantik guruh            | Ingliz tilida misollar                 | O'zbek tilida misollar                            |
|---------------------------|----------------------------------------|---------------------------------------------------|
| <b>Ishtirokchilar</b>     | <i>player, goalkeeper, striker</i>     | <i>o'yinchi, darvozabon, hujumchi</i>             |
| <b>Hakamlar</b>           | <i>referee, assistant referee, VAR</i> | <i>hakam, yordamchi hakam, VAR</i>                |
| <b>Harakatlar</b>         | <i>pass, dribble, shoot</i>            | <i>pas, dribling, zarba</i>                       |
| <b>Maydon elementlari</b> | <i>goal, pitch, penalty area</i>       | <i>darvoza, maydon, jarima maydoni</i>            |
| <b>Natijalar</b>          | <i>win, draw, score, goal</i>          | <i>g'alaba, durang, hisob, gol</i>                |
| <b>Qoidalar</b>           | <i>foul, offside, yellow card</i>      | <i>foul, ofsayd, sariq kartochka</i>              |
| <b>Taktika</b>            | <i>formation, attack, defense</i>      | <i>formatsiya, hujum, mudofaa</i>                 |
| <b>Vaqt tushunchalari</b> | <i>half, extra time, stoppage time</i> | <i>taym, qo'shimcha vaqt, kompensatsiya vaqti</i> |
| <b>Makon</b>              | <i>wing, center, penalty box</i>       | <i>qanot, markaz, shtraf maydoni</i>              |
| <b>Mashqlar</b>           | <i>training, warm-up, drill</i>        | <i>mashq, qizish, trening</i>                     |
| <b>Musobaqalar</b>        | <i>league, cup, championship</i>       | <i>liga, kubok, chempionat</i>                    |
| <b>Ko'rsatkichlar</b>     | <i>skill, speed, stamina</i>           | <i>mahorat, tezlik, chidamlilik</i>               |

**1-jadval.** Futbol leksikasining semantik guruhlar

Birinchi guruhni o'yin ishtirokchilari tasvirlovchi leksik birliklar tashkil etadi. Crystal, D. (2003) Ingliz tilida *player* so'zi umumiy tushuncha bo'lib, futbolchini bildiradi, o'zbek tilida *o'yinchi* yoki *futbolchi* shakllari qo'llaniladi. Pozitsiyalar bo'yicha ingliz tilida *goalkeeper, defender, midfielder, forward, striker* terminlari mavjud. O'zbek tilida ular *darvozabon, himoyachi* yoki *mudofaachi, yarim himoyachi, hujumchi* shakllarida ifodalanadi. *Sweeper* termini ingliz tilida erkin himoyachini bildiradi, o'zbekchada *libero* yoki *erkin himoyachi* ishlatiladi. *Winger* so'zi qanot o'yinchisini anglatadi, o'zbek tilida *qanot o'yinchisi* yoki *flang* shakllari yordamida voqelanadi.

Ikkinchi semantik guruhni hakamlar va xizmat ko'rsatuvchi shaxslar terminlari tashkil

etadi. Ingliz tilida *referee* asosiy hakamni bildiradi, o'zbek tilida *hakam* yoki *referi* shakllari qo'llaniladi. *Assistant referee* termini yordamchi hakamni anglatadi, o'zbekchada *yordamchi hakam* yoki eski varianti *chiziq hakami* ishlatiladi. *Fourth official* iborasi to'rtinchi hakamni bildiradi, o'zbek tilida *to'rtinchi (ehtiyot) hakam* shakllari mavjud. VAR (Video Assistant Referee) zamonaviy texnologiya orqali yordam beruvchi hakamni anglatadi va har ikki tilda bir xil shaklda qo'llaniladi. *Linesmen* termini eski inglizcha shakli bo'lib, hozirda *assistant referee* bilan almashtirilgan.

Uchinchi guruhni o'yin harakatlari va texnik elementlar tasvirlovchi terminlar tashkil etadi. Ingliz tilida *pass* to'p uzatmani bildiradi, o'zbek tilida *pas* deb ishlatiladi. *Dribble* termini

to'pni boshqarib olib ketishni anglatadi, o'zbekchada *dribbling* yoki *to'p bilan yugurish* ifodalari bilan ifodalanadi. *Shoot* fe'li zarba berishni bildiradi, o'zbek tilida *zarba bermoq* yoki *tepmoq* shakllari qo'llaniladi. *Tackle* termini to'sishni anglatadi, o'zbekchada *to'smoq* ifodasi ishlatiladi. *Header* so'zi bosh bilan tepishni bildiradi, o'zbek tilida *bosh bilan tepish* shakli mavjud.

To'rtinchi semantik guruh tarkibiga o'yin maydonining asosiy qismlari hamda unga tegishli jihozlar kiradi. Ingliz tilidagi *pitch* yoki *field* so'zlari o'yin o'tkaziladigan hududni anglatib, o'zbek tilida ular *maydon* yoki *o'yin maydoni* shaklida ifodalanadi. *Goal* so'zi darvozani bildiradi, o'zbekcha muqobili esa *darvoza* yoki rus tilidan o'zlashgan *vorota* shaklidir. Fromkin, V., Rodman, R., & Hyams, N. (2018). *Goalpost* termini darvozaning vertikal ustunlariga nisbatan ishlatiladi, o'zbek tilida bu ma'no *darvoza ustuni* birikmasi orqali ifodalanadi. *Crossbar* so'zi esa darvozaning yuqori qismini tashkil etuvchi gorizontaal elementni anglatadi; unga mos o'zbekcha variantlar *ko'ndalang to'sin* yoki *darvoza to'sing'idir*. Shuningdek, *net* so'zi darvoza orqasiga tortiladigan to'rni bildiradi, o'zbek tilida bu tushuncha *to'r*, *setka* yoki *darvoza to'ri* shaklida qo'llaniladi.

Beshinchi semantik guruh o'yin natijasini va uning turli holatlarini ifodalovchi terminlardan iboratdir. Ingliz tilidagi *score* so'zi o'yinda qayd etilgan natijani bildiradi, o'zbek tilida bu ma'no *natija* yoki *hisob* shakllarida ifodalanadi. Cabré, M.T. (1999). *Win* leksemasi g'alabaga erishish holatini anglatadi, unga mos o'zbekcha birliklar *g'alaba* yoki *yutishdir*. *Draw* termini raqib jamoalar o'rtasida hisob teng bo'lgan holatni bildiradi; o'zbek tilida bu *durang* yoki *tenglik* so'zlari orqali ifodalanadi. *Loss* esa aksincha, mag'lubiyat holatini anglatib, o'zbek tilida *mag'lubiyat* yoki *yutqizish* shakllari bilan qo'llaniladi. Shuningdek, *goal* so'zi nafaqat darvozani, balki urilgan to'p – ya'ni gol tushunchasini ham anglatadi, bu leksema o'zbek tilida to'liq o'zlashtirilgan holda faol ishlatiladi.

Oltinchi semantik guruh futbol o'yinida amal qiladigan qoidalar va ularni buzish holatlarini bildiruvchi terminlardan iborat bo'lib, sport etikasi va intizomini ifodalashda katta ahamiyatga ega. Ingliz tilidagi *foul* so'zi to'g'ridan-to'g'ri qoidabuzarlikni bildiradi, o'zbek tilida esa shu ma'no *qoidabuzarlik* leksemasi orqali ifodalanadi. Crystal, D. (2010). *Offside* termini esa taqiqlangan holatni, ya'ni o'yinchi o'yin maydonida belgilangan chiziqdan oldinda turgan vaziyatni anglatadi. O'zbek tilida bu tushuncha *ofsayd* yoki *taqiqlangan holat* shakllarida qo'llanadi. *Handball* so'zi to'pga qo'l bilan tegish holatini bildiradi, bu o'zbek tilida *qo'l bilan o'ynash* tarzida ifodalanadi. Shuningdek, intizomiy choralarni ifodalovchi *yellow card* va *red card* iboralari ham keng tarqalgan bo'lib, ular mos ravishda *sariq kartochka* va *qizil kartochka* shaklida qo'llanadi.

Etтинchi semantik guruhda o'yin taktikasi va strategiyasi bilan bog'liq terminlar jamlangan. Ingliz tilidagi *formation* jamoaning maydondagi joylashuvi va o'yin tizilishini bildiradi; o'zbek tilida bu *formatsiya*, *sarflanish* yoki *tizilish* shakllarida ifodalanadi. *Attack* leksemasi hujum harakatlarini, *defense* esa himoya tizimini bildiradi; o'zbek tilida ular mos ravishda *hujum* va *himoya* so'zlari bilan ifodalanadi. Hurford, J.R., Heasley, B., & Smith, M.B. (2007). *Counter-attack* iborasi esa qarshi hujumni anglatuvchi termin bo'lib, o'zbek tilida *qarshi hujum* yoki *kontrataka* shakllarida ishlatiladi. *Pressing* esa raqibga faol bosim o'tkazishni anglatib, o'zbek tilida ham shu tarzda – *pressing* yoki *bosim o'tkazish* so'zlari orqali ifodalanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ushbu terminlar o'yinning taktik tafakkuri va jamoaning strategik yondashuvini aks ettiradi.

Sakkizinchi semantik guruh vaqt va davrga oid tushunchalarni qamrab oladi. Ingliz tilida *half* so'zi o'yin bo'limini, ya'ni *yarim taymni* bildiradi, o'zbek tilida esa bu *taym* yoki *bo'lim* shaklida ishlatiladi. *First half* – *birinchi taym*, *second half* – *ikkinchi taym* shakllarida o'zbek tiliga moslashgan. *Extra time* iborasi qo'shimcha vaqtni anglatadi; o'zbek tilida

*qo'shimcha vaqt* yoki *qo'shimcha taym* tarzida qo'llanadi. Shuningdek, *penalty shootout* so'zi penaltilar seriyasini bildiradi, bu holatda o'zbekcha muqobillar *penaltilar seriyasi* yoki soddaroq shaklda *penaltilar* tarzida ishlatiladi. Shunday qilib, mazkur terminlar o'yin jarayonining vaqt mezonlarini aniqlab beradi.

To'qqizinchi semantik guruh makon va yo'nalish bilan bog'liq terminlardan tashkil topgan. Ingliz tilidagi *forward* so'zi oldinga harakatni bildiradi; o'zbek tilida *oldinga* yoki *hujum tomon* ifodalari bilan mos tushadi. Lyons, J. (1995). *Linguistic semantics: An introduction* *Backward* termini orqaga qaytish yoki himoya pozitsiyasiga o'tishni anglatadi, o'zbekcha muqobillari esa *orqaga* yoki *himoya tomondir*. *Wing* leksemasi qanot hududini bildiradi; o'zbek tilida *qanot* yoki *yon tomon* shakllari ishlatiladi. *Center* so'zi markaziy hududni ifodalaydi, o'zbek tilida bu *markaz* yoki *o'rta* shakllarida qo'llanadi. *Penalty area* esa *jarima maydoni* ma'nosini anglatadi va o'zbek futbol terminologiyasida *jarima maydoni* yoki *shtraf maydoni* shaklida mustahkam o'rnashgan.

O'ninchi semantik guruh mashqlar va tayyorgarlik jarayoniga oid terminlardan iborat bo'lib, ular sportchilarni jismoniy va ruhiy jihatdan o'yinga tayyorlash jarayonini ifodalaydi. Ingliz tilidagi *training* so'zi umumiy mashg'ulotlarni bildiradi, o'zbek tilida bu *mashq* yoki *trenirovka* shaklida qo'llanadi. Hojiyev, A. (2002). *Warm-up* so'zi o'yindan oldingi qizish jarayonini ifodalaydi; unga mos o'zbekcha shakllar *qizish* yoki *razminkadir*. *Drill* so'zi maxsus mashq yoki takroriy harakatlarni bildiradi, o'zbek tilida *maxsus mashq* yoki *drill* tarzida ishlatiladi. *Practice* termini esa amaliy tayyorgarlikni anglatib, o'zbek tilida *amaliyot* yoki *mashq qilish* tarzida qo'llanadi. Goddard, C. (2011). Ko'rinib turganidek, mazkur terminlar futbolchi tayyorgarligining tizimli bosqichlarini belgilab beradi.

O'n birinchi semantik guruhda musobaqa turlari va turnirlar bilan bog'liq terminlar jamlangan. Ingliz tilidagi *league* so'zi ligani bildiradi, o'zbek tilida *liga* yoki *chempionat* shakllari ishlatiladi. *Cup* so'zi *kubok musobaqasi* ma'nosida ishlatiladi, o'zbekchada bu *kubok* yoki *kubok musobaqasi* shaklida ifodalanadi. *Tournament* so'zi turnirni bildiradi, o'zbek tilida esa *turnir* yoki *musobaqa* shakllari bilan moslashgan. *Championship* termini chempionat ma'nosida, *World Cup* esa *jahon chempionatini* anglatuvchi ibora sifatida qo'llanadi. Ayni paytda *Oltin kubok* shakli ham o'zbek futbol diskursida faol ishlatilmoqda.

O'n ikkinchi semantik guruh jamoaviy va individual ko'rsatkichlarni ifodalovchi terminlardan tashkil topadi. Cabré, M.T. (1999). *Teamwork* so'zi jamoaviy ishni bildiradi, o'zbek tilida *jamo* *ishi* yoki *jamo* *ruhi* shakllarida ishlatiladi. *Leadership* termini yetakchilikni anglatadi, unga mos o'zbekcha birliklar *rahbarlik* yoki *yetakchilikdir*. *Skill* leksemasi o'yinchining texnik mahoratini bildiradi, o'zbek tilida bu *mahorat* yoki *ko'nikma* shaklida ifodalanadi. *Stamina* so'zi chidamlilikni bildiradi, o'zbekcha muqobillari *chidamlilik* yoki *bardoshlilikdir*. *Speed* esa tezlikni anglatadi, o'zbek tilida *tezlik* yoki *sur'at* shakllari bilan qo'llanadi. Shunday qilib, bu terminlar sportchining jismoniy salohiyati va psixologik tayyorgarligini tavsiflovchi asosiy semantik birliklar sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, ingliz va o'zbek tillarida futbolga oid leksik birliklarning semantik klassifikatsiyasi shuni ko'rsatadiki, semantik guruhlar har ikkala tilda ham o'yinning turli jihatlarini qamrab oladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi futbol leksikasi semantik jihatdan ko'p umumiylikka ega bo'lsa-da, har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud bo'lib, bu milliy til tizimlarining o'ziga xosligini aks ettiradi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Cabré, M. T. (1999). *Terminology: Theory, methods and applications*. John Benjamins Publishing Company.
2. Crystal, D. (2003). *A dictionary of linguistics and phonetics* (5th ed.). Blackwell Publishing.
3. Crystal, D. (2010). *The Cambridge encyclopedia of language* (3rd ed.). Cambridge University Press.
4. Fromkin, V., Rodman, R., & Hyams, N. (2018). *An introduction to language* (11th ed.). Cengage Learning.
5. Goddard, C. (2011). *Semantic analysis: A practical introduction* (2nd ed.). Oxford University Press.
6. Hojiyev, A. (2002). *Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati*. Toshkent: O'qituvchi.
7. Hurford, J. R., Heasley, B., & Smith, M. B. (2007). *Semantics: A coursebook* (2nd ed.). Cambridge University Press.
8. Lyons, J. (1995). *Linguistic semantics: An introduction*. Cambridge University Press.

---

**Nutqiy muloqot odobini  
ifodalovchi maqollar (o'zbek va  
ingliz tillari misolida)****Muxtashamova Parvina Zahitovna**  
[a7191987@gmail.com](mailto:a7191987@gmail.com)*Teacher of the Faculty English 3, Department of  
Theoretical aspects of English № 3,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

- 
- Annotatsiya** *Mazkur maqolada nutqiy muloqot odobi va uning axloqiy-me'yoriy ahamiyati o'zbek hamda ingliz tillari paremiologik birliklari asosida qiyosiy jihatdan batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqot lingvomadaniy, pragmatik va aksiologik yondashuvlarga tayangan holda nutq madaniyati, kommunikativ xulq-atvor, so'z tanlash mas'uliyati hamda muloqot muhitining shaxs axloqiy qiyofasini shakllantirishdagi o'rnini yoritishga qaratilgan. O'zbek xalq paremiologiyasida nutqiy odob, ehtiyotkorlik, suhbatdosh tanlash, so'zning ijobiy va salbiy ta'siri, aytilgan so'zning qaytarilmasligi kabi tushunchalar obrazli va konseptual birliklar orqali ifodalanadi. Ushbu paremiologik birliklar ingliz tilidagi semantik va funksional analoglar bilan qiyoslanib, har ikki tilda nutqiy muloqotga nisbatan umumiy axloqiy qarashlar mavjudligi aniqlanadi. Tahlil jarayonida so'zning shaxs ijtimoiy mavqeiga, axloqiy qiyofasiga va kommunikativ muvaffaqiyatiga ta'siri, shuningdek, nutqiy xatolarning ijtimoiy va madaniy oqibatlarini ochib beriladi. Tadqiqot natijalari nutqiy muloqot odobi har ikki til va madaniyatda muhim axloqiy qadriyat sifatida qaralishini, biroq uning ifoda vositalari, metaforik tasvirlar va baholash mezonlarida milliy-madaniy xususiyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Maqolada paremiologik birliklar shaxsning axloqiy kamoloti, ijtimoiy moslashuvi va nutqiy kompetensiyasini shakllantiruvchi muhim tarbiyaviy vosita sifatida asoslanadi.*
- Kalit so'zlar** *Nutqiy muloqot odobi, paremiologiya, nutq madaniyati, kommunikativ xulq, o'zbek va ingliz maqollari, lingvomadaniyat*

---

**Пословицы, отражающие  
речевой этикет (на материале  
узбекского и английского  
языков)****Мухташамова Парвина Захитовна**  
[a7191987@gmail.com](mailto:a7191987@gmail.com)*Преподаватель факультета «Английский  
язык – 3», Кафедра теоретических  
аспектов английского языка № 3,  
Узбекский государственный университет  
мировых языков*

- 
- Аннотация** *В статье проводится подробный сравнительный анализ речевого этикета и его этико-нормативного значения на материале паремиологических единиц узбекского и английского языков. Исследование основано на лингвокультурологическом, прагматическом и аксиологическом подходах и направлено на изучение культуры речи, коммуникативного поведения, ответственности за выбор слова, а также роли коммуникативной среды в формировании нравственного облика личности. В узбекской паремиологии такие понятия, как речевой этикет, осторожность, выбор собеседника, положительное и отрицательное воздействие слова, а также необратимость сказанного, выражаются посредством образных и*



концептуальных единиц. Данные паремиологические единицы сопоставляются с их семантическими и функциональными аналогами в английском языке, что позволяет выявить наличие общих нравственных представлений о речевом общении в обеих лингвокультурах. В ходе анализа раскрывается влияние речи на социальный статус, нравственный облик и коммуникативную успешность личности, а также социальные и культурные последствия коммуникативных ошибок. Результаты исследования показывают, что речевой этикет рассматривается в обеих языковых культурах как важная нравственная ценность, однако в средствах выражения, метафорической образности и оценочных критериях проявляются национально-культурные особенности. В статье обосновывается, что паремиологические единицы выступают значимым воспитательным механизмом, способствующим нравственному развитию, социальной адаптации и формированию коммуникативной компетенции личности.

**Ключевые слова** *Речевой этикет, паремиология, культура речи, коммуникативное поведение, узбекские и английские пословицы, лингвокультура*

## **Proverbs Expressing Speech Etiquette (A Case Study of the Uzbek and English Languages)**

**Muhtashamova Parvina Zakhitovna**  
[a7191987@gmail.com](mailto:a7191987@gmail.com)

*Teacher, Faculty of English 3, Department of  
Theoretical Aspects of English No. 3,  
Uzbekistan State World Languages University*

**Annotation** *This article provides a detailed comparative analysis of speech etiquette and its ethical-normative significance based on paremiological units in the Uzbek and English languages. Relying on linguocultural, pragmatic, and axiological approaches, the study examines speech culture, communicative behavior, responsibility in word choice, and the role of the communicative environment in shaping an individual's moral character. In Uzbek paremiology, such concepts as speech etiquette, caution, interlocutor selection, the positive and negative impact of words, and the irreversibility of spoken speech are expressed through figurative and conceptual units. These paremiological expressions are compared with their semantic and functional analogues in English, revealing the existence of shared ethical views on verbal communication in both languages. The analysis highlights the influence of speech on an individual's social status, moral image, and communicative success, as well as the social and cultural consequences of communicative errors. The findings demonstrate that speech etiquette is regarded as an important moral value in both linguistic cultures; however, national and cultural specificities are evident in the means of expression, metaphorical imagery, and evaluative criteria. The article substantiates that paremiological units function as an essential educational mechanism contributing to moral development, social adaptation, and the formation of communicative competence.*

**Keywords** *Speech etiquette, paremiology, speech culture, communicative behavior, Uzbek and English proverbs, linguoculture*



### Kirish

| "Ikki eshik orasi"                      | Yosh qahramon hayot tajribasiga ega erkakka murojaat qiladi | Tajribali, katta yoshli erkak        | Bu qo'llanish kattalik-kichiklik munosabatini va so'zlovchining kamtarligini bildiradi.                                    |
| "Dunyoning ishlari" (xalqona dialoglar) | Bola yoki o'smir notanish erkak bilan gaplashadi            | Ota yoshidagi begona erkak           | "Amaki" bolalar nutqida ota obraziga yaqin hurmat shakli sifatida ishlatiladi.                                             |
| "O'zbeklar" turkumi                     | Jamoa ichida e'tiborli erkakka murojaat                     | Hurmat ramzi bo'lgan umumiy murojaat | Bu yerda "amaki" shaxsning ijtimoiy obro'sini ko'rsatadi, qarindoshlik ma'nosi yo'q.                                       |

### 2-jadval.

### Muhokama

Ushbu nomlar ijtimoiy kontekst va yoshga qarab turlicha qo'llanadi. Ularning funksiyasi o'ziga xos madaniy kodlarni o'z ichiga oladi va tildagi hurmat belgilarini normativlashtiradi. Masalan, "aka" yoki "opa" atamaları nafaqat yoshi kattalarni, balki ijtimoiy mavqe jihatdan hurmatga loyiq shaxslarni ham ifodalaydi. Shu jihatdan, qarindosh bo'lmagan shaxslarga nisbatan ishlatiladigan nomlar ijtimoiy sathlar va muhitga moslashgan lingvistik texnikadir. Qarindoshlik terminlarining qarindosh bo'lmagan shaxslarga nisbatan qo'llanishi o'zbek tilining muhim ijtimoiy-pragmatik xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bunday birliklar nutqda faqat qarindoshlik munosabatini bildirish bilangina cheklanmay, balki hurmat, samimiylik, yosh ustunligi, ijtimoiy maqom va jamoaviylik kabi ma'nolarni ham ifodalaydi. Bu holat o'zbek xalqining milliy tafakkuri, muloqot madaniyati va axloqiy qadriyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Turkiyshunoslikda qarindoshlik atamaları turli tillar materiallari asosida E.V. Sevortyan, V.I. Tsintsius, L.A. Pokrovskaya, I. Ismoilov, H.G. Yusupov, N.V. Bikbulatov, R.G. Muhammedova, A. Djumakulov, L. Ongarbekova, V. Butanaev. Qarindoshlik atamaları I. Ismoilov tomonidan turkiy tillarda chuqur o'rganilgan (Madaminova, 2022; 1-3).

O'zbek madaniyatida qarindosh bo'lmagan shaxslarga nisbatan ishlatiladigan qarindoshlik nomlari madaniy va lingvistik jihatdan ijtimoiy hurmat va samimiyatni aks ettiradi. Bu nomlar, shuningdek, tilning ijtimoiy nutq qoidalarini va samimiyat intonatsiyasini ko'rsatadi. Shu sababli, tilshunoslik, etnografiya va madaniyatshunoslik tadqiqotlarida ular muhim ob'ekt hisoblanadi.

Qarindoshlik atamaları odatda genetik yoki nikoh orqali bog'langan oilaviy munosabatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Ammo til va madaniyat doirasida ba'zi qarindoshlik atamaları qon-qarindosh bo'lmagan shaxslarga nisbatan ham vosita sifatida qo'llanilishi mumkin. Ushbu fenomenni

tahlil qilishda quyidagi aspektlarga e'tibor qaratish lozim:

#### 1. Leksik-semantik kengayish

Turk va o'zbek tillarida qarindoshlik so'zlari leksik jihatdan uch asosiy guruhga bo'linadi:

- *Qon-qarindoshlik atamaları:* ota, ona, aka, opa, singil, aka-uka kabi. Bu atamalar birodarlar va ota-onalarning bobolar bilan genetik bog'liqlikni aks ettiradi.
- *Nikohdan kelib chiqqan atamalar:* er, xotin, kuyov, kelin, qaynoqa-tomondan qarindoshlar. Ushbu atamalar nikoh orqali bog'langan shaxslarni anglatadi.
- *Yaqinlik yoki do'stona munosabatlar nomlari:* masalan, "tutingan ona", "tutingan bola", bu atamalar metaforik ma'noda yoki hurmat ifodasi sifatida ishlatiladi va aslida qonda bog'lanmagan shaxslarga nisbatan ishlatiladi.

Qon-qarindosh bo'lmagan shaxslarni nomlashda ko'pincha hurmat, yashash sharoiti yoki madaniy qabul qilish omillari rol o'ynaydi. Misol uchun, bir kishiga ota yoki opa deb murojaat qilish ijtimoiy yaqinlik, yetakchilik, yoshi kattaligi yoki o'rganishdagi roli bilan belgilanadi, lekin genetik aloqa mavjud emas. Qarindoshlik atamaları hurmat belgisi sifatida xizmat qiladi, yuzga tahdid soluvchi xatti-harakatlarni yumshatadi va ijtimoiy ierarxiyani mustahkamlaydi. Bu atamalar ko'p funksiyali bo'lib, bir vaqtning o'zida lingvistik, ijtimoiy va madaniy darajalarda ishlaydi. (Mamatqulova, 2025; 3-4).

#### 2. Madaniy va kommunikativ kontekst

- Oilaga qarindosh bo'lmagan, lekin uzoq o'zaro ishonchli munosabatdagi shaxsga "aka", "opa" yoki "buva" deb murojaat qilinishi odatiy. Bu holatda atama ijtimoiy rolni ifodalaydi.

"BUVA" SO'ZINING O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDAGI QO'LLANISHI

| Asar nomi                       | Vaziyat (kontekst)                                                      | “Buva” soʻzining maʼnosi                            | Pragmatik va ijtimoiy roli                                                    | Izoh                                                                                                        |
|---------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| “Dunyoning ishlari”             | Bolalar yoshi katta, tajribali cholgʻa murojaat qiladi                  | Biologik bobosi emas, tajribali va donishmand shaxs | Hurmat, muloyimlik, ijtimoiy maqom                                            | “Buva” soʻzi metaforik maʼnoda ishlatiladi, shaxsni hurmat qilish va eʼzozlash vositasi sifatida qoʻllanadi |
| “Oʻzbeklar” (turkum)            | Mahalla oqsoqoliga bolalar murojaati                                    | Mahallada hurmatga sazovor, oqsoqol shaxs           | Axloqiy mavqe va jamiyatdagi hurmatni ifodalaydi                              | Bu yerda “buva” shaxsning ijtimoiy roli va maʼnaviy obroʻsini bildiradi                                     |
| “Ikki eshik orasi”              | Yosh qahramon hayot tajribasiga ega yoshi katta shaxsga murojaat qiladi | Donishmand tajribali erkak                          | Kattalik–kichiklik munosabatini koʻrsatadi, maslahatga tayyorligini bildiradi | Qarindosh boʻlmagan shaxsni maʼnaviy qarindosh sifatida qabul qilish ifodalanadi                            |
| “Dunyoning ishlari” (dialoglar) | Begona, yoshi katta chol bilan suhbat                                   | Oqsoqol, tajribali, hurmatli shaxs                  | Nutqni muloyimlashtiradi, eʼtirof bildiradi                                   | “Buva” soʻzi ijtimoiy va madaniy normani aks ettiruvchi pragmatik birlik sifatida ishlatiladi               |

### 3-jadval.

- Jamiyatda uzoq muddat birga yashaydigan yoki yordam beradigan shaxslarga qarindoshlik atamaları berish ularni oilaning bir qismi sifatida qabul qilishni anglatadi.

Vaqtning oʻtishi, oʻzbek xalqi hayotida yuz bergan zoʻr iqtisodiy, siyosiy, madaniy oʻzgarishlar tilimizning lugʻat tuzilishini ham oʻzgartirdi, koʻpgina qon qarindoshlik atamaları eskirdi, isteʼmoldan doirasidan chiqdi, bir turkum atamalarning maʼno doiralari kengaydi va oʻzgarishga uchradi. Maʼlumki, oʻzbek xalqi oʻzining tarixiy taraqqiyot jarayonida turli sistemadagi tillarda gapiruvchi koʻpgina xalqlar bilan birga hayot kechirdi, aralashdi (Sabirova, 2025; 2-3). Hamma tillar qon-qarindoshlik atamalariga ega boʻlganligi tufayli, lugʻat tarkibiy qismi universal hisoblanadi, lekin jamiyatdan jamiyatgacha farq

qiladi. Qarindoshlik tizimi odatda naslga va nikohga asoslanadi, ammo qarindoshlik aloqalari quyidagi mezonlarga asoslanadi: oʻzaro kelishuv, avlod, yosh, jins va shular asosida qarindoshlik tizimi paydo boʻladi. Qarindoshlik tizimlari, bir-biri bilan chambarchas bogʻliq boʻladi, ammo bir-biriga oʻxshash emas. Shuni taʼkidlash kerakki, qarindoshlik maʼnosini ifodalovchi leksemalarning yaratilish davri juda qadim ibtidoiy jamoa tuzum davrlariga borib taqaladi. Davr mahsuli sifatida qarindoshlar orasidagi munosabatlarni ifodalab keladi (Sabirova, 2025; 2-3).

- Baʼzan tilshunoslar qarindoshlik atamalarining metaforik funksiyasini taʼkidlaydi; masalan, akalarcha yoki bobosimon intizom, onalik roli. Bu til imkoniyatlarining kengligini koʻrsatadi.



| <b>Qarindoshlik atamasi</b> | <b>Asar nomi</b>         | <b>Vaziyat / Kontekst</b>                                                               | <b>Metaforik ma'no</b>                        | <b>Pragmatik / ijtimoiy roli</b>                                           |
|-----------------------------|--------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|
| Aka                         | <i>O'zbeklar</i>         | Mahalla oqsoqoli yoki yoshi kattaroq erkak yoshlarga maslahat beradi                    | Akalarcha intizom, boshqaruv va tartib        | Yoshi katta shaxsning tarbiyaviy va jamoaviy boshqaruv rolini aks ettiradi |
| Buva                        | <i>Dunyoning ishlari</i> | Bolalar yoshi katta cholga murojaat qiladi; ularni nasihat bilan yo'l-yo'riq ko'rsatadi | Bobolarcha intizom, tajriba, oqilona maslahat | Tajribali shaxsning ijtimoiy va axloqiy rahbarlik funksiyasini ifodalaydi  |
| Ona                         | <i>O'zbeklar</i>         | Jamoadi ayol kishi hamma uchun rahbarlik qiladi, g'amxo'rlik qiladi                     |                                               |                                                                            |

#### 4-jadval.

Qon-qarindosh bo'lmagan shaxslarga nisbatan ishlatiladigan qarindoshlik nomlarini tahlil qilishda quyidagi mezonlar qo'llaniladi:

- Ijtimoiy o'rni: shaxs oila yoki guruh ichidagi rolini qanchalik aks ettiradi.
- Nutq konteksti: rasmiy, norasmiy, do'stona yoki hurmatga asoslangan.
- Madaniy xususiyat: turkiy, o'zbek yoki boshqa madaniyatlarda bu atamalarining urf-odatga asoslanishi.
- Morfologik va semantik moslik: atamaning qaysi guruhga mansub ekanligini aniqlash va uning konnotativ qiymati.

#### **Xulosa**

Qon-qarindosh bo'lmagan shaxslar uchun qarindoshlik atamalarin qo'llash – bu lingvistik, psixologik va madaniy vosita sifatida qaraladi. U ijtimoiy yaqindoshlikni ifodalaydi,

hurmat va qo'llab quvvatlashni namoyon qiladi, shuningdek, tilning semantik resurslarini kengaytiradi. Bu fenomen ayniqsa turkiy va o'zbek madaniyatida kuchli ijtimoiy integratsiya va oila markaziylikni aks ettiradi. Misol: uzoq vaqt birga yashaydigan qo'shni yoki mentor bo'lgan shaxsga "aka" yoki "buva" deb murojaat qilish. Bu, shaxsiy genetik bog'lanish bo'lmagan holda ijtimoiy va madaniy yaqinlikni bildiradi. O'zbek madaniyatida ijtimoiy yaqinlik – shaxslar o'rtasidagi samimiylilik, hurmat va ishonch orqali yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni anglatadi. Bu yaqinlik nafaqat oilaviy yoki do'stlik asosida, balki milliy adabiyot, og'zaki ijod, axloqiy qadriyatlar va diniy-ta'limiy an'analarda ham o'z aksini topadi. Samimiylilik va hurmat orqali o'zaro yaqinlik jamiyatlardagi ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni ta'minlaydi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Baratova, X. G. (2025). Ingliz va o'zbek tillaridagi qarindoshlik terminlarining lingvomadaniy xususiyatlari. *Biruni Journal*.
2. Karshibayeva, Y. (2024). Kinship terms of the Uzbek language. *Modern Science and Research*.
3. Madaminova, R. Y. (2022). The kinship terms of the Uzbek and Karakalpak nations (on the example of Uzbek dialects of Karakalpakstan). *Eurasian Scientific Herald*.

4. Mamatqulova, M. N. qizi. (2025). Pragmatic functions of kinship address terms and politeness strategies in Uzbek–English bilingual film dialogues. *Advances in Science and Education*.
5. Sabirova, Z. (2025). Turk va o'zbek madaniyatida qarindoshlik atamalarining murojaat shakli sifatida ifodalanishi. *Social Sciences in the Modern World: Theoretical and Practical Research*.
6. Sabirova, Z. Sh. (2024). Turk va o'zbek madaniyati—qarindoshlik atamalarining o'rganilishi va lug'atlarda qo'llanilishi. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*.
7. Xalilova, Z. M. (2024). Semantic field of "kinship relations" in English and Uzbek languages. *PEDAGOGS International Research Journal*.

---

## **The Linguistic Nature of Retronyms and Mechanisms for Ensuring Communicative Clarity**

**Amirqulov Dilshod Toshtemirovich**

[adilshod9001@gmail.com](mailto:adilshod9001@gmail.com)

Assistant teacher,  
Alisher Navoi's Tashkent State University of  
Uzbek Language and Literature

---

**Annotation** *This article investigates the linguistic phenomenon of retronyms, focusing on their structural, semantic, and functional characteristics in modern language. Retronyms emerge as a response to social, technological, and cultural changes that introduce new concepts, creating a need to clarify previously established terms. They are typically formed by adding specifying components to existing lexical units, which allows for semantic differentiation and reduces communicative ambiguity. Retronyms preserve the original label while distinguishing new referents, illustrating the dynamic and adaptive nature of language. The study emphasizes their role in maintaining lexical stability, enhancing semantic precision, and supporting effective communication. By reflecting the interaction between language and evolving societal, cultural, and technological contexts, retronyms act as a mechanism of linguistic innovation. They demonstrate how language self-regulates, adapts to new realities, and ensures clarity and comprehensibility in both spoken and written communication. Overall, retronyms are shown to be an essential tool for semantic clarification and communicative efficiency in contemporary linguistic systems.*

**Keywords** *Retronymy, retronym, semantic differentiation, primary nomination, secondary nomination, lexical stability, communicative clarity, language and culture*

---

## **Лингвистическая природа ретронимов и механизмы обеспечения коммуникативной ясности**

**Амиркулов Дилшод Тоштемирович**

[adilshod9001@gmail.com](mailto:adilshod9001@gmail.com)

Преподаватель,  
Ташкентский государственный  
университет узбекского языка и  
литературы имени Алишера Навои

---

**Аннотация** *В статье рассматривается лингвистическое явление ретронимов, с акцентом на их структурные, семантические и функциональные особенности в современном языке. Ретронимы возникают в ответ на социальные, технологические и культурные изменения, которые приводят к появлению новых понятий и создают необходимость уточнения ранее существовавших терминов. Они формируются путем добавления уточняющих компонентов к уже существующим лексическим единицам, что позволяет проводить семантическую дифференциацию и уменьшает коммуникативную неоднозначность. Ретронимы сохраняют исходное название, одновременно выделяя новые объекты, что отражает динамичную и адаптивную природу языка. Исследование подчеркивает их роль в поддержании лексической стабильности, повышении семантической точности и обеспечении эффективной коммуникации. Отражая взаимодействие языка с меняющимися социальными, культурными и*

технологическими контекстами, ретронимы выступают как механизм лингвистических инноваций. Они демонстрируют, как язык саморегулируется, адаптируется к новым реалиям и обеспечивает ясность и понятность как в устной, так и в письменной речи. В целом, ретронимы рассматриваются как важный инструмент семантического уточнения и повышения коммуникативной эффективности в современных языковых системах.

**Ключевые слова** Ретронимия, ретроним, семантическая дифференциация, первичная номинация, вторичная номинация, лексическая стабильность, коммуникативная ясность, язык и культура

## Retronimlarning lisoniy tabiati va kommunikativ aniqlikni ta'minlash mexanizmlari

Amirqulov Dilshod Toshtemirovich

[adilshod9001@gmail.com](mailto:adilshod9001@gmail.com)

O'qituvchi,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Annotatsiya** Ushbu maqolada retronimlar fenomeni, ularning zamonaviy tilning struktural, semantik va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Retronimlar ijtimoiy, texnologik va madaniy o'zgarishlarga javoban yuzaga keladi, bu esa yangi tushunchalar paydo bo'lishini va ilgari mavjud bo'lgan atamalarni aniqlashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Ular odatda mavjud leksik birliklarga aniqlovchi komponent qo'shish orqali shakllanadi, bu esa semantik farqlanishni ta'minlaydi va kommunikativ noaniqlikni kamaytiradi. Retronimlar asl nomni saqlab qoladi, shu bilan birga yangi obyektlarni ajratib ko'rsatadi, bu tilning dinamik va moslashuvchan tabiatini ochib beradi. Tadqiqot ularning leksik barqarorlikni saqlash, semantik aniqlikni oshirish va samarali kommunikatsiyani ta'minlashdagi rolini ko'rsatadi. Retronimlar til va jamiyatning o'zgaruvchi madaniy, texnologik va ijtimoiy kontekstlari o'rtasidagi o'zaro aloqani aks ettirib, lingvistik innovatsiya mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi. Ular tilning o'zini tartibga solish, yangi realiyalarga moslashish va og'zaki hamda yozma nutqda tushunarlikni ta'minlash qobiliyatini namoyon qiladi. Shunday qilib, retronimlar zamonaviy til tizimlarida semantik aniqlik va kommunikativ samaradorlikni oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

**Kalit so'zlar** Retronimiya, retronim, semantik differensiasiya, birlamchi nominatsiya, ikkilamchi nominatsiya, leksik barqarorlik, kommunikativ aniqlik, til va madaniyat

In the process of language development, changes in social life, technology, and culture lead to the emergence of new concepts. Within this process, previously existing concepts often require clarification in light of new realities. The linguistic phenomenon that arises from this

need is referred to as **retronymy**. This phenomenon serves to eliminate communicative ambiguity by narrowing or specifying the semantic field of an existing term

In the scholarly literature, the concept of retronymy began to take shape as a distinct

term in the second half of the 20th century. Although this phenomenon existed in the history of language earlier, its scientific naming and independent study occurred relatively late (Tunley, 2022). In foreign linguistics, this process is evaluated as an important indicator revealing the dynamic nature of language.

The term **“retronym”** is structurally composed of the components “retro” and “onym,” reflecting the temporal restructuring of naming. Initially used in journalistic discourse, the term quickly entered academic usage and became one of the key concepts in lexicology and theories of nomination (Retronym, Wikipedia, 2022). Particularly in English linguistics, this term has been actively employed to explain lexical processes related to new technologies and cultural changes.

In foreign studies, retronymy is often interpreted in connection with secondary nomination, semantic differentiation, and neologization processes. Researchers highlight this phenomenon as a vivid example of language’s adaptability to external factors, i.e., linguistic adaptation (Hamilton et al., 2016). In this sense, retronyms not only reflect the emergence of new words but also demonstrate the functional reassignment of existing lexical units.

The emergence of retronyms in the linguistic system is not random; it is closely linked to significant changes in social life. Primarily, social and technological development acts as the main factor influencing the formation of such units. The introduction of a new object, event, or concept often renders a previously singular nominative unit applicable to multiple referents. In this context, language is compelled to clarify the existing term to ensure communicative precision.

The formation of retronyms in foreign linguistics is frequently explained by technological innovations. For instance, the development of digital technologies has enriched many previously general terms with

new distinguishing components. This process is interpreted as language’s adaptation to external factors, i.e., the influence of extralinguistic factors on the linguistic system (Xolmonova, 2023). In such cases, retronyms clearly manifest the reciprocal relationship between language and society.

Another significant factor contributing to the emergence of retronyms is cultural and historical change. A concept central in a particular period may become peripheral over time or lose its original prominence in the context of new cultural phenomena. Consequently, additional markers are required to distinguish the old concept from new ones. This activates the renaming mechanism within the linguistic system (Antonova, 2015).

From the perspective of linguistic mechanisms, retronyms are primarily formed by adding a specifying component. In this process, the original lexical unit retains its core meaning while being semantically augmented with an attributive element. This attribute may relate to the technical characteristics, temporal reference, or functional features of the object. The process achieves semantic differentiation and ensures precise meaning.

Contextual factors also play a crucial role in retronymy. Initially, the distinction may be understood only within a specific context, but over time it stabilizes in the linguistic system, becoming a conventional lexical unit. Although this might appear to contradict the principle of linguistic economy, it demonstrates the primacy of communicative needs: language resolves ambiguity even at the cost of creating additional units.

Foreign scholars consider the emergence of retronyms as a natural outcome of secondary nomination processes. This perspective underscores that language is a dynamic system, wherein existing units are functionally reassigned in response to new conditions (Hamilton et al., 2016). Retonyms thus represent a unique form of linguistic innovation and a mechanism for self-regulation within the language.

Retronyms occupy a significant place in the renaming system because they create clarity by adapting existing objects or events to new contexts. In linguistics, retronyms are often associated with primary and secondary nomination. **Primary nomination** refers to the process of naming a new object or concept with its initial label, while **secondary nomination** involves providing an existing object with a new, specifying name to distinguish it from something new or previously emerging.

For example, in English, the term **“vinyl record player”** emerged after the introduction of digital music players to differentiate the previous type. In this way, retronyms perform two functions within the linguistic system: they preserve the existing name while facilitating distinction between new referents (List of retronyms, Wikipedia, 2026).

Retronyms also reinforce structural interconnections within the language by providing additional specificity. They frequently appear as compound words or phrases, which supports the stability of the nominal system. Examples include **“corded telephone”** and **“mechanical watch,”** terms introduced alongside new technologies to distinguish previous units without altering the original name.

Thus, retronyms operate on a dual level within the renaming system: they preserve the prior label while using the new term to differentiate referents, reinforcing both semantic and communicative stability in the language.

The structural-semantic characteristics of retronyms focus on their formation and semantic composition. Linguistic studies often find retronyms emerging as compound or coordinated units. The first component denotes the primary object, while the second serves a specifying or differentiating function. Examples in English include **“LED clock”** or **“hand-crank sewing machine,”** which retain the core concept while being semantically enriched to fit new contexts.

Structurally, retronyms often appear as compounds, though their semantic composition can be complex. They simultaneously maintain the original name and provide a new designation for distinction. Retronyms thus link previous and current states of the named referent at the semantic level, enhancing communicative clarity (Xydopoulos & Lazana, 2014).

Foreign linguists, including Lehrer and Finegan, analyze retronyms as mechanisms for stable semantic change. According to their perspective, retronyms perform a dual function in the lexical structure: preserving the original label while ensuring new identification. They also form morphologically and syntactically stable units, reinforcing semantic cohesion within the nominal system.

Consequently, the structural-semantic features of retronyms highlight their importance in the processes of renaming and differentiation. By combining elements of primary and secondary nomination, they ensure the precision and stability of lexical units.

The historical development and cross-linguistic study of retronyms, though a relatively new direction in linguistics, has been accumulating since the second half of the 20th century. Linguists view retronyms as a process of adapting previous naming systems to new contexts. In English, researchers such as Leonard Bloomfield and P. Fromkin analyzed this process within the scope of semantic change, considering retronyms as lexical units emerging from technological or cultural innovations.

In the foreign literature, retronyms have often been investigated from several perspectives. Lehrer and Finegan explored the morphological and semantic characteristics of English retronyms and their communicative functions. Similarly, in European languages such as German and French, retronyms have been studied as a mechanism of lexical system renaming. German linguists interpret retronyms using the concept



**“Rückbezeichnung,”** examining their connection to social and technological factors.

In Uzbek linguistics, retronyms are a relatively new subject, mainly examined in the context of lexical and semantic change. Researchers such as A. Xolmonova and Sh. Qodirov have studied the formation of retronyms in word combinations, their connection to compound units, and their communicative significance. Examples include **“paper map”** and **“desktop lamp,”** which retain previous names while allowing differentiation when new technologies emerge (Xolmonova, 2023).

Thus, the historical development and cross-linguistic investigation of retronyms demonstrate their role in reflecting semantic changes in the linguistic system. Both foreign and Uzbek sources evaluate retronyms as a mechanism for preserving previous naming while clarifying new contexts.

In contemporary language processes, the functional and communicative significance of retronyms plays an important role in ensuring linguistic stability and clarity. Retronyms help distinguish objects and concepts that have emerged due to new technologies, cultural changes, or social trends from earlier designations. Examples in English include **“magazine subscription”** and **“hybrid car,”** which facilitate identification and comprehension of referents in new contexts.

Linguists such as Fromkin and Rodman assess retronyms as a communicative mechanism that enhances intelligibility and adapts to context. Lehrer and Finegan, analyzing the functional role of retronyms, note that they enrich the nominal system semantically, maintain lexical precision, and simplify decision-making in speech production.

The use of retronyms is also evident in modern journalistic and academic texts.

Scientific articles, for instance, employ terms such as **“AM radio signal”** and **“hand-cranked coffee grinder”** to differentiate previous methods in light of technological innovations (Xolmonova, 2023). Retronyms thus preserve lexical and semantic stability while fulfilling a communicative function: they enable listeners or readers to understand the topic quickly and accurately.

In Uzbek as well, retronyms are actively used in contemporary speech. Units such as **“printed book”** and **“office telephone”** serve important functions in distinguishing previous referents following the emergence of new digital tools. Retronyms enrich the lexical and semantic layers of the language, enhance communicative effectiveness, and facilitate adaptation to social and cultural changes in linguistic processes.

Retronyms are regarded as an important linguistic phenomenon reflecting the dynamic and adaptive nature of language. Their linguistic character manifests in narrowing the semantic field of existing lexical units, adapting them to new contexts, and ensuring communicative clarity. Retronyms not only serve to identify objects and concepts emerging in new technological and cultural contexts but also enable the functional reassignment of existing names as part of the language's self-regulatory mechanism. In this regard, retronyms form morphologically, syntactically, and semantically stable units, reinforcing interconnection and stability within the nominal system. Their role in primary and secondary nomination processes provides a key tool for identifying new contexts and studying lexical innovations. Consequently, retronyms enrich the lexical and communicative layers of language while enhancing intelligibility and communicative efficiency in speech.

## References:

1. Annakulova, Sh. S. (2024). The phenomenon of retronomy in neologisms. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 12, 14–22.
2. Hamilton, W. L., Leskovec, J., & Jurafsky, D. (2016). Diachronic word embeddings reveal statistical laws of semantic change. *arXiv*. <https://arxiv.org/abs/1605.09096>
3. Jo'rayeva, A. J. (2025). Lexicographic features of retronyms in the English language. *Pedagogika va Psixologiya*, 1, 50–58.
4. List of retronyms. (n.d.). *Wikipedia*. [https://en.wikipedia.org/wiki/List\\_of\\_retronyms](https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_retronyms)
5. Retronym. (n.d.). *Wikipedia*. <https://en.wikipedia.org/wiki/Retronym>
6. Tunley, A. (2022). Retronyms and a sense of nostalgia. *Rosetta Translation*. <https://www.rosettatranslation.com/retronyms-and-a-sense-of-nostalgia>
7. Xolmonova, S. (2024). *O'zbek tili retronimlarining lingvostilistik xususiyatlari* [Doctoral dissertation, Tashkent].
8. Xolmonova, S. (2023). Raqamli texnologiyalarning tilga ta'siri: Retronimlar. *Qo'qon Universiteti Xabarnomasi*, 2, 30–37.
9. Xydopoulos, G. J., & Lazana, I. (2014). A view into retronymy as a source of neology. In P. Dury et al. (Eds.), *Proceedings* (pp. 1–220). Lyon: Publications du CRTT.
10. Antonova, A. B. (2015). Yavlenie retronimii v sovremennom russkom yazyke. *Magister Dixit*, 3, 45–52.

---

## **Turli tizimli tillarda onomastik leksikaning xususiyatlari**

**Mamatqulova Baxtijon Ravshanovna**

[shodiyonichkailkhomova@gmail.com](mailto:shodiyonichkailkhomova@gmail.com)

*Tillar kafedrası katta o'qituvchisi, Dotsent,  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va  
mudofaa universitetining Quruqlikdagi  
qo'shinlari instituti*

---

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada turli tizimli tillarda onomastik leksikologiyaning xususiyatlari o'rganilib, turli til tizimlarida atoqli otlarning lingvistik tabiati, tuzilishi va funksiyalariga e'tibor qaratiladi. Onomastik leksikologiya tilshunoslikning bir bo'limi sifatida antroponimlar, toponimlar, etnonimlar va gidronimlar kabi atoqli otlarni tadqiq etib, ularning semantik, morfologik va madaniy xususiyatlarini ochib beradi. Tadqiqotda tillarning tarixiy rivoji, grammatik tuzilishi va ijtimoiy-madaniy omillariga bog'liq holda onomastik birliklarning shakllanishi va qo'llanilishidagi farqlar yoritilgan. Onomastik lug'at boyligining milliy o'zlikni anglash, dunyoqarash va madaniy xotirani aks ettirishdagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Maqolada analitik, sintetik va agglutinatativ til tizimlari qiyoslab o'rganilib, har bir tizim atoqli otlarning leksik tashkil topishi va rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi ochib beriladi. Shuningdek, onomastikaning leksikografiya, sotsiolingvistika va kognitiv tilshunoslik kabi sohalar bilan o'zaro aloqasi yoritiladi. Qiyosiy tahlil asosida onomastik leksikologiyaning umumiy va tilga xos xususiyatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari tilshunoslik nazariyasi, tarjima tadqiqotlari va madaniyatlararo muloqot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada turli tizimli tillarda onomastik leksikaning lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq qilishga qaratilgan. Onomastik leksika lingvomadaniy realiyalar hisoblanib, noekivalent leksika hamdir. Muqobili boshqa tillarda mavjud bo'lmagan so'z yoki terminlar (onomastik leksika) o'sha original tilda qanday yo'l va yo'sinda o'rganilishini, o'rganish natijasida onomastik leksikaning aniqlangan xususiyatlarini qiyosiy-chog'ishtirma ravishda tadqiq qilish mazkur dissertatsiya ishining maqsadlaridan birini tashkil qiladi.

### **Kalit so'zlar**

*Ingliz tilini o'qitish, onomastika, lingvokulturologiya, lingvomadaniy, kognitiv struktura, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, metaforalar*

---

## **Особенности ономастической лексики в различных системных языках**

**Маматкулова Бахтижон Равшановна**

[shodiyonichkailkhomova@gmail.com](mailto:shodiyonichkailkhomova@gmail.com)

*Доцент, старший преподаватель  
кафедры языков,  
Институт Сухопутных войск Военного  
университета безопасности и обороны  
Республики Узбекистан*

---

### **Аннотация**

В данной статье рассматриваются особенности ономастической лексикологии в различных системных языках с акцентом на лингвистическую природу, структуру и функции собственных имён в разных языковых системах. Ономастическая лексикология как раздел лингвистики изучает собственные имена, такие как антропонимы, топонимы,

этнонимы и гидронимы, раскрывая их семантические, морфологические и культурные характеристики. В исследовании подчёркивается, что различия в формировании и употреблении ономастических единиц обусловлены историческим развитием языков, их грамматическим строением и социокультурными факторами. Особое внимание уделяется роли ономастической лексики в отражении национальной идентичности, мировоззрения и культурной памяти. В статье проводится сопоставительный анализ аналитических, синтетических и агглютинативных языковых систем, показывающий влияние каждого типа на лексическую организацию и эволюцию собственных имён. Кроме того, подчёркивается взаимосвязь ономастики с другими лингвистическими дисциплинами, включая лексикографию, социолингвистику и когнитивную лингвистику. На основе сравнительного анализа выявляются универсальные и языково-специфические особенности ономастической лексикологии. Полученные результаты имеют важное значение для теории языкознания, переводоведения и межкультурной коммуникации. В данной статье исследуются лингвокультурологические особенности ономастической лексики в различных системных языках. Ономастическая лексика рассматривается как часть лингвокультурных реалий и относится к безэквивалентной лексике. Слова или термины (ономастическая лексика), не имеющие эквивалентов в других языках, составляют одну из целей данного диссертационного исследования – изучить, каким образом и какими методами они осваиваются в оригинальном языке, а также провести сравнительно-сопоставительный анализ выявленных особенностей ономастической лексики.

**Ключевые  
слова**

Преподавание английского языка, ономастика, лингвокультурология, лингвокультурный, когнитивная структура, языкознание, культурология, метафоры

---

**Features of onomastic lexicology  
in various systemic languages**

**Mamatkulova Bakhtijon Ravshanovna**  
[shodiyonichkailkhomova@gmail.com](mailto:shodiyonichkailkhomova@gmail.com)

Associate professor, Senior teacher of the  
Department of languages,  
Ground Forces Institute of the Military Security  
and Defense University of the Republic of  
Uzbekistan

---

**Annotation**

*This article examines the features of onomastic lexicology in various systemic languages, focusing on the linguistic nature, structure, and functions of proper names within different language systems. Onomastic lexicology, as a branch of linguistics, studies proper names such as anthroponyms, toponyms, ethnonyms, and hydronyms, revealing their semantic, morphological, and cultural characteristics. The research highlights how systemic languages differ in their formation and usage of onomastic units due to historical development, grammatical structure, and sociocultural factors. Special attention is given to the role of onomastic vocabulary*

*in reflecting national identity, worldview, and cultural memory. The article compares analytical, synthetic, and agglutinative language systems to demonstrate how each system influences the lexical organization and evolution of proper names. Furthermore, the study emphasizes the interaction between onomastics and other linguistic disciplines, including lexicography, sociolinguistics, and cognitive linguistics. Through comparative analysis, the paper identifies universal and language-specific features of onomastic lexicology, contributing to a deeper understanding of naming processes across languages. The findings are significant for linguistic theory, translation studies, and intercultural communication, as they provide insights into how proper names function within and across different language systems. In this article, attention is focused on studying the linguoculturological features of onomastic lexicology in various systemic languages. Onomastic vocabulary is considered a part of linguocultural realities and also belongs to nonequivalent lexicon. Words or terms (onomastic vocabulary) that do not have equivalents in other languages constitute one of the goals of this dissertation research – to examine how they are studied in the original language, in what ways and methods they are taught, and to comparatively analyze the identified features of onomastic vocabulary as a result of the study.*

## **Keywords**

*Teaching English, onomastics, linguoculturology, linguistic culture, cognitive structure, linguistics, cultural studies, metaphors*

## **Kirish**

Ma'lumki, o'zbek tili Urol-Oltay tillar oilasidagi Turkiy tillar guruhiga mansub. Mazkur tillardagi so'zlarning yasashiga ko'ra agglutinativ (so'z yasashida suffikslar ko'p ishtirok etadigan) tizimga ega. Lekin rus tili Hind-Yevropa tillari oilasidagi Slavyan tillari guruhida joy olgan bo'lsa, ingliz tili esa mazkur Hind-Yevropa tillari oilasidagi German tillari guruhiga tegishli va bu tillar fleksiya (so'z yasashida va lisoniy konstruksiyalarda affikslar (prefikslar) va predloglar ko'p qo'llanadigan) tillar deb nomlanadi (Aliferenko, 2010). Ushbu turli tizimga oid tillardagi onomastik leksikaning o'rganilishini lingvokulturologik aspektda, qiyosiy-chog'ishtirma ravishda tadqiq qilish kutilmagan natijalarga olib kelishi va muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

## **Tadqiqot metodologiyasi**

Inson o'z intellektual salohiyatining rivojlanishi tarixida sanamoqni o'rgangandan keyin qiyoslamoqni ham yaxshi o'zlashtira oldi

(Bartminskiy, 2005). Qiyoslash madaniyat bilan, madaniyat esa qiyoslamoq bilan hamohang, shuning uchun qiyoslash (chog'ishtirish asosida tadqiq qilish) keng ma'noda umumlashtirish va farqlamoq demakdir. Taniqli olim va yozuvchi O. Mandelshtam o'zining "Dante bilan suhbatda" nomli asarida: "Men qiyoslayapman, demak men tirikman" (Fuko, 1996) degan edi. M. Fukoning ta'riflashicha, qiyoslash – "aniqlashni taqozo qiladigan, tafakkurni boyitadigan, bilish va anglashni charxlaydigan eng universal, eng oddiy, shu bilan birga eng murakkab elementdir" (Golubovska, 2016). Tillarni qiyosiy o'rganish natijasida turli lisoniy va nolisoniy qonuniyatlar yuzaga chiqadi. I. Kantning "Mantiqiy refleksiyalar" to'g'risidagi ta'limotiga asosan barcha tushunchalarning mohiyati qiyosiy yo'l bilan aniqlanishi mumkin. Biror bir belgining xususiyati bizning mantiqiy apparatimizda induktiv va deduktiv yo'l bilan hamda analogiya yordamida taqqoslanadi va farqlanadi (Gumboldt, 1984).



Kognitiv strukturalar kommunikasiyani, unga bog'lik kompetensiyalarni rivojlantiradi va bu jarayonda onomastik leksika muhim o'rin egallaydi, ular millatning lingvokulturologik va madaniy-tarixiy tajribasini maksimal darajada mujassam qila oladi.

**Onomastika – tilshunoslikning bir bo'limi** (qadimgi yunon tilida – ὀνομαστική – nomlash san'ati) hisoblanib, ma'lum bir tilda ularning paydo bo'lishi, ularning uzoq muddat davomida yoki boshqa tillar ta'sirida o'zgarishini va umuman atoqli otlarni tadqiq qilishni o'ziga maqsad qilgan (Kant, 2003). Tor ma'noda *onomastika* – turli turdagi atoqli otlar, ya'ni *onomastik so'zlar* yig'indisi – onomastik (onimik) leksika demakdir.

Shunday qilib, onomastikaning tadqiqot predmeti – onim (atoqli otlar, turli xil nomlanishlar) bo'lib, u tanlab olingan obyektni boshqa obyektlar orasida ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Onomastika so'zining sinonimlari quyidagilardir:

- *Onomatika* – otlarning ma'nosi va paydo bo'lishi haqidagi ta'limot (Karpenko, 2009). Mazkur termin eskirgan deb tan olingan va iste'moldan chiqarilgan.
- *Onomatologiya* – tilshunoslikning bir bo'limi hisoblanib, atoqli otlarni tadqiq qiladi (Kononenko, 2008). Onomatolog (onomast) – onomastika sohasidagi tadqiqotchi.
- *Onomasiologiya (onomatologiya)* (ingl. *onomasiology*) – tilshunoslikning bo'limi hisoblanadi va ma'lum bio hodisa va narsalarning nomlanishini tadqiq qiladi (Kononenko, 2008).
- *Toponomastika* – ilmiy manbalarda onomastikaning ro'yxatga olingan, lekin eskirib qolgan ta'rifi (Kosevich, 1977).

Onomastikaga doir ilmiy asarlarda sinxronik yondashuv doim ustunlik qilgan. Lekin "diaxronik ravishdagi tadqiqotlarda atoqli otning mazmuni ularning ichki shakli bilan chambarchas bog'liq" (Luchik). Onomastik leksikaning lingvokulturologik va pragmatik imkoniyatlarini tahlil qilish eng avvalo uni

sinxron ravishda o'rganishni taqozo qiladi. Onimlarni tizimli ravishda o'rganish uchun diaxronik ma'lumotlarni jalb qilish lozim bo'ladi, chunki tadqiq qilinayotgan obyektning kelib chiqishi kabi tarixiy ma'lumotlarsiz onomastik leksikani tizimli ravishda tadqiq qilishning iloji yo'q.

Tilshunoslik-madaniyashunoslik usullari ma'lum darajada N. Alefirenko (2010), Ye. Bartminskiy (2005), A. Vejbitskaya (1996), V. Vorobyov (2008), M. Golubovska (2016), V. Kononenko (2008), V. Kosevich (1977) va boshqalarning asarlarida o'z o'rniga ega. V. Kononenkoning so'zlariga ko'ra, tilshunoslik-madaniyashunoslik usullari an'anaviy (kuzatish, eksperiment, modellastirish, qayta qurish, so'rovnomalar) va zamonaviy usullarga bo'linadi, ular ramkalar, geshtaltlar, tushunchalar, metaforalar, presuppozitsiyalar, afsonalar, rivoyatlarning so'nggi tadqiqotlari bilan bog'liq. "sezgi → matn" modellari va boshqalar, shuningdek, madaniy va sosiologik uslublar: tahlil, dala etnografiyasi vositalari, ijtimoiy-lingvistik intervyu (Vejbitskaya, 1996; 27).

N. Alefirenko tilshunoslik va madaniyatshunoslikning quyidagi usullarini ajratib ko'rsatgan: diaxronik (vaqt bo'yicha turli til-madaniy birliklarni qiyoslash); sinxron (sinxron lingvistik-madaniy birliklarni qiyoslash); strukturaviy-funksional (madaniyat obyektni qismlarga bo'lish va ular orasidagi aloqalarni aniqlash); tarixiy-genetik (lingvistik-madaniy faktni kelib chiqishi, rivojlanishi va keyingi faoliyati nuqtai nazaridan tahlil qilish); tipologik (tarixiy-madaniy jarayonda turli lingvistik-madaniy birliklarning tipologik yaqinligini aniqlash); qiyosiy tarixiy (vaqt bo'yicha noyob lingvistik-madaniy birliklarni taqqoslash va ularning mohiyatiga kirib borish) (Alefirenko, 2010).

Bugungi kunda onomastika sohasida faoliyat yuritgan va yuritayotgan taniqli tilshunos olimlar, xususan, Y. Karpenko (2009), V. Nikonov (1994), V. Luchik, Ye. Otin (2005), N. Podolskaya (1988), A. Superanskaya (1973) va boshqalar asarlaridagi tadqiqot usullari tahlil qilinishga loyiq.



### Onomastikaning vazifalari

Onomastik tadqiqotlar turli xalqlarning bir jydan boshqasiga ko'chishi, lisoniy va madaniy aloqalari, tillarining qadimgi holati va ulardagi shevalarning o'zaro munosabatlarini aniqlashga yordam beradi. Atoqli otlarni tadqiq qilish orqali ularning o'ziga xos qonuniyatlari, bizgacha yetib kelishi va saqlanib qolganligi aniqlanadi. Atoqli otlar o'zlarining etimologik ma'nosini yo'qotgan holda ham muhimligini, vazifasini yo'qotmaydi (masalan, turkcha Boyko'l (ruscha: Baykal), Enasoy (ruscha: Yenisey), Oltioy (ruscha: Altay) v.h.).

Atoqli otlarning saqlanib qolishiga tildagi aralshmalar, tillarning chatishuvi, boshqa til tizimining kirib kelishi kabi jarayonlar ta'sir ko'rsata olmaydi. Etimologik izlanishlar natijasida atoqli otlarning qaysi tildan kelib chiqqanligi, o'sha tilning xususiyatlari ham ma'lum bo'ladi. **Tarixiy onomastika.** Shunday qilib, onomastik tadqiqotlar tarix fani va til tarixi uchun bebaho ma'lumotlar beradi, ya'ni aholining yashagan joylaridan ko'chishi (migrasiya), yo'qolib ketgan xalqlar, ular haqidagi afsonalar esa o'sha aholining hayot tarzi, ijtimoiy va oilaviy munosabatlari haqida ma'lumot beradi. Sharqiy-Yevropa past tekisliklarini o'rganish natijasidagi tadqiqotlar Urol-oltoy xalqlarining qadimgi Turon va Mavrounnahr va hozirgi Markaziy Osiyoda yashaydigan turkiy qabilalar o'rtasidagi munosabatlar haqida aniqliklar kiritdi. Urol (turkiycha: ota, og'a) tog' tizimi, Enasoy (ruscha: Yenisey) daryosi, Boy ko'l (ruscha: Baykal) kabi toponimik leksikaning ilmiy tadqiqi tegishli davrlarga doir ma'lumotlar beradi. Toponimika (ayniqsa gidronimika) yo'qolib ketgan tillar va xalqlar haqida yagona ma'lumotlar manbasi hisoblanadi.

Onomastik tadqiqot yo'nalishlarini o'rganish, onimlarni tavsiflash va ta'riflash asosida biz ularning quydagicha yangi semantik tasnifi (klassifikatsiyasi)ni ishlab chiqdik, ya'ni:

- **Antroponomika**, ya'ni insonlarning atoqli otlarini tadqiq qiladi (*Ahmad*

*Yassaviy, Imom Buxoriy, Amir Timur, Alisher Navoiy, Pyotr Nikolayevich Amexin, Ivan Kalita, Igor Kio, Ryurik, Uilyam Shekspir, Artur Konan Doyl, Adam Smit, Charlz Darvin).*

- **Astronomika** – kosmik obyektlar va fazoviy jismlarning nomlanishini tadqiq qiladi (*Quyosh, Oy, Yupiter, Galleya kometasi, Zahro yulduzi, Vesta nomli kichik kometa (asteroid), Serera nomli kichik kometa, Toliman yoki Sirius nomli yulduzlar).*
- **Zoonomika** – hayvon nomlari va laqablarni (*Oytavoq, Bo'tqa, Maymoq, Shalponquloq, Sharik, Murka, Kvadrat, Zvyozdochka, Donguz*) tadqiq qiladi.
- **Karonomika** – avvaliga yunon tilida "karabonimika" ("korabos" – kema va *onoma* – ism) deb ta'riflangan va keyinchalik yana ham ilmiy ta'rif sifatida kemalar, suv inshootlari, qayiqlar (*"Tuyamo'yin", "Orol", «Avrora», «Varyag», «Borodino», «Kazak», «Platov», «Pamyat Merkuriya», "Titanik", "Marshal" v.h..)* kabi nomlarning tarixi, kelib chiqishi kabi nomlarini tadqiq qiluvchi fan yo'nalishi deb qabul qiingan. Karabonimika terminini G.V. Aleksushin *nautonimika* va *karonimika* atamasiga nisbat sifatida taklif qilgan.
- **Kosmonimika** fazoviy makondagi o'lchamlar haqidagi ta'limot (Somon yo'li, *Pleyadalar, Galaktika, Andromedalar*) sifatida qabul qilingan. Ko'pgina hollarda *kosmonim* atamasi *astronim* terminiga sinonim sifatida qo'llanadi.
- **Xrematonimika** yoki **ktematonimika** moddiy madaniyatga doir narsalarning nomlarini (*«Orlov» yoquti, Dyurandal qilichi, Gamayun zambaragi*) o'rganuvchi yo'nalish.
- **Pragmatonimika** tovar va inson qo'li bilan yaratilgan amaliy buyum va narsalarni tadqiqi qiladi. Masalan, *parfyumonimlar*, ya'ni hid taratuvchi (*Chanel, J'adore, Lauren*) atir-upa sanoati

mahsulotlarining, nomlari, chokonimlar – shokolad mahsulotlari (“Qora-Qum”, “Shirin”, “Qaldirg’och”) nomlari.

- **Teonimika** xudo, payg’ambar va avliyolarning (Olloh, Tangir, Egam, Muhammad payg’ambar, Avliyo ota, Ahmad Yassaviy, Imom Buhoriy, Zangi ota, Stribog, Zevs) ismlarini tadqiq qiluvchi yo’nalish.
- **Toponimika** jug’rofiy obyektlarga doir atoqli otlarni tadqiq qiladi, masalan: *Qora dengiz, Samarqand Buxoro, O’zbekiston shoh ko’chasi, Orol dengizi, Loy jangi, Sopoli tepa, Qora tepa* v.h. bu so’zlar toponimlar deb ataladi.
- **Ergonimika** insonlarning amaliy faoliyati bilan bog’liq bo’lgan birlashmalar nomlarini tadqiq qiladi, masalan: *emporonimlar* – do’konlar nomlari, *firmonimlar* – firmalarning nomlanishi. Bu soha yo’nalishi yana sartaroshxonalar, barlar, kafelar, hayr-ehson qiluvchi tashkilotlar v.sh.k. nomlarini o’rganadi.
- **Etnonimika** xalqlar va qabilalarning nomlanishini tadqiq qiladi.

- **Sosionimika** ijtimoiy sohadagi nomlanishlarni tadqiq qiladi.

#### **Xulosa**

Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, antroponimlar o’ziga xos semantik va uslubiy xususiyatlarga ega bo’lib, grammatik jihatdan ko’plik bo’lmagan til tizimida bu lisoniy birliklar alohida tizim va kichik tizimlardan iborat.

Onomastik leksikaning apellasiya leksikasiga munosabati umuman o’rganilmagan, degan fikrdan yiroqmiz. Birgina o’zbek tilshunosligida ajralgan onomonimlarning (onomastik leksika) yakka amaliy leksikaga munosabatiga bag’ishlangan yuzdan ortiq ilmiy ishlar chop etilgan, ammo bu ishlarning barchasi onomastik leksikaning alohida olingan apellyativ leksika bilan tarixiy-etimologik munosabatlariga bag’ishlangan. Lekin bunday hollarda onomasiologik-etimologik ma’no va tarixiy-etimologik ma’no tushunchalari ko’pincha chalkashib ketadi. Ma’lumki, bir qator asarlarda onomastikaning semantik-funksional tasnifi, onomastik leksika ichidagi tizimli munosabatlar atroficha ko’rib chiqiladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Aliferenko, N. F. (2010). *Lingvokulturologiya: Gennostno-smyslovoye prostranstvo yazyka*. Moskva: Nauka.
2. Bartminskiy, Ye. (2005). *Yazykovoy obraz mira: Etnolingvistika bo'yicha ocherklar* (S. M. Tolstaya, tahr.). Moskva: Indrik.
3. Fuko, M. (1996). *Bilim arxeologiyasi*. Kiyev.
4. Golubovska, M. A. (2016). *Suchasna ukrainska linhvokontseptolohiia: Holati va rivojlanish istiqbollari*. *Aktual muammolar filologiya va tarjimashunoslik*, 1, 151–159.
5. Gumboldt, V. fon. (1984). *Tilshunoslik bo'yicha tanlangan asarlar*. Moskva: Progress.
6. Kant, I. (2003). *Tanlangan asarlar*. Moskva.
7. Karpenko, Yu. (2009). *Onomastikaning fan sifatidagi metodologiyasi va metodikasi*. *Ukrain tilshunosligi yozuvlari*, 292–289.
8. Kononenko, V. I. (2008). *Ukrain lingvokulturologiyasi*. Kiyev: Vyshcha shkola.
9. Kosevich, V. B. (1977). *Umumiy tilshunoslik elementlari*. Moskva: Nauka.
10. Luchik, V. V. (n.d.). *Oykonim nominatsiyasida nolisoniy omillar*. *Onomastika va etimologiya tadqiqotlari*, 193–201.
11. Mandelshtam, O. E. (1987). *So'z va madaniyat*. Moskva.
12. Nikonov, V. A. (1994). *Rus onomastikasi va Rossiya onomastikasi* (O. N. Trubachev, tahr.). Moskva: Shkola-Press.

13. Otin, Ye. S. (2005). Konnotativ atoqli otlar lug'ati. Ural davlat universiteti.  
<http://hdl.handle.net/10995/1>
14. Podolskaya, N. V. (1988). Rus onomastik terminologiyasi lug'ati (A. V. Superanskaya, tahr.; 2-nashr). Moskva: Nauka.
15. Rostovalova, V. I. (1999). Lingvokulturologiya konsepsiyalari. Qozon: Lingvo.
16. Sapir, E. (1993). Tilshunoslik va kulturologiya bo'yicha tanlangan asarlar. Moskva.
17. Superanskaya, A. V. (1973). Atoqli otlarning umumiy nazariyasi. Moskva: Nauka.
18. Vejbitskaya, A. (1996). Til va madaniyat: Bilish. Moskva: Russkie slovari.
19. Vorobyev, V. V. (2008). Lingvokulturologiya. Moskva: RUDN nashriyoti.
20. Xorijiy so'zlar lug'ati. (n.d.). Elektron manba. Murojaat sanasi: 27-avgust, 2022-yil.

## Hamd matnlarida iqtibos san'atining o'rni (Ogahiy asarlari misolida)

**Tursunaliyeva Muslimabonu Abduvosit qizi<sup>1</sup>**

[m.tursunaliyeva@gmail.com](mailto:m.tursunaliyeva@gmail.com)

Tayanch doktorant,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Ilmiy rahbar: **Shorustam Shomusarov  
Giyasovich**

Filologiya fanlar doktori, professor

**Annotatsiya** Mazkur annotatsiyada Ogahiy she'riyatida muhim badiiy vositalardan biri bo'lgan iqtibos san'ati va uning hamdiy mazmun bilan uyg'unligi tahlil qilinadi. Ogahiy o'z she'rlarida Qur'oni karim oyatlari, hadislar hamda ilohiy mazmundagi iboralarni iqtibos sifatida mohirona qo'llab, asarning g'oyaviy va ma'naviy ta'sirini kuchaytirgan. Ayniqsa, hamdiy mazmundagi she'rlarda iqtibos san'ati shoirning Allohga bo'lgan muhabbati, shukronasi va e'tiqodini yanada teran ifodalashga xizmat qiladi. Iqtiboslar she'r matniga tabiiy singib ketib, badiiy yaxlitlikni buzmaydi, aksincha, mazmunni boyitadi. Ogahiy ushbu san'at orqali diniy-falsafiy qarashlarini ifodalab, mumtoz adabiyot an'alarini davom ettiradi. Annotatsiyada iqtibos san'atining estetik vazifasi, uning hamdiy ruh bilan uyg'unligi va Ogahiy ijodidagi o'rni yoritiladi.

**Kalit so'zlar** Ogahiy she'riyati, iqtibos san'ati, hamdiy mazmun, mumtoz adabiyot, diniy iqtibos, Qur'on va hadis, badiiy vositalar, ma'naviy-estetik uyg'unlik

## Роль художественного приёма цитирования в хамд-текстах (на примере произведений Огахи)

**Турсуналиева Муслимабону**

**Абдувосит кизи**

[m.tursunaliyeva@gmail.com](mailto:m.tursunaliyeva@gmail.com)

Базовый докторант,

Ташкентский государственный  
университет востоковедения

Научный руководитель: **Шорустам  
Шомусаров Гиясович**

Доктор филологических наук, профессор

**Аннотация** В данной аннотации рассматривается искусство цитирования в поэзии Огахи и его гармония с хамдийным содержанием. Поэт широко использует цитаты из Корана, хадисов и религиозных выражений, придавая своим произведениям глубокий духовный и идейный смысл. Особенно в стихах хамдийного характера цитирование служит средством выражения благодарности, веры и любви к Всевышнему. Цитаты органично вплетаются в поэтическую ткань, не нарушая художественной целостности, а напротив, усиливая выразительность и смысловую насыщенность произведений. Использование данного художественного

<sup>1</sup> Tursunaliyeva M.A. — ORCID: 0009-0000-0345-4639

*приёма свидетельствует о высоком уровне религиозно-философского мышления Огахи и его верности традициям классической литературы. В аннотации раскрывается эстетическая функция искусства цитирования и его значение в поэтическом наследии поэта.*

**Ключевые слова**

*Поэзия Огахи, искусство цитирования, хамдийное содержание, классическая литература, религиозные цитаты, Коран и хадисы, художественные средства, духовно-эстетическая гармония*

---

**The role of the artistic device of quotation in hamd texts (On the example of Ogahi's works)****Tursunaliyeva Muslimabonu Abduvosit qizi**[m.tursunaliyeva@gmail.com](mailto:m.tursunaliyeva@gmail.com)

Base Doctorate,

Tashkent State University of Oriental Studies

Scientific Supervisor: **Shorustam Shomusarov**

Giyasovich

Doctor of Philological Sciences, Professor

---

**Annotation**

*This annotation examines the art of quotation in the poetry of Ogahi and its harmony with the hamd (praise of God) content. Ogahi skillfully employs quotations from the Qur'an, Hadiths, and religious expressions to enhance the spiritual and ideological depth of his poetry. In particular, in poems with hamdiy themes, quotations serve as a powerful means of expressing devotion, gratitude, and faith in God. These quotations are seamlessly integrated into the poetic text, preserving artistic unity while enriching meaning. Ogahi's use of quotation art reflects his deep religious worldview and adherence to classical literary traditions. Through this technique, the poet conveys philosophical and theological ideas in an aesthetically refined manner. The annotation highlights the artistic function of quotations, their role in strengthening the hamdiy spirit, and their significance in Ogahi's poetic legacy.*

**Keywords**

*Ogahi's poetry, art of quotation, hamd content, classical literature, religious quotations, Qur'an and Hadith, literary devices, spiritual and aesthetic harmony*

---

**Kirish**

Ogahiy mumtoz she'riyat an'anasini chuqur o'zlashtirgan, Qur'oniy tafakkurni poetik til bilan uyg'unlashtirgan yirik mutafakkir shoirlardan biridir. Uning she'riyati – diniy-falsafiy ma'rifat va badiiy ilhom sintezining namunasi. Ayniqsa, shoir ijodida iqtibos san'ati keng qo'llanib, oyat va hadislar orqali hamd, na't, va'z, hamda tasavvufiy tafakkur ifoda etilgan.

Iqtibos (arabcha *iqtibās* – "olish", "ko'chirish") – Qur'oni karim oyatlari yoki Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarini nazm yoki nasr matniga badiiy maqsadda joylashtirish san'atidir (Hojiahmedov, 2008). Mumtoz sharq adabiyotida iqtibos san'ati asarning g'oyaviy-ma'naviy ta'sirini kuchaytiruvchi, unga ilohiy ruh va muqaddaslik baxsh etuvchi muhim badiiy vosita sifatida qaraladi (Yo'ldoshev, 1993).

**Asosiy qism.** Iqtibos san'ati ikki asosiy turga bo'linadi:

1. Darj (lafziy iqtibos). Darj – Qur'on oyati yoki hadisni so'zma-so'z, hech qanday o'zgartirishsiz matnga kiritishdir. Bunday iqtibos, ayniqsa, hamd va na't mazmunidagi asarlarda keng qo'llanadi. Masalan, she'riy matnda "Alhamdu lillahi rabbil 'alamin" iborasining aynan asl shaklda keltirilishi darj iqtibosga misol bo'la oladi (Qur'on, Fotiha surasi, 2-oyat, Yo'ldoshev, 1993). Bu usul matnning ilohiy manbaga tayanishini ochiq va bevosita ko'rsatadi.
2. Ma'naviy iqtibos. Ma'naviy iqtibosda oyat yoki hadisning mazmuni saqlanib, so'zlari shoir yoki muallif uslubiga mos holda qayta ifodalanadi. Masalan, Qur'ondagi "Agar shukr qilsangiz, sizlarga ne'matimni ziyoda qilurman" mazmuni (Qur'on, Ibrohim surasi, 7-oyat) she'riy shaklda: Shukr aylagan banda topar ortuq ne'mat, – tarzida berilishi ma'naviy iqtibos hisoblanadi (Qur'oni karim, 2009).

Iqtibos san'atining asosiy maqsadi badiiy nutqni ilohiy mazmun bilan boyitish, matnga ruhiy chuqurlik, muqaddaslik va balog'at ohangi berishdan iborat bo'lib, u shoirning diniy ilmi va e'tiqodiy qarashlarini namoyon etadi.

Ogahiy ijodida darj (lafziy iqtibos). Ogahiy Qur'oni karim oyatlarini she'riy matnga kiritishda darj, ya'ni lafziy iqtibos san'atidan mahorat bilan foydalangan shoirlardan biridir. Bunga quyidagi bayt yaqqol misol bo'la oladi:

Haq taolo o'z kalomida dedi: "Ufu bi 'ahd",

Borchag'a lozimdur etmak ahdga vafo.

Mazkur baytda shoir Qur'on oyatini to'liq va so'zma-so'z shaklda keltiradi. "Ufu bi 'ahdi" (أَوْفُوا بِالْعَهْدِ) iborasi Qur'oni karimning *Isro* surasi, 34-oyatidan olingan bo'lib, oyat mazmunan insonlarni ahdga vafo qilishga, mas'uliyat va sadoqatga da'vat etadi (Qur'oni karim, 2009). Oyatning umumiy ma'nosi: "Ahdingizga vafo qilinglar."

Ushbu baytda iqtibos san'ati ikki bosqichda namoyon bo'ladi: Birinchidan, baytning birinchi misrasi darj (lafziy iqtibos) namunasi hisoblanadi. Chunki Qur'on oyatidan olingan ibora o'zgarishsiz, asl shaklida she'r tarkibiga kiritilgan. Ogahiy bu yerda oyatni na ramziy, na ishoraviy tarzda, balki ochiq va to'liq zikr etadi. Bu hol balog'at ilmida darj san'atining eng mukammal ko'rinishi sifatida baholanadi (Sakkokiy).

Ikkinchidan, baytning ikkinchi misrasi ma'naviy iqtibos vazifasini bajaradi. Shoir oyat mazmunini she'riy til orqali davom ettirib, uning axloqiy xulosasini umumlashtiradi: ahdga vafo qilish barcha insonlar uchun zarur bo'lgan fazilat sifatida taqdim etiladi. Bu orqali ilohiy hukm ijtimoiy va axloqiy me'yor darajasiga ko'tariladi.

Shunday qilib, baytda lafziy va ma'naviy iqtibos birlashib, murakkab va puxta poetik tuzilma hosil qiladi.

Ogahiyning bu baytidagi asosiy mahorat shundaki, shoir oyatni oddiygina keltirish bilan cheklanmaydi. U Qur'on kalomini she'riy nutqqa tabiiy singdiradi, ilohiy buyruqni axloqiy qoida sifatida talqin qiladi, diniy hukmni estetik shakl orqali ommaga tushunarli qiladi.

Bu hol Ogahiyning balog'at ilmida, xususan iqtibos, darj va sharh san'atlarini mukammal egallaganini ko'rsatadi.

Mazkur bayt mazmunan hamd poetikasi bilan ham uzviy bog'liq. Chunki Alloh kalomining ochiq zikr etilishi – ehtirom va ta'zim belgisi, oyat mazmunining davom ettirilishi – itoat va tasdiq ifodasi, ahdga vafo g'oyasining targ'ib qilinishi – shukronalik va bandalik mas'uliyatini anglatadi.

Shu bois bu baytni faqat axloqiy nasihat sifatida emas, balki hamdning bir ko'rinishi, ya'ni Allohning amrini ulug'lash va uni hayotiy qoida sifatida e'tirof etish shakli sifatida baholash mumkin.

Mazkur baytda Qur'on oyati darj (lafziy iqtibos) orqali so'zma-so'z keltirilgan, oyat mazmuni ma'naviy iqtibos orqali she'riy tarzda sharhlangan, ikki turdagi iqtibosning bir baytda



uyg'unlashuvi Ogahiyning balog'atdagi yuksak mahoratini ko'rsatgan, oyatning estetik va axloqiy talqini hamdiy ruh bilan boyitilgan.

Ogahiyning quyidagi bayti shoir dunyoqarashining muhim metafizik asoslaridan biri bo'lgan fano va baqo falsafasini yaqqol ifodalaydi:

Jahon ahli jahon ichra baqo ne yanglig' istarkim,

Ular sha'nida "Kullu man 'alayhā fān" emish, bildim.

Mazkur baytda shoir Qur'oni karimdan bevosita iqtibos keltiradi. "Kullu man 'alayhā fān" (كُلُّ مَنْ عَلَيْهَا فَانٍ) – *Ar-Rahmon* surasining 26-oyati bo'lib, uning ma'nosi: "Yer yuzida mavjud bo'lganlarning barchasi foniidir (yo'q bo'lguvchidir)" (Qur'oni karim, 2009).

Bu oyat Ogahiy she'riyatida oddiy diniy dalil sifatida emas, balki falsafiy-hamdiy mazmunni shakllantiruvchi markaziy g'oya sifatida namoyon bo'ladi.

Fano va baqo tushunchalarining tasavvufiy talqini

Ogahiy mazkur oyat orqali bir necha ma'no qatlamini uyg'unlashtiradi:

Birinchidan, dunyo foniyligi g'oyasi ilgari suriladi. Shoir "jahon ahli" iborasi orqali butun insoniyatni nazarda tutib, ularning foni borliq ichida baqo, ya'ni doimiylik izlashini mantiqan inkor etadi. Chunki ilohiy kalomga ko'ra, dunyo va undagi barcha mavjudot yo'q bo'lish hukmiga mahkumdur.

Ikkinchidan, bu yerda inson umrining o'tkinchiligi tasvirlanadi. "Fon" tushunchasi Ogahiy poetikasida nafaqat jismoniy yo'q bo'lishni, balki nafsga bog'liq istaklar, dunyoviy g'urur va soxta barqarorlikning barbod bo'lishini ham anglatadi. Bu jihat tasavvufdagi *fano an-nafs* – nafsdan kechish bosqichi bilan chambarchas bog'liq (Ibn Arabi).

Uchinchidan, shoir Haqning boqiyligini hamdiy ruhda ulug'laydi. Oyatning mantiqiy davomi bo'lgan "*Va yabqo vajhu rabbika zul-jaloli val-ikrom*" ("Parvardigoringning ulug'lik va karam sohibi bo'lgan Zoti boqiy qolur") ma'nan nazarda tutiladi. Shu tariqa foniylilik g'oyasi Allohning mutlaq

boqiyligini yanada yorqinroq ko'rsatishga xizmat qiladi.

Ogahiy devonidagi hamd qismida ham fano va baqo qarama-qarshiligi asosiy poetik tayanch sifatida takroran uchraydi. Jumladan, mazmunan quyidagi ruhdagi baytlar bunga misol bo'la oladi:

Baqo mulki seningdur, fano mulki xarob o'lg'ay,

Sening amring ila bor bo'lmish, yana sendin yitibdur.

Bu kabi baytlarda baqo – Allohning mutlaq sifati, fano – mavjudotning holati, borliqning vujudga kelishi va yo'q bo'lishi ilohiy iroda bilan bog'lanadi.

Shuningdek, Ogahiy hamdlarida fano tushunchasi ko'pincha ma'rifatga eltuvchi bosqich sifatida talqin qilinadi:

Fano sahrosida gumroh edim, to seni bildim,

Baqo yo'li ayon bo'ldi, nihon asror ochildi.

Bu yerda fano yo'qolish emas, balki idrok va kashf holati sifatida baholanadi.

Ogahiyning mazkur bayti va umuman hamd qismidagi qarashlar vahdati vujud ta'limotiga to'la mos keladi. Chunki ushbu ta'limotga ko'ra, haqiqiy mavjudlik – faqat Alloh, boshqa barcha mavjudot – Uning tajalliylari, tajalliylar – foni, Haqning Zoti esa – boqiydir (Qazvinii, 1996).

Shu bois shoir uchun foniylilik – insonni ilohiy haqiqatga eltuvchi yo'l, baqolik – Haqda barqaror bo'lish, ya'ni baqo billoh maqomidir.

Ogahiy she'riyatida "Kullu man 'alayhā fān" oyatining qo'llanishi Qur'oni manbaga tayangan ma'naviy iqtibos, tasavvufiy-falsafiy mazmunda fano va baqo konsepsiyasini yorituvchi asos, hamdiy ruhda Allohning boqiyligini madh etuvchi poetik vosita, shoir dunyoqarashining ilohiy-estetik negizini ochib beruvchi muhim unsur hisoblanadi.

Shu sababli mazkur baytni Ogahiy ijodida hamd poetikasining markaziy falsafiy nuqtalaridan biri sifatida baholash mumkin.

Ogahiy ijodida iqtibos san'ati oddiy Qur'on tilovatining she'riy shakli emas, balki hamdning badiiy va falsafiy tili sifatida

namoyon bo'ladi. Shoir Qur'on oyatlarini faqat dalil yoki bezak sifatida emas, balki ilohiy madhning asosiy poetik quvvati sifatida qo'llaydi. Shu sababli Ogahiy she'riyatidagi iqtiboslar doimo estetik, axloqiy va metafizik vazifani bajaradi.

Ogahiy Qur'on oyatlari orqali bir necha yo'nalishdagi hamdiy mazmunni uyg'unlashtiradi. Avvalo, oyatlar orqali Allohning mutlaq buyukligi va yagona Zot ekani ulug'lanadi, bu esa hamdi tavhidiy mazmunni yuzaga chiqaradi. Masalan, "Ufu bi 'ahdi" oyatining she'riy matnda keltirilishi Alloh kalomiga itoat, ilohiy amrning so'zsiz hukm ekanini tan olish va ahdga vafo qilish g'oyasini ulug'lashga xizmat qiladi. Bu hol Qur'on kalomini faqat eslatilishi emas, balki unga bo'lgan bandalik ehtiromining badiiy ifodasidir.


Ikkinchi jihatdan, Ogahiy iqtiboslar orqali hamdi shukroniy mazmunni yuzaga chiqaradi. Jumladan, "Innā a'taynāka al-kawthar" oyatiga ishora qilingan baytlarda Alloh tomonidan ato etilgan ne'matlar, fazlu karam va ilohiy in'omlar uchun shukr tuyg'usi yetakchi o'ringa chiqadi. Bu yerda iqtibos shoir tafakkurida minnatdorlik, taslimiyat va bandalik hissini kuchaytiruvchi poetik vositaga aylanadi.

Uchinchi yo'nalish esa tasavvufiy hamd bilan bog'liq bo'lib, bunda "Kullu man 'alayhā fān" oyati markaziy falsafiy tayanch vazifasini bajaradi. Ushbu oyat orqali Ogahiy foniylilik

g'oyasini ilgari suradi va mavjudotning o'tkinchiligi fonida faqat Haqning boqiyiligini e'tirof etadi. Bu qarash tasavvuf falsafasidagi fano va baqo tushunchalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, foniylilikni Haqqa eltuvchi yo'l, baqolikni esa ilohiy haqiqatda barqarorlik maqomi sifatida talqin etadi.

Shu tariqa Ogahiy iqtibosni faqat diniy manba sifatida emas, balki she'riy va falsafiy hamdning faol unsuriga aylantiradi. Qur'on oyati she'r tarkibida tirik poetik hodisaga aylanib, mazmunan sharhlanadi, estetik jihatdan boyitiladi va axloqiy xulosa bilan yakunlanadi. Bu esa shoirning balog'at ilmida, xususan iqtibos, darj va ma'naviy ishorat san'atlarini mukammal egallaganidan dalolat beradi.

Ogahiy iqtibos san'atini balog'atning oliy darajasida qo'llagan shoir sifatida namoyon bo'ladi. Uning har bir Qur'on iqtibosi bir tomondan lafziy aniqlik orqali ilohiy kalomga chuqur ehtiromni ifodalasa, ikkinchi tomondan ma'naviy chuqurlik orqali oyat mazmunini she'riy tafakkurga singdiradi. Hamdiy ohang esa iqtibosni ilohiy madh va shukr vositasiga aylantiradi. Natijada Ogahiy she'riyatidagi iqtiboslar Qur'on kalomini she'riy idrok maydoniga olib kirgan, hamdni esa balog'at ohangida kuylangan ilohiy badiiyat darajasiga ko'targan nodir poetik namunalar sifatida qadrlanadi.



**1-diagramma.**

### Xulosa

Diagrammadan ko'rinadiki, Ogahiy ijodida Qur'on iqtiboslari eng ko'p tavidiy hamd doirasida qo'llanadi. Bu hol shoir poetikasida Allohning yagona va mutlaq Zot sifatida madh etilishi yetakchi o'rin egallashini ko'rsatadi. Tasavvufiy hamd bilan bog'liq

iqtiboslar ikkinchi o'rinda turib, fano va baqo falsafasining Ogahiy dunyoqarashida muhim ahamiyat kasb etganini tasdiqlaydi. Shukroniy hamd esa nisbatan kamroq uchraydi, biroq ilohiy ne'matlar va fazlu karamni e'tirof etuvchi mazmun sifatida tizimda barqaror o'ringa ega.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Hojjahmedov, A. (2008). *Badiiy san'atlar lug'ati*. 45–46. Fan.
2. Yo'ldoshev, Q. (1993). *Mumtoz sharq adabiyoti poetikasi*. 112–114. Fan.
3. The Qur'an. (2009). In M. S. Muhammad Yusuf, *Tafsiri Hilol*. Vol. 1. 12. Hilol-nashr. (Fotiha surasi, 2-oyat).
4. The Qur'an. (2009). In M. S. Muhammad Yusuf, *Tafsiri Hilol*. Vol. 256. Hilol-nashr. (Ibrohim surasi, 7-oyat).
5. The Qur'an. (2009). In M. S. Muhammad Yusuf, *Tafsiri Hilol*. Vol. 7. 350. Hilol-nashr. (Isro surasi, 34-oyat).
6. Sakkokiy. (n.d.). *Miftah al-ulum*.
7. The Qur'an. (2009). In M. S. Muhammad Yusuf, *Tafsiri Hilol*. Hilol-nashr. (Ar-Rahmon surasi, 27-oyat).
8. Ibn Arabi. (n.d.). *Futuhot al-Makkiya*.
9. Qazvinii. (1996). *Talkhis al-Miftah*. Dar al-Fikr.
10. Jurjoni, A. (2001). *Asror al-balagha*. Dar al-Kutub al-Ilmiya.
11. Jurjoni, A. (2000). *Dala'il al-i'jaz*. Maktabat al-Khonijiy.
12. Karimov, N. (1988). *Ogahiy ijodi va tarixiy poetika*. Fan.
13. Rasulov, A. (2005). *O'zbek mumtoz adabiyotida hamd va na't janrlari*. Fan.

---

**Rus lisoniy shaxsi madaniyat  
fenomeni sifatida: geografik,  
tarixiy va ijtimoiy jihatlar****Azizova Nasiba Baxritdinovna**[azizovanasiba@mail.ru](mailto:azizovanasiba@mail.ru)

Professor,

Qarshi davlat universiteti

**Annotatsiya** *Ushbu maqolada "rus lisoniy shaxsi" konseptini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy-madaniy omillar kompleks tahlil qilinadi. Geografik omillar (kenglik mentaliteti), tarixiy jarayonlar (Sharq-G'arb dixotomiyasi, diniy meros, siyosiy transformatsiyalar), badiiy adabiyotning roli va zamonaviy globallashuvning ta'siri diqqat markazida turadi. Tadqiqot lisoniy shaxsning til, milliy ong va madaniyat bilan uzviy bog'liqligini, shuningdek, uning verbal-semantik, kognitiv va motivatsion-pragmatik darajalarida ushbu omillarning qanday aks etishini ko'rsatishga qaratilgan. Lingvistik, konseptual va madaniy-tarixiy tahlil usullari qo'llangan. Maqolada rus lisoniy shaxsining barqaror o'ziga xos xususiyatlari hamda zamonaviy davrda qayta shakllanuvchan dinamik tabiati dalillangan. Natijalar tilshunoslik, madaniyatshunoslik va kommunikatsiya sohalari uchun amaliy ahamiyatga ega.*

**Kalit so'zlar** *Lisoniy shaxs, rus mentaliteti, ijtimoiy-madaniy omillar, kenglik konsepti, lingvomadaniyat, tarixiy lingvistika, Sharq-G'arb dixotomiyasi, adabiy nutq, til o'yini, globallashuv, lingvistik identifikatsiya, milliy ong, konseptual maydon, lingvistik tahlil, nutq madaniyati*

---

**Русская языковая личность как  
феномен культуры:  
географические, исторические  
и социальные аспекты****Азизова Насиба Бахритдиновна**[azizovanasiba@mail.ru](mailto:azizovanasiba@mail.ru)

Профессор,

Каршинский государственный  
университет

**Аннотация** *В статье проводится комплексный анализ ключевых социокультурных факторов, формирующих концепт «русская языковая личность». Фокус исследования сосредоточен на географической детерминанте (менталитет широты), исторических процессах (дихотомия Восток-Запад, религиозное наследие, политические трансформации), роли художественной литературы и влиянии современной глобализации. Цель работы – продемонстрировать неразрывную связь языковой личности с языком, национальным сознанием и культурой, а также отражение данных факторов на её вербально-семантическом, когнитивном и мотивационно-прагматическом уровнях. Применены методы лингвистического, концептуального и культурно-исторического анализа. Доказаны устойчивые специфические черты русской языковой личности и её динамическая, трансформирующаяся природа в современную эпоху. Результаты имеют практическое значение для лингвистики, культурологии и теории коммуникации.*

**Ключевые  
слова**

*Языковая личность, русский менталитет, социокультурные факторы, концепт широты, лингвокультура, историческая лингвистика, дихотомия Восток-Запад, литературная речь, языковая игра, глобализация, лингвистическая идентичность, национальное сознание, концептуальное поле, лингвистический анализ, культура речи*

---

**The Russian linguistic personality  
as a cultural phenomenon:  
geographical, historical and social  
aspects****Azizova Nasiba Bakhritdinovna**[azizovanasiba@mail.ru](mailto:azizovanasiba@mail.ru)

Professor,

Karshi State University

**Annotation**

*This article provides a comprehensive analysis of the key socio-cultural factors that shape the concept of the "Russian linguistic personality". The research focuses on the geographical determinant (the mentality of vastness), historical processes (the East-West dichotomy, religious heritage, political transformations), the role of literature, and the impact of modern globalization. The aim is to demonstrate the intrinsic connection between linguistic personality and language, national consciousness, and culture, as well as to show how these factors are reflected at its verbal-semantic, cognitive, and motivational-pragmatic levels. Methods of linguistic, conceptual, and cultural-historical analysis are employed. The study substantiates the stable specific features of the Russian linguistic personality and its dynamic, transformative nature in the modern era. The findings are of practical importance for linguistics, cultural studies, and communication theory.*

**Keywords**

*Linguistic personality, Russian mentality, socio-cultural factors, concept of vastness, linguoculture, historical linguistics, East-West dichotomy, literary speech, language game, globalization, linguistic identity, national consciousness, conceptual field, linguistic analysis, speech culture*

---

**Kirish**

"Rus lisoniy shaxsi" tushunchasi til, ong va madaniyatning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadigan murakkab hodisadir. U faqat til bilimlari va qobiliyatlarini emas, balki muayyan tarixiy va madaniy kontekstda shakllangan dunyoqarash, qadriyatlar tizimi va kommunikativ xulq-atvorni o'z ichiga oladi (Karaulov, 1989). Ushbu maqolaning magsadi rus lisoniy shaxsining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy ijtimoiy-madaniy omillarni: geografik, tarixiy, adabiy va zamonaviy omillarni lingvomadaniy yondashuv asosida

tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot ayniqsa, lisoniy shaxsning tarkibiy darajalari (verbal-semantik, kognitiv, pragmatik) (Karaulov, 2010) qanday qilib rus madaniyati va tarixiy tajribasining o'ziga xosligi bilan bog'langanligini ko'rsatishga qaratilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

"Lisoniy shaxs" tushunchasi rus tilshunosligida Yu.N. Karaulov asarlarida chuqur nazariy asosga ega bo'lib, u uni "matn yaratish va idrok etish qobiliyatlarining individual majmui" deb ta'riflaydi (Karaulov, 1989). Bu yondashuv lisoniy shaxsning uch

darajali tuzilishini (verbal-semantik, lingvokognitiv, motivatsion-pragmatik) taklif qiladi.

V.V. Vorobyev lisoniy shaxsni madaniy kod va ma'no tashuvchisi sifatida ko'rib, lingvomadaniyatshunoslik metodologiyasini takomillashtirdi (Воро́бьев, 2008). Rus mentalitetining geografik omillari, xususan "kenglik" (*prostor*) konsepsi V.V. Kolesov (2006), B.A. Uspenskiy (2002) va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Tarixiy omillar, jumladan Sharq-G'arb muammosi va diniy ta'sirlar N.A. Berdyayev (1990), D.S. Lixachev (1987) va A.M. Panchenko (1996) ishlarida yoritilgan. Adabiyotning roli M.M. Baxtin dialogik nutq nazariyasi (Бахтин, 1979) va D.S. Lixachevning qadimgi rus adabiyoti haqidagi tadqiqotlari (Лихачёв, 1987) kontekstida o'rganilgan. Zamonaviy o'zgarishlar va globallashuv ta'siri M.A. Krongauz (2009) kabi tilshunoslarning ishlarida aks etgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi:

Lingvomadaniy tahlil: "Kenglik", "volya", "toska" kabi asosiy madaniy konseptlarning lingvistik ifodalanishi (leksika, frazeologiya, sintaksis) tahlil qilindi.

Tarixiy-tipologik tahlil: Rus tilining turli tarixiy bosqichlarda (qadimgi, imperiya, sovet, zamo naviy) o'zgarishi va bu o'zgarishlarning lisoniy shaxs tuzilishiga ta'siri ko'rib chiqildi.

Konseptual tahlil: Milliy dunyoqarashning markaziy tushunchalari tahlil qilindi.

Diskurs tahlili: Badiiy adabiyot (L.N. Tolstoy, F.M. Dostoyevskiy), publitsistika va zamonaviy internet-kommunikatsiyalar materiali sifatida o'rganildi, ularda lisoniy shaxsning modellashtirilishi ko'rsatib berildi.

Qiyosiy tahlil: Turli ijtimoiy guruhlar (dehqonlar, ziyolilar, yoshlar) tomonidan lisoniy resurslarning o'zlashtirilishi qiyoslandi.

### **Tahlil va natijalar**

1. Geografik omil: Kenglik mentaliteti va uning lingvistik aks etishi

Keng va ochiq makonlar rus mentalitetida "prostor" (*kenglik*) konseptini shakllantirgan, bu esa erkinlik ("volya") instinkti, harakatchanlik va ba'zan maqsadsizlik tuyg'usi bilan bog'liq [Колесов, 2006]. Bu konsept tilga quyidagicha singgan:

Leksika: "prostor", "razdolye", "shir'", "dal'", "volya", "privolye" so'zlari ijobiy, ba'zan esa qayg'u ("toska") bilan aralash mazmunga ega (Колесов, 2006; Успенский, 2002).

Frazeologiya: "куда глаза глядят" (*ko'z oqqan tomonga*), "открывать новые горизонты" (*"yangi ufqlarni ochmoq"*), "в поле ветром носим" (*"Borar joyi yo'q"*). Bu iboralar erkinlik, ammo bir vaqtning o'zida maqsadsizlik va beqarorlikni anglatadi. "Как грубы после дождя" (*"yomg'irdan keyingi zamburug'lardek"*) kabi iboralar erkinlik va beqarorlikni ifodalaydi.

Sintaksis: L.N. Tolstoy asarlaridagi keng qamrovli va murakkab tasvirlar kenglik idrokini aks ettiradi.

2. Tarixiy omil: Din, Sharq-G'arb o'zaro ta'siri va siyosiy tuzumlar

Vizantiya merosi (Xristianlikni qabul qilish): Cherkov-slavyan tili "yuqori" til kodi sifatida diglossiyani (Успенский, 2002), *muqaddas/dunyoviy, ruhiy/jismoniy* kabi ikki qarama-qarshi tushunchalar tizimini shakllantirdi.

– Sharq-G'arb dixotomiyasi: Mo'g'ul-tatar bosqini "деньги" (*pul*), "таможня" (*bojxona*), "ямщик" (*aravakash*), "казна" (*xazina*). Bu so'zlar boshqaruv, soliq va pul-mulk tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, markaziy hokimiyat tizimining shakllanishiga xizmat qilgan.

Petr I yevropacha islohotlari ("assambleya", "reglament") leksikasi rus madaniyatidagi ikki qutbliikka (dualizm) hissa qo'shdi (Бердяев, 1990; Панченко, 1996).

Ijtimoiy-siyosiy tizimlar: Sovet davri ("kolxoz", "pyatiletka") va markazlashgan davlat tuzumi "Siz" va "sen" olmoshlarining murakkab iyerarxik va axloqiy mazmunini mustahkamladi.

3. Adabiyot va madaniyatning roli: Lisoniy shaxs qonunchisi



Rus adabiyoti lisoniy shaxsning etalonini yaratdi (Лихачёв, 1987; Бахтин, 1979).

Tipik obrazlar: "Kichkina odam" (A.A. Bashmachkin) nutqidagi takrorlar va itoatkorlik; "Ortiqcha odam" (Onegin) nutqidagi kinoya; "Idealist" (Knyaz Mishkin) nutqidagi soddalik va ochiqdimoglik.

Adabiy frazeologizmlar: "Vse my vyshli iz gogolevskoy «Shineli»", "Nado jit' po sovesti" kabi iboralar milliy ongning bir qismiga aylandi.

4. Zamonaviy davr: Globallashuv va identlikning qayta shakllanishi

XXI asr rus lisoniy shaxsiga yangi sinovlar olib keldi:

Anglitsizmlar to'liqini: "biznes", "noutbuk", "kraudfanding" – yangi amaliyotlarni aks ettiruvchi leksika.

Internet-kommunikatsiya: "Olmon tili" ("preved"), memlar, sleng ("khayp", "krash") – norasmiy muloqotning tezlashuvi va globallashuvi natijasida yuzaga keldi (Кронгауз, 2009).

Ijtimoiy guruhlar farqi: Yoshlar bu o'zgarishlarning eng faol qatnashchisi, keksa avlod esa ko'proq an'anaviy lingvistik modellarga sodiq qolmoqda.

### **Muhokama**

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, rus lisoniy shaxsi statik emas, balki doimiy rivojlanayotgan va qayta shakllanayotgan tizimdir. Geografik kenglik uning idrok etish va tafakkur modelining asosini qo'ygan bo'lsa, tarixiy o'zgarishlar (Sharq-G'arb o'zaro ta'siri, diniy va siyosiy transformatsiyalar) uning tarkibini boyitgan. Adabiyot ushbu tajribani umumlashtirib, lisoniy va madaniy normalarni kodlashtirgan. Zamonaviy globallashuv sharoitida rus lisoniy shaxsiyati yangi leksik va kommunikativ amaliyotlarni o'zlashtirish orqali o'zini namoyon qilmoqda, biroq uning o'ziga

xos xususiyatlari (dualizm, kenglik tuyg'usi, sobornost') saqlanib qolmoqda. Turli avlodlar va ijtimoiy guruhlar ushbu transformatsiyaga har xil munosabatda bo'lishi – lisoniy shaxsning dinamik va ijtimoiy jihatdan qatlamlangan tabiatini tasdiqlaydi.

### **Xulosa va Takliflar**

Rus lisoniy shaxsi – geografik, tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillarning murakkab o'zaro ta'siri natijasida shakllangan hodisadir. "Kenglik" konsepti rus mentalitetining markaziy komponenti bo'lib, tilning barcha darajalarida o'z ifodasini topgan. Tarixiy jarayonlar (xristianlik, Sharq-G'arb ta'siri, sovet davri) rus lisoniy shaxsining ikki qutbli (dual) tabiatini va boy leksik qatlamlilik shakllantirgan. Rus adabiyoti lisoniy shaxsning namunasi va milliy lingvistik xotiraning asosi bo'lib xizmat qilgan.

Zamonaviy globallashuv davri rus lisoniy shaxsini transformatsiya qilmoqda, biroq uning o'ziga xosligini butunlay yo'q qilmagan, balki yangi shakllarda namoyon bo'lishi uchun zamin yaratmoqda.

Takliflar:

- Rus lisoniy shaxsinin zamonaviy o'zgarishlarini, ayniqsa raqamli muhit va yangi media ta'sirini chuqurroq o'rganish zarur.
- Turli yosh va ijtimoiy guruhlar vakillarining lisoniy shaxslarini qiyosiy tadqiq qilish lisoniy o'zgarishlar ijtimoiy dinamikasini tushunishga yordam beradi.
- "Rus lisoniy shaxsi" konsepti boshqa madaniyatlarning lisoniy shaxslari (masalan, o'zbek) bilan qiyosiy o'rganilsa, uning o'ziga xos xususiyatlari yanada aniqroq ko'rinadi.

Lingvistik ta'lim va madaniyatlararo muloqotda lisoniy shaxs tushunchasidan foydalanish samaradorlikni oshirishi mumkin.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Азизова, Н. Б. (2024). Лингвокультурная интерпретация понятия «языковая личность» в русском и узбекском языках. *Экономика и общество*, 2–2(117), 67–70. <https://cyberleninka.ru/article/n/rus-va-o-zbek-tillarida-lisony-shaxs-konseptininglingumadaniy-talqini>
2. Бахтин, М. М. (1979). *Проблемы поэтики Достоевского*. Советский писатель.
3. Бердяев, Н. А. (1990). Русская идея. Основные проблемы русской мысли XIX века и начала XX века. В *О России и русской философской культуре*. 43–271. Наука.
4. Воробьёв, В. В. (2008). *Лингвокультурология: теория и методы*. РУДН.
5. Караулов, Ю. Н. (1989). Русская языковая личность и задачи её изучения. В *Язык и личность*. 3–8. Наука.
6. Караулов, Ю. Н. (2010). *Русский язык и языковая личность*. Издательство ЛКИ.
7. Колесов, В. В. (2006). *Духовные пути Древней Руси: Русская ментальность в языке и тексте*. Петрополис.
8. Кронгауз, М. А. (2009). *Русский язык на грани нервного срыва*. Языки славянских культур.
9. Лихачёв, Д. С. (1987). *Избранные работы*. Vol. 2. Художественная литература.
10. Панченко, А. М. (1996). Русская культура в канун петровских реформ. В *Из истории русской культуры*. Vol. 3. 11–261. Школа «Языки русской культуры».
11. Успенский, Б. А. (2002). *История русского литературного языка (XI–XVII вв.)*. Аспект Пресс.

## Проявление принципа экономии на фонетическом уровне

**Ибраимова Орзигул Косимжон кизи**

[ibraimovaorzi@gmail.com](mailto:ibraimovaorzi@gmail.com)

Преподаватель,  
Узбекский государственный университет  
мировых языков

**Аннотация** *Данная статья посвящена рассмотрению принципа экономии как одного из ключевых факторов, определяющих звуковой строй русского языка. Анализируются основные проявления этого принципа на фонетическом уровне, включая редукцию гласных и согласных, ассимиляцию, диссимиляцию и элизю. Особое внимание уделяется механизмам, посредством которых стремление к минимизации артикуляционных усилий влияет на произношение и ведет к историческим изменениям в языке, сохраняя при этом коммуникативную функцию речи.*

**Ключевые слова** *Фонетика, принцип экономии, речевая экономия, артикуляционные усилия, редукция, ассимиляция, диссимиляция, элизия*

## Fonetik darajada iqtisod prinsipi namoyon bo'lishi

**Ibraimova Orzigul Qosimjon qizi**

[ibraimovaorzi@gmail.com](mailto:ibraimovaorzi@gmail.com)

O'qituvchi,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Annotatsiya** *Ushbu maqola rus tilining tovush tizimini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida tejamkorlik prinsipini ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Ushbu prinsipning fonetik darajadagi asosiy ko'rinishlari, jumladan, unli va undoshlarning reduksiyasi, assimilyatsiya, dissimilyatsiya va eliziya tahlil qilinadi. Mexanizmlarga alohida e'tibor qaratiladi, ular orqali artikulyatsion harakatlarni minimallashtirishga intilish talaffuzga ta'sir qiladi va tilda tarixiy o'zgarishlarga olib keladi, shu bilan birga nutqning kommunikativ funksiyasini saqlab qoladi.*

**Kalit so'zlar** *Fonetika, tejamkorlik prinsipi, nutqiy tejamkorlik, artikulyatsion harakatlar, reduksiya, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, eliziya*

## Manifestation of the principle of economy at the phonetic level

**Ibraimova Orzigul Qosimjon qizi**

[ibraimovaorzi@gmail.com](mailto:ibraimovaorzi@gmail.com)

Lecturer,  
Uzbekistan State World Languages University

**Annotation** *This article is devoted to considering the principle of economy as one of the key factors determining the sound system of the Russian language. The main manifestations of this principle at the phonetic level are analyzed, including vowel and consonant reduction, assimilation, dissimilation, and elision. Special attention is paid to the mechanisms through which the desire to minimize articulatory efforts influences pronunciation and leads to historical changes in the language, while preserving the communicative function of speech.*

**Keywords** *Phonetics, principle of economy, speech economy, articulatory efforts, reduction, assimilation, dissimilation, elision*

Язык – это динамичная и постоянно развивающаяся система, которая характеризуется вариабельностью и динамизмом. В то же время мы не должны игнорировать неравномерность в историческом развитии отдельных языковых уровней, неравномерность и неоднородность происходящих в организме изменений обусловлены действием как внешних, так и внутренних факторов. Одним из таких внутренних факторов, способствующих развитию и совершенствованию языка, является тенденция к экономии языковых ресурсов, которая, по мнению многих лингвистов, является универсальной и затрагивает все уровни языковой системы.

Принцип экономии в языке и речи универсален благодаря его проникновению во все языковые уровни: на фонетическом уровне наблюдается сокращение и пропуск фонем, на лексическом – замена односложных фраз, сокращение слов, объединение слов в одну лексическую единицу, на морфологическом – преобразование существительных, прилагательных и причастий: опущение или редукция аффиксов и на синтаксическом уровне – использование эллиптических предложений и др. Экономия на различных уровнях языка направлена на оптимизацию выражения мыслей, снижение избыточности и увеличение ясности коммуникации. Феномен речевой экономии, однако, не является простым стремлением к лени или упрощению. Это сложный адаптивный механизм, который обеспечивает оптимальное функционирование языка. С одной стороны, говорящий стремится минимизировать физические затраты на произнесение, что

приводит к фонетическим изменениям. С другой стороны, существует неотъемлемое требование к сохранению коммуникативной ясности, то есть понятности речи для слушающего. Это противоречие – между стремлением к экономии со стороны говорящего (принцип экономии) и необходимостью обеспечения достаточной избыточности для понимания со стороны слушающего (принцип разграничения или сохранения информации) – является одной из фундаментальных движущих сил языковой эволюции. Язык постоянно ищет баланс между этими двумя полюсами.

Продолжая данное рассуждение, следует подчеркнуть, что баланс между экономией и избыточностью проявляется не только в синхронном состоянии языка, но и в его диахроническом развитии. История языков убедительно демонстрирует, что процессы упрощения одних элементов неизбежно сопровождаются усложнением или уточнением других. Так, утрата флексий в аналитических языках компенсируется развитием служебных слов и более строгого порядка слов, а фонетическая редукция часто уравнивается контекстуальными и интонационными средствами различения значений.

Особую роль принцип экономии играет в условиях интенсивной коммуникации, характерной для современных обществ. Развитие цифровых технологий, социальных сетей и мессенджеров усилило тенденции к сокращению языковых форм, появлению аббревиатур, акронимов, эмодзи и гибридных графико-лексических средств. В этих условиях экономия становится не только языковым, но и социокультурным фактором, отражающим ускорение темпа

жизни и изменение коммуникативных приоритетов. При этом даже в самых редуцированных формах общения сохраняется стремление к однозначности и эффективности передачи информации, что подтверждает адаптивную природу языковой экономии.

С когнитивной точки зрения принцип экономии тесно связан с особенностями человеческого мышления. Человек склонен выбирать такие языковые средства, которые позволяют быстрее кодировать и декодировать информацию при минимальных затратах когнитивных ресурсов. Однако чрезмерная экономия может привести к коммуникативным сбоям, неоднозначности или непониманию, особенно в межкультурной и межъязыковой коммуникации. В этом контексте экономия оказывается ограниченной рамками прагматической целесообразности и нормами языкового сообщества.

В лингвистической теории принцип экономии соотносится с рядом фундаментальных концепций, таких как закон наименьшего усилия, функционализм, теория оптимальности и прагматические модели коммуникации. Все они в той или иной степени подчеркивают, что язык функционирует как динамическая система, в которой формы отбираются и закрепляются в зависимости от их функциональной эффективности. Экономия в данном случае выступает не как самоцель, а как инструмент оптимизации языковой системы в целом.

Таким образом, принцип экономии в языке и речи следует рассматривать как универсальный и многоуровневый механизм, обеспечивающий гибкость, устойчивость и адаптивность языковой системы. Он отражает постоянное взаимодействие между физиологическими, когнитивными, социальными и коммуникативными факторами и играет ключевую роль в эволюции языка. Именно благодаря этому принципу язык способен

одновременно сохранять свою выразительность и обеспечивать эффективность общения в постоянно меняющихся условиях человеческой коммуникации.

Принцип экономии на фонетическом уровне олицетворяет стремление автора к использованию минимального возможного количества фонетических средств для достижения нужной коммуникативной цели. Он возникает из понимания того, что каждый фонетический элемент требует затраты энергии для его произнесения и восприятия, а также занимает определенное время. Используя принцип экономии на фонетическом уровне, адресант стремится подобрать максимально точные и информативные звуки и интонации, которые будут способствовать наиболее эффективной передаче смысла.

Идея экономии артикуляционных усилий была сформулирована еще в конце XIX – начале XX вв. Дж.К. Зипф в своей работе «Человеческое поведение и принцип наименьшего усилия» (1949) развил эту концепцию, показав, как стремление к минимизации усилий проявляется в статистических закономерностях языковой системы. В русской лингвистике вопросы речевой экономии активно изучались Л.В. Щербой, Р.И. Аванесовым, А.А. Реформатским и другими исследователями.

А. Мартине положил начало изучению экономии в области фонологии, расширив сферу применения этого принципа и придав экономии универсальный характер, считая ее причиной фонетических изменений. Он утверждал, что язык стремится к максимальной эффективности при минимальных затратах энергии (Мартине, 1960). В современной лингвистике существует два подхода к пониманию принципа экономии: широкий (любое явление в синхронии и диахронии, приводящее к исчезновению новых форм, к совершенствованию языка как средства

коммуникации) и узкий (количественный, основанный на возможностях языковых средств, то есть заменяя их более экономичными единицами). Разговорная речь – это основная область внедрения языковой экономии.

Считается, что человеческий разум обладает уникальной техникой ментального восприятия информации. Эта психотехника регулирует понимание информации на всех уровнях языка, которая поступает из окружающей среды в «сжатом» виде. Понимание информации также происходит на фонематическом уровне языка, поскольку фонема имеет социальный аспект и выполняет функции различения значимых единиц речи. Однако она не имеет своего единственного значения, а реализуется в одном из звуков морфемы. Тот факт, что количество фонем ограничено (если существует естественная личностная дифференциация, связанная с физиологическими особенностями говорящего), допускает унификацию звуков до степени их полного понимания.

Фонетическая экономия проявляется через различные процессы, которые включают ассимиляцию, диссимиляцию, элизию, редукцию. Эти явления способствуют уменьшению усилий, необходимых для произнесения речи, и обеспечивают более эффективную коммуникацию.

Ассимиляция влечет за собой изменение звуков под влиянием соседних, что облегчает процесс произношения («сшить» > [шйт'], «высший» > «вы[ш]ий»).

Диссимиляция (от лат. *dissimilatio* – расподобление) – это процесс, обратный ассимиляции, при котором два одинаковых или похожих звука, находящихся рядом, утрачивают сходство, один из них изменяется или выпадает (Реформатский, 2007). Хотя на первый взгляд это может показаться противоречащим экономии (ведь требуется изменить звук), на самом деле диссимиляция также служит цели

облегчения произношения, предотвращая излишнюю артикуляционную сложность и повторение. Произнести два совершенно одинаковых или очень похожих звука подряд может быть сложнее, чем один из них изменить (коридор > ко[л]идор).

Элизия включают опущение некоторых звуков в слове, особенно в быстрой или неформальной речи, для ускорения речевого потока («чтоб» вместо «чтобы»).

Аккомодация (от лат. *accommodatio* – приспособление) – это взаимное приспособление соседних звуков, при котором они частично меняют свои свойства под влиянием друг друга, но не происходит полного уподобления (как при ассимиляции). Это менее радикальное проявление экономии, но оно обеспечивает плавность и непрерывность речевого потока, минимизируя резкие переходы артикуляционных органов (Щерба, 1983).

По определению Т.В. Бабушкиной, редукция – это сокращение длительности гласных звуков и изменение их акустико-физиологических свойств в безударном положении (Бабушкина, Гурьева, 1999). Редукция безударных гласных является существенным признаком для опознавания места ударения в слове, а отсутствие редукции воспринимается как отклонение от литературной нормы. В русском языке это явление наиболее ярко выражено. Гласные в безударных слогах произносятся менее отчетливо, теряют свою яркость, а иногда и полностью меняют качество (Щерба, 1983). Различают три степени редукции: количественная, качественная и нулевая.

Принцип экономии артикуляционных усилий является мощным и постоянно действующим фактором в развитии звуковой системы русского языка. Он проявляется во множестве фонетических явлений – от тонких изменений тембра гласных в безударных слогах до полного выпадения звуков в сложных сочетаниях.



Редукция, ассимиляция, диссимиляция и элизия – это механизмы, посредством которых говорящий стремится к максимальной эффективности при минимальных затратах энергии. Эти фонетические особенности демонстрируют, как принцип экономии на фонетическом уровне помогает людям быстрее и эффективнее выражать свои мысли, особенно в разговорной речи.

Важно отметить, что действие принципа экономии всегда ограничено требованием сохранить понятность речи. Если экономия слишком велика и затрудняет восприятие, язык находит способы компенсировать эти потери, например, через развитие других фонетических средств или синтаксической ясности. Таким образом, звуковой строй русского языка представляет собой динамическое равновесие между стремлением к экономии усилий говорящего и потребностью в сохранении информативности для слушающего, что делает его гибкой и постоянно адаптирующейся системой.

Продолжая анализ, следует подчеркнуть, что принцип экономии артикуляционных усилий не действует изолированно, а тесно взаимодействует с просодическими и ритмическими особенностями русской речи. Интонация, ударение и темп высказывания играют компенсаторную роль, позволяя нивелировать возможные потери фонетической чёткости, вызванные редукцией или выпадением отдельных звуков. В частности, усиление словесного или фразового ударения способствует сохранению смысловых оппозиций даже в условиях значительного ослабления безударных гласных.

Особенно наглядно действие принципа экономии проявляется в разговорной и спонтанной речи, где скорость коммуникации и неформальный характер общения стимулируют фонетические упрощения. Здесь

наблюдаются такие явления, как стяжение слогов, оглушение и озвончение согласных на стыке слов, а также упрощение консонантных групп. Однако в нормативной, подготовленной речи данные процессы либо ослабляются, либо строго регулируются орфоэпическими нормами, что указывает на социальную и стилистическую обусловленность реализации принципа экономии.

В диахроническом аспекте экономия артикуляционных усилий выступает одной из ключевых причин фонетических изменений, закрепляющихся в языковой системе. Многие исторические чередования и современные орфоэпические нормы русского языка являются результатом длительного действия этого принципа, который постепенно трансформирует звуковой облик слов. При этом языковая система сохраняет способность к саморегуляции: фонетические изменения, угрожающие различительной функции звуков, либо не закрепляются, либо сопровождаются возникновением новых средств разграничения значений.

Следует также отметить, что принцип экономии артикуляции имеет универсальный характер, однако в каждом языке он реализуется с учётом специфики его фонологической системы. В русском языке, характеризующемся сложной системой ударения и богатством консонантных сочетаний, экономия особенно ярко проявляется в редукции гласных и ассимилятивных процессах. Это делает русскую фонетику высоко вариативной в речевом потоке, но при этом устойчивой в своей функциональной основе.

Таким образом, принцип экономии артикуляционных усилий следует рассматривать как один из фундаментальных факторов, формирующих звуковую систему русского языка. Его действие обеспечивает динамичность и адаптивность фонетического строя,

позволяя языку эффективно обслуживать коммуникативные потребности говорящих,

не нарушая при этом основных условий взаимопонимания.

---

#### Список использованной литературы:

1. Аванесов, Р. И. (1984). *Русское литературное произношение*. Москва: Просвещение.
**Annotatsiya** *Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida refleksiya va o'z-o'zini baholashning ahamiyati ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Refleksiya o'quvchilarning o'z bilimlari, ko'nikmalari va faoliyat natijalarini anglashiga yordam beruvchi muhim mexanizm sifatida qaraladi. O'z-o'zini baholash esa ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, mas'uliyat va tanqidiy yondashuvni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada reflektiv ta'limning shaxsiy rivojlanish, motivatsiya va akademik natijalarga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, o'qituvchilarning refleksiv faoliyati ta'lim sifatini oshirish omili sifatida asoslanadi. Zamonaviy ta'limda refleksiya va o'zini baholash kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda muhim pedagogik vosita ekanligi xulosa qilinadi.*

**Kalit so'zlar** *Refleksiya, o'z-o'zini baholash, zamonaviy ta'lim, tanqidiy fikrlash, kompetensiya, ta'lim sifati*

### **Introduction**

The modern education system is undergoing a radical renewal in the context of social development, technological development and global competition. Today, the main task of education is not limited to the transfer of ready-made knowledge, but also to form independent thinking, analysis of one's own activities and self-development skills in students. From this point of view, reflection and self-assessment are emerging as integral components of modern education.

Reflection is a process of conscious analysis of one's own knowledge, experience, activities and results, which allows learners to understand their strengths and weaknesses. Self-assessment is a logical continuation of reflection and develops the student's ability to make an objective and well-founded assessment of their own educational activities. These processes strengthen the sense of responsibility in students and create the basis for their participation in the educational process as active subjects.

While in the traditional educational model the teacher has played the role of a leader and the student has played the role of a passive listener, in modern pedagogical approaches the student is considered the central figure. In such conditions, reflection and self-assessment play an important role in increasing the effectiveness of the educational process, ensuring an individual approach, and implementing competency-based education. By analyzing their own activities, the student acquires knowledge more deeply and has the opportunity to apply it in real-life situations.

Reflection is also important not only for students, but also for teachers. The teacher's reflective approach serves to analyze the lesson process, improve pedagogical methods, and increase the quality of education. This creates an environment of effective communication and cooperation between the teacher and the student.

Reflection and self-assessment are important pedagogical tools of modern

education, which support personal development, critical thinking, and the concept of lifelong learning. This article analyzes the role and importance of reflection and self-assessment in the educational process, as well as the ways of their effective application from a scientific and theoretical perspective.

### **Literature analysis and Research methodology**

The issue of reflection and self-assessment in modern educational theory has been widely covered by many foreign and domestic researchers. The concept of reflection was first scientifically substantiated in pedagogical literature by J. Dewey, who interpreted reflection as a process of conscious analysis of an individual's experience (Dewey, 1933). According to Dewey, reflection is an important factor that increases the effectiveness of education.

D. Schön interpreted reflection as an integral part of professional activity and introduced the concepts of "reflection during action" and "reflection after action" into scientific circulation (Schön, 1983). This approach serves as an important theoretical basis for the development of a teacher's reflexive competence in modern education.

Research by P. Black and D. Wiliam is of particular importance in the issue of self-assessment. They substantiated that self-assessment within the framework of formative assessment has a positive effect on students' learning motivation and academic performance (Black & Wiliam, 1998). Also, B. Zimmerman shows self-assessment as an important component of the theory of self-regulated learning (Zimmerman, 2002).

The pedagogical importance of reflection and self-assessment is also highlighted in the studies of local scientists. In particular, N. Muslimov emphasizes that a reflective approach in the educational process serves to develop students' independent thinking (Muslimov, 2015). Also, R. Jo'rayev notes the important role of self-assessment in the competency-based approach (Jo'rayev, 2018).

The analyzed literature shows that reflection and self-assessment serve as an important scientific and pedagogical basis for the implementation of person-oriented and competency-based approaches in modern education.

In this study, a comprehensive methodological approach was used to determine the importance of reflection and self-assessment in the modern educational process. The theoretical and methodological basis of the study is constructivism, competency-based approach and theories of reflective education.

The following methods were used in the research process:

- the method of analyzing scientific literature, to study existing theoretical views on reflection and self-assessment;
- methods of comparison and generalization, to identify similarities and differences between different scientific approaches;
- the method of logical analysis, to systematize the research results and draw conclusions.

Also, within the framework of the methodology, the educational quality of reflection and self-assessment, the impact of self-assessment on motivation and personal development was theoretically substantiated. The results of the study serve to draw scientific conclusions on the effective organization of reflective and evaluative activities in the modern educational process.

### **Analysis and Results**

The introduction of reflection and self-assessment in the modern educational process is emerging as an important pedagogical mechanism that serves to improve the quality and effectiveness of education. The theoretical analysis conducted shows that the reflective approach transforms students from passive recipients of knowledge into active analyzing and evaluating subjects. This creates the basis for the effective implementation of a person-

oriented and competency-based approach in the educational process.

The reflection process develops students' skills in understanding their own educational activities, setting goals, and evaluating results. Through reflective activity, the student learns to realistically assess their level of knowledge, which allows them to consciously plan future learning strategies. As a result, students abandon mechanical memorization of knowledge and strive to understand it in its essence and apply it in practice.

The integration of self-assessment mechanisms into the educational process leads to an increased sense of responsibility among students. The analysis shows that through self-assessment, the student independently identifies his mistakes and seeks to correct them. This process reduces dependence on external control and forms self-management competence in students. In particular, reflective tasks used within the framework of formative assessment have a positive effect on increasing students' motivation to learn.

It also confirms that reflection and self-assessment have a significant impact on the development of critical thinking. In the process of analyzing their own activities, students learn to draw evidence-based conclusions, approach problems from different perspectives, and evaluate the decision-making process. This is of great importance not only in their academic, but also in their social and professional activities.

The analysis conducted from the point of view of teacher activity showed the role of the reflexive approach in improving pedagogical skills. The teacher's analysis of his/her own activities after the lesson, the assessment of the effectiveness of the methods and tools used, serves to improve the educational process. As a result, the teacher has the opportunity to redesign the lesson process, adapting it to the needs and capabilities of students.

The effectiveness of reflection and self-assessment directly depends on their systematic and purposeful organization. If

these processes are carried out episodically or formally, it becomes difficult to achieve the expected results. On the contrary, when reflective activity is made an integral part of the educational process, students' attitude towards the educational process changes in a positive direction.

Reflection and self-assessment also serve to create a positive psychological environment in the educational process. Students learn to express their opinions freely and accept mistakes as opportunities for development. This leads to a strengthening of the atmosphere of trust, openness and cooperation in the educational process.

### **Conclusion**

In the modern education system, reflection and self-assessment are increasingly recognized as important pedagogical factors that increase the effectiveness of the educational process. The conducted analyses show that these pedagogical mechanisms directly affect the conscious assimilation of knowledge, a critical approach to their own activities and personal development of students. Through reflection, students have the opportunity to deeply analyze their knowledge and skills, which increases their activity in the educational process.

Self-assessment plays an important role in the formation of responsibility, independence and self-management competencies in students. As the student learns to evaluate his/her own work, dependence on external evaluation decreases and internal motivation increases. This situation serves to form a culture of continuous development and self-improvement in the educational process.

Reflection is also an important methodological tool in the work of a teacher. The teacher's analysis of his/her own pedagogical experience, evaluation of the lesson process and drawing conclusions serve to improve the quality of education. The educational process organized on the basis of a reflective approach creates an atmosphere of

effective cooperation and mutual trust between the teacher and the student.

In conclusion, reflection and self-assessment are an integral part of modern education, and it is necessary to systematically and purposefully introduce them into the educational process. These processes not only

increase the quality and effectiveness of education, but also ensure the personal and professional development of students. Therefore, the development of reflective and evaluative activities should remain one of the priorities of modern educational policy and pedagogical practice.

---

## References:

1. Black, P., & Wiliam, D. (2018). Assessment and classroom learning. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 5(1), 7–25.
2. Jo'rayev, R. X. (2018). *Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim sifatini oshirish* (pp. 56–73). Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Muslimov, N. A. (2015). *Ta'lim jarayonida reflektiv yondashuv asoslari* (pp. 88–102). Toshkent: O'qituvchi.
4. Schön, D. A. (2023). *The reflective practitioner: How professionals think in action* (pp. 49–69). New York, NY: Basic Books.
5. Xodjayev, B. M. (2020). *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va refleksiya* (pp. 64–81). Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.
6. Zimmerman, B. J. (2022). Becoming a self-regulated learner: An overview. *Theory Into Practice*, 41(2), 64–70.



---

## Assessment Literacy: Reconceptualizing the process of perception

**Muradkasimova Kamola Shukhratovna**  
[kmuradkasimova@yahoo.com](mailto:kmuradkasimova@yahoo.com)  
Associate Professor,  
Uzbek State World Languages University

**Annotation** *The following research was undertaken with the help of two data collection methods: qualitative and quantitative. Qualitative method helped to identify the perception of teachers on student assessment. Quantitative method was used as test with authentic and contextualized scenarios. The research was conducted with 103 English as foreign language (EFL) teachers from three language universities in Uzbekistan. Through, conducted research methods we have found 1) the teachers LAL profile and 2) the need for stronger training in assessment practice than in theory. These two findings can be explained by the gap between subject matter knowledge and pedagogy of assessment. Findings of this study contribute to our understanding of LAL development in assessment training for language teachers in pre-service and in-service teacher programs. The consistency in developing teachers' language assessment literacy can be reached by well-developed assessment course in practicing classroom assessment.*

**Keywords** *Assessment literacy, teachers' knowledge, pedagogy in assessment, competence, skill, knowledge*

---

## Assessment literacy, teachers' knowledge, pedagogy in assessment, competence, skill, knowledge

**Мурадкасимова Камола Шухратовна**  
[kmuradkasimova@yahoo.com](mailto:kmuradkasimova@yahoo.com)  
Доцент,  
Узбекский государственный университет  
мировых языков

**Аннотация** *Данное исследование проводилось с использованием двух методов сбора данных: качественного и количественного. Качественный метод помог выявить восприятие учителями оценивания учащихся. Количественный метод использовался в качестве теста с аутентичными и контекстуализированными сценариями. В исследовании приняли участие 103 преподавателя английского языка как иностранного (EFL) из трех языковых университетов Узбекистана. В результате проведенного исследования были выявлены: 1) профиль языковой грамотности учителей и 2) необходимость более интенсивной подготовки в области практики оценивания, чем в теории. Эти два вывода можно объяснить разрывом между предметными знаниями и педагогикой оценивания. Результаты данного исследования способствуют пониманию развития языковой грамотности в рамках подготовки учителей языка к оцениванию в рамках программ подготовки и повышения квалификации. Последовательность в развитии языковой грамотности учителей в области оценивания может быть достигнута за счет хорошо разработанного курса по практике оценивания в классе.*

**Ключевые слова** Грамотность в области оценивания, знания учителей, педагогика оценивания, компетентность, навыки, знания

## **Baholash kompetensiyasi: Idrok jarayonini qayta kontseptualizatsiya qilish**

**Muradkasimova Kamola Shuxratovna**

[kmuradkasimova@yahoo.com](mailto:kmuradkasimova@yahoo.com)

Dotsent,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Annotatsiya** Quyidagi tadqiqot ikkita tadqiqot usullari yordamida amalga oshirildi: sifat va miqdor. Sifat usuli o'qituvchilarning talabalarni baholash jarayoni haqidagi malakalarini aniqlashga yordam berdi. Miqdoriy usul haqiqiy va kontekstuallashtirilgan stsenariylar bilan sinov sifatida qo'llanildi. Tadqiqot O'zbekistondagi uchta til universitetidan 103 nafar chet tili sifatida ingliz tili (EFL) o'qituvchilari bilan o'tkazildi. O'tkazilgan tadqiqot usullari orqali biz 1) o'qituvchilarning LAL profilini va 2) baholash amaliyotida nazariyaga qaraganda kuchliroq tayyorgarlikka ehtiyoj borligini aniqladik. Mazkur xulosalarni fan bilimlari va baholash pedagogikasi o'rtasidagi tafovut bilan izohlash mumkin. Ushbu tadqiqot natijalari pedagogik jarayon va malaka oshirayotgan o'qituvchilar dasturlarida til o'qituvchilari uchun baholash mashg'ulotlarida LAL rivojlanishiga hissa qo'shadi. O'qituvchilarning tilni baholash kompetensiyasini (savodxonligini) takomillashtirishda amaliyotda izchil ishlab chiqilgan hamda zarur komponentlar bilan integratsiya qilingan baholash kursi orqali erishish mumkin.

**Kalit so'zlar** Baholash kompetensiyasi (savodxonligi), o'qituvchilarning bilimi, baholashda pedagogika, kompetensiya, ko'nikma, bilim

### **Introduction**

Popham (2004) once labeled teachers' lack of appropriate training in assessment as "professional suicide". The discussions on the role of teachers in the assessment process and their competence in this area brought to the emergence of one of the concepts that we call "assessment literacy". This term was invented by Stiggins (1991), which requires teachers to know "what they are assessing, why they are doing it, how best to assess the skill, knowledge of interest, how to generate good examples of students' performance, what can potentially go wrong with the assessment, and how to prevent that from happening". The development and practical implementation of the language test is a complex process (Pill & Harding, 2013). The impact of the test is, nevertheless, real and

possibly far-reaching, not only for test takers, but also for a wide range of stakeholder groups. Those groups who use language test scores for further decisions, and are not actively involved in the construction of the test materials, may come to assumptions about tests, testing process and outcomes that are at odds with what is intended or can be endorsed by the language testing community. Such misconceptions may have serious consequences for decision making based on the test scores but have seldom been explored and, indeed, are rarely available for scrutiny (Pill & Harding, 2013).

### **Literature review**

There are many studies on language assessment literacy, taking the definition of assessment literacy as the root and focusing on

the competence of language teachers, there exist several definitions. They will include a range of skills related to the test production, test score analysis, and the roles/functions of assessment in education and society (Inbar-Lourie, 2013). According to Fulcher (Fulcher, 2012) "the knowledge, skills and abilities required to design, develop, maintain or evaluate large-scale standardized and/or classroom-based tests, familiarity with test processes, and awareness of principles and concepts that guide and underpin practice, including ethics and codes of practice. The ability to place knowledge, skills, processes, principles and concepts within wider historical, social, political and philosophical frameworks in order to understand why practices have arisen as they have, and to evaluate the role and impact of testing on society, institutions, and individuals". Taylor (2009), emphasizes language assessment literacy as "the level of knowledge, skills and understanding of assessment principles and practice that is increasingly required by other test stakeholder groups, depending on their needs and contexts". Malone (2013) also defined it as "language teachers' familiarity with testing definitions and application of this knowledge to classroom practices in general and specifically to issues related to assessing language". On the other hand, Scarino (2013) defined LAL as "the assessment of student achievements, teacher knowledge, understanding and practices of assessment". Finally, LAL may be regarded as additional competencies when compared to assessment literacy and added that it is the combination of assessment literacy skills and language specific skills (Inbar-Lourie, 2017).

### **Methodology**

The present study is a mixed-methods study that comprises both quantitative and qualitative data. The questionnaire represented qualitative part of the study administered in five Universities of Uzbekistan. The aim of the Qualitative method was to identify the perception of in-service and pre-service

language teacher candidates on student assessment. Quantitative method was used as test to identify the level of knowledge on LTA of pre-service language teacher candidates. The following research aimed to improve the language assessment literacy (LAL) of pre-service language teacher candidates in Uzbekistan and mitigate the barriers based on findings and provide useful recommendations.

The participants of the study included 103 EFL in-service teachers and 253 pre-service teacher candidates from five language universities of Uzbekistan: Uzbekistan State University of World Languages, Samarkand State Institute of Foreign Languages, Nukus State Pedagogical Institute, Jizzakh state pedagogical university and Gulistan state university. As Uzbekistan State University of World Languages is the state basic educational university, the major number of teachers was from this university. The teachers were selected from the same faculties thus, the number of participants depended on the engagement to the same faculty, Table 1. The universities were selected with the approval of the Ministry of Higher and Secondary Specialized Education.

### **Results**

Data collection was undertaken from January to October 2020. Official letter was provided from the Ministry of Higher and Secondary Specialized Education to the research institutions to gain the permission for research. The data for this study were collected in line with two research methods: qualitative and quantitative. Qualitative method helped to identify the perception of teachers on language testing and assessment and generate the answers. The adopted version of the Fulcher's (2012) LAL survey was chosen as a qualitative method. This survey deals with the issue of "What are the assessment needs of language teachers?" (Fulcher, 2012).

The LAL survey for teachers includes three sections and can be found in Appendix A. The first part of the survey includes several statements where in-service teacher is asked to rate statements based on the scale. The rate

descriptors were organized in the following scale from 1-strongly disagree to 5-strongly agree. Second part of the survey asked to rate the frequency with which teachers do the assessment dimensions. The rate descriptors were organized in the following scale from 1-never to 5-always. The third part of the survey includes 10 questions for semi-structured interview.

### **Conclusion**

Research findings clearly indicate that there is a gap in language teachers' assessment literacy level, and the barrier to succeed in gaining the competence needed to be identified. The current study did a small effort in this direction. The qualitative and quantitative research analysis demonstrates that to bring the consistency in teachers' knowledge and pedagogy in assessment, there is a crucial need to develop courses that would fully be based on "teachers' competence in educational assessment of students". To make a cohesive bridge from knowledge on subject to pedagogy, the courses need to be developed hierarchically. Pre-service courses should cover the subject knowledge and in-service programs the pedagogy.

Improving the state standard of foreign language teaching in higher education based on best international practices. Standard should include mandatory requirements for the professional quality of specialists, assessment competence.

Revision and improvement of curricula and programs in the areas of pedagogical education and specialties on the basis of

advanced foreign experience. In other words, the study of the experience of foreign higher education institutions in the content of the curriculum and the improvement of curricula and programs in pedagogical areas and specialties based on the results of the analysis of their educational programs.

Improving the level of competence of pedagogical assessment requires the implementation of a number of tasks, including the development of requirements for quality indicators of pedagogical assessment. These indicators serve as a single criterion, in improving the quality of education and assessment of knowledge, skills and abilities of students, which in turn ensures that this process is carried out on the basis of a single requirement.

To bridge the theory and practice gap by pairing assessment course with practicum in year 3 and year 4 pre-service teacher candidate education context.

Implementing "Assessment Directors" or "Assessment Centers" will develop accreditation process to make sure the assessment tools are adequate and aligned to the course outcomes. "Assessment Director" will control and keep information in track. In particular, the center will have the right to study the best foreign practices and make changes in the curriculum, the process of assessing students. It also aims to develop and design, monitor, and analyze an effective comprehensive system for evaluating the effectiveness and appropriateness of students, educators, and programs.

### **References:**

1. Bachman, L. F., & Palmer, A. S. (1996). *Language testing in practice: Developing useful language tests*. Oxford University Press.
2. Bachman, L. F., & Palmer, A. S. (2010). *Language assessment in practice*. Oxford University Press.
3. Berry, R. (2008). *Assessment for learning*. Hong Kong University Press.

4. Birello, M. (2012). Teacher cognition and language teacher education: Beliefs and practice. A conversation with Simon Borg. *Bellaterra Journal of Teaching & Learning Language & Literature*, 5(2), 88–94.
5. Borg, S. (2003). Teacher cognition in language teaching: A review of research on what language teachers think, know, believe, and do. *Language Teaching*, 36(2), 81–109.
6. Brookhart, S. M. (2011). Educational assessment knowledge and skills for teachers. *Educational Measurement: Issues and Practice*, 30(1), 3–12.
7. Brown, J. D. (2000). Questions and answers about language testing statistics. *Japanese Association of Language Testing Journal*, (2), 8–12.
8. Coombe, C., Folse, K., & Hubley, N. (2007). *A practical guide to assessing English language learners*. University of Michigan Press.
9. Fulcher, G. (2012). Assessment literacy for the language classroom. *Language Assessment Quarterly*, 9(2), 113–132.
10. Hakim, B. (2015). English language teachers' ideology of ELT assessment literacy. *International Journal of Education and Literacy Studies*, 3(4), 42–48.
11. Herrera, L., & Macías, D. (2015). A call for language assessment literacy in the education and development of teachers of English as a foreign language. *Colombian Applied Linguistics Journal*, 17(2), 302–312.
12. La Marca, P. (2006, June). *Assessment literacy: Building capacity for improving student learning*. Paper presented at the National Conference on Large-Scale Assessment, Council of Chief State School Officers, San Francisco, CA.
13. McNamara, T. (2000). *Language testing*. Oxford University Press.
14. Pill, J., & Harding, L. (2013). Defining the language assessment literacy gap: Evidence from a parliamentary inquiry. *Language Testing*, 30(3), 381–402.
15. Popham, W. J. (2009). Assessment literacy for teachers: Faddish or fundamental? *Theory Into Practice*, 48(1), 4–11.
16. Taylor, L. (2009). Developing assessment literacy. *Annual Review of Applied Linguistics*, 29, 21–36.
17. West, R. (1997). *Assessment in language learning: Introduction and principles of language testing* (Unit 0, MD338). University of Manchester.
18. Xu, Y., & Brown, G. T. L. (2016). Teacher assessment literacy in practice: A reconceptualization. *Teaching and Teacher Education*, 58, 149–162.

# RANSLATION



**The Lingua Spectrum**

*Cogito, ergo sum*

TARJIMASHUNOSLIK

224

ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ

254



---

**Tarjimada qiyosiy metodologik  
yondashuv: badiiy obrazning  
estetik transformatsiyasi****Buronova Dilnoza Baxodirovna<sup>3</sup>**[buronova@samdchti.uz](mailto:buronova@samdchti.uz)

Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasida

o'qituvchisi,

Samarqand davlat chet tillar instituti

**Annotatsiya** Ushbu maqolada badiiy tarjimashunoslik doirasida qiyosiy metodologik yondashuv hamda badiiy obrazning estetik transformatsiyasi masalalari muallif tomonidan nazariy jihatdan batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqotda adabiy matnni tarjima qilish jarayonida shakl va mazmun dialektik birligi, shuningdek, milliy badiiy tafakkurga xos poetik xususiyatlarning boshqa til va madaniy muhitda qayta ifodalanish mexanizmlari yoritiladi. Xususan, maqolada berilgan ma'lumotlarga ko'ra she'riy tarjimada metrik tizim, ritmik tuzilma, intonatsion ohang va obrazlilik kabi poetik komponentlarning saqlanishi estetik adekvatlikning asosiy mezonlari sifatida qaraladi. Shu bilan birga, maqolada qayd etilishicha, o'zbek tilidagi she'riy matnlar va ularning rus tiliga qilingan tarjimalari qiyosiy tahlil qilinib, ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida qo'llanishi mumkin bo'lgan nazariy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi. Tahlil davomida asliyatdagi xalqona ohang hamda insoniy iliqlikning tarjimada qanday poetik va stilistik vositalar orqali ifodalanishi ochib beriladi. Natijada ushbu maqolada berilgan ma'lumotlarga ko'ra, badiiy tarjimada estetik ekvivalentlikka erishish so'zma-so'zlikka emas, balki obraz, ohang va emotsional ta'sirning yaxlitligini ta'minlash bilan bevosita bog'liq ekanligi ilmiy asosda xulosalanadi.

**Kalit so'zlar** Qiyosiy tarjima, badiiy obraz, estetik transformatsiya, madaniy ekvivalentlik, lingvopoetik uyg'unlik, ijodiy talqin

---

**Сравнительный  
методологический подход в  
переводе: эстетическая  
трансформация  
художественного образа****Буронова Дилноза Баходировна**[buronova@samdchti.uz](mailto:buronova@samdchti.uz)

Преподаватель кафедры истории и

грамматики английского языка,

Самаркандский государственный

институт иностранных языков

**Аннотация** В данной статье в рамках переводоведения рассматриваются вопросы сравнительного методологического подхода и эстетической трансформации художественного образа. В исследовании анализируется диалектическое единство формы и содержания в процессе перевода художественного текста, а также механизмы воссоздания национально-специфических особенностей художественного мышления в иной языковой и культурной среде. Особое внимание уделяется поэтическому переводу, где сохранение метрической системы, ритмической организации, интонационного строя и образности рассматривается как основной критерий эстетической адекватности. В статье проводится

---

<sup>3</sup> Buronova D.B. — ORCID: 0000-0002-0660-0766

сравнительный анализ поэтических фрагментов на узбекском языке и их переводов на русский язык, а также предлагаются теоретико-практические рекомендации по переводу на английский язык. В ходе анализа выявляется, какими поэтическими и стилистическими средствами в переводе передаются народный тон и человеческая теплота оригинала. В результате обосновывается, что достижение эстетической эквивалентности в художественном переводе связано не с дословной передачей текста, а с сохранением целостности образа, интонации и эмоционального воздействия.

**Ключевые слова** Сравнительный перевод, художественный образ, эстетическая трансформация, культурная эквивалентность, лингвопоэтическая гармония, творческая интерпретация

## **Comparative Methodological Approach of Translation: The Aesthetic Transformation of the Literary Image**

**Buronova Dilnoza Bakhodirovna**

[buronova@samdchti.uz](mailto:buronova@samdchti.uz)

Teacher, Department of English Language

History and Grammar,

Samarqand State Institute of Foreign Languages

**Annotation** *This article examines the issues of the comparative methodological approach and the aesthetic transformation of the literary image within the framework of translation studies. The research focuses on the dialectical unity of form and content in the process of literary translation, as well as on the mechanisms of recreating nationally specific features of artistic thinking in a different linguistic and cultural environment. Particular attention is paid to poetic translation, where the preservation of the metrical system, rhythmic structure, intonational pattern, and imagery is considered a key criterion of aesthetic adequacy. The article provides a comparative analysis of poetic excerpts in the Uzbek language and their Russian translations, and offers theoretical and practical recommendations for translation into English. The analysis demonstrates how the folk tone and human warmth of the original are conveyed in translation through poetic and stylistic devices. As a result, it is argued that achieving aesthetic equivalence in literary translation is not based on word-for-word rendering, but on maintaining the unity of imagery, intonation, and emotional impact.*

**Keywords** *Comparative translation, literary image, aesthetic transformation, cultural equivalence, lingvopoetic harmony, creative interpretation*

Tarjima – bu faqat soʻzlarning boshqa tilga oʻgirilishi emas, balki obrazlarning yangi madaniyatda qayta tugʻilishidir. Har bir xalq adabiyoti – uning madaniyati, turmush tarzi va qadriyatlarining badiiy ifodasidir. Adabiyot xalq

ruhining, dunyoqarashining, estetik didining va tarixiy xotirasining yorqin inʼikosi sifatida shakllanadi. Shu bois, har bir badiiy asar oʻzida nafaqat muallif tafakkurini, balki butun millatning maʼnaviy olamini, hayotiy tajribasini

va asrlar davomida shakllangan o'ziga xoslikni aks etadi. Tarjima ana shu milliy badiiy olamni boshqa madaniyatga, boshqa xalq ruhiyatiga yetkazish vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Tarjima jarayoni til vositasida amalga oshsada, uning mohiyati lingvistik chegaralardan ancha kengdir. Har bir tarjima – bu ikki madaniyat o'rtasidagi muloqot, ikki estetik makonning uchrashuvi, ikki hayot tarzining o'zaro anglash jarayonidir. Zamonaviy adabiyotshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri bo'lgan qiyosiy tadqiqotlar madaniyatlararo ta'sir va idrok jarayonlarini o'rganadi.

Shubhasiz, bu jarayonda badiiy tarjima masalasi dolzarb masalaga aylanadi (Buronova, 2025). Shuning uchun tarjima aslida madaniyatlararo estetik hodisa, u asliyatdagi ma'no, timsol va obrazlarni yangi tilda qayta ifodalash, ularni yangicha badiiy hayotga olib kirish jarayonidir. Badiiy tarjimada eng murakkab va ayni paytda eng muhim hodisa – bu badiiy obrazning o'zgarishi, ya'ni uning yangi madaniy muhitda qanday talqin etilishidir. Chunki har bir obraz faqat so'z bilan emas, balki ma'naviy qadriyat, tarixiy tajriba va ijtimoiy hayot bilan bog'liq holda yaratiladi. Shu sababli, tarjimada so'z o'zgarsa ham, obrazning ichki ruhi, estetik mohiyati va madaniy ohangi saqlanib qolishi kerak. Aks holda, asarning badiiy kuchi, milliy ruhiyati va estetik ta'siri yo'qoladi. Tarjima jarayonida obrazning yangi til va madaniyatda o'z shaklini topishi – bu estetik transformatsiya deb ataladi. Bu hodisa so'zning o'zgarishidan ko'ra murakkabroq jarayon bo'lib, unda asliyatdagi badiiy tafakkur, xalqning hayotiy tajribasi, qadriyatlari va madaniy ohangi yangi shaklga kiradi. Shu jihatdan, tarjima ijodning ikkinchi shakli, ya'ni badiiy qayta yaratish sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy obrazning estetik transformatsiyasi faqat til o'zgarishi emas – bu asarning ruhiy, ma'naviy va estetik qayta tug'ilishidir. Har bir tarjimon, aslida, asliyat muallifi bilan birgalikda yangi madaniyatda yangi badiiy olam yaratadi. Shundan kelib chiqib tarjima jarayonida e'tibor

qaratishimiz lozim bo'lgan ba'zi jihatlarni ko'rib chiqamiz.

### 1. **Badiiylik va obrazlilik me'yori**

Badiiy asar o'z mohiyatiga ko'ra, so'z orqali voqelikni estetik shaklda ifodalovchi san'at hodisasidir. Tarjimada eng avvalo asliyatdagi badiiylikni saqlash, ya'ni so'z, ohang va ifodaning tabiiy uyg'unligini yo'qotmaslik zarur. Har bir asar o'z uslubiga, ritmiga, obrazlar tizimiga ega. Shu bois tarjimon faqat matnni tushunarli qilish emas, balki asl matndagi badiiy ruhni qayta yaratishni maqsad qilishi kerak.

"O'zbek adabiyoti" (Matjon & Sariyev, 2005) asarida ta'kidlanganidek, badiiy so'z – bu inson hissiyotining, hayotiy kechinmalarining va ruhiy tajribasining san'at shakliga aylangan ifodasidir. Shunday ekan, tarjima jarayonida so'zlarning ma'nosi bilan birga ularning hissiy ohangi, obrazli ma'nosi va estetik jozibasi ham saqlanishi lozim.

### 2. **Uslub va til uyg'unligi me'yori**

Tarjimada muallif uslubining saqlanishi – asarning badiiy kuchini ta'minlovchi eng muhim omildir. Har bir yozuvchi o'zining shaxsiy uslubiga ega: so'z tanlovi, ritm, sintaktik qurilish, ohang – bularning barchasi uning badiiy olamini belgilaydi. "So'z qo'llash san'ati" (Omonturdiyev, 1994) asarida aytilishicha, "so'zning go'zalligi – uning joyida ishlatilishida." Demak, tarjimada so'zning grammatik ekvivalenti topilishi yetarli emas; tarjimon uni ma'no, ohang va uslub jihatidan moslashtira olishi kerak. Tilning tabiiy jarangi, so'zning ohangdorligi va ma'no qatlamlari asarda badiiylikni yaratadi. Shu sababli tarjimon yangi til muhitida matnni shunchaki nusxa sifatida emas, balki badiiy va uslubiy jihatdan teng san'at asari sifatida yaratmog'i zarur.

### 3. **Madaniy va milliy moslik me'yori**

Har bir asar xalq madaniyati, turmush tarzi va qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq. Obrazlar, ramzlar, timsollar – bular o'sha millatning ko'zgudagi aksidir. Shu sababli tarjimada har bir obrazning madaniy ildizini anglash va uni boshqa tilda mos ekvivalent bilan ifodalash muhimdir.

Masalan, O'zbek adabiyotida "bahor" obrazi nafaqat faslni, balki yangilanish, poklanish, ruhiy uyg'onish g'oyalarini ifodalaydi. Agar u "spring" deb oddiy tarjima qilinsa, obrazning ichki estetik kuchi yo'qoladi. Tarjimon bu obrazning madaniy ma'nosini va hissiy rangini yangi tilda qayta yaratishi kerak.

Zulfiya qalamiga mansub "Bahor keldi seni so'roqlab." she'rining rus tildagi Margarita Aligerning badiiy tarjimasini tahlil qiladigan bo'lsak (Zulfiya, 1954):

*Bahor keldi seni so'roqlab - Пришла весна, спрашивает о тебе,*

*Salqin saharlarda, bodom gulida - Живым дождём омыв миндаль.*

Marqarita Aligerning tarjimasida Zulfiya she'rining badiiy ohangi saqlanib qolgan bo'lsa-da, obrazning semantik markazi biroz siljigan. Asliyatda "Salqin saharlarda, bodom gulida" satri bahorning nozik nafasi, sevgilining izlovchi manzarasini bildiradi. Bu yerda "salqin sahar" – tinchlik va uyg'onish, "bodom guli" esa go'zallik va nozik tuyg'u timsolidir.

Ammo Aliger (Зулфия, 1960) tarjimasida bu ifoda "Живым дождём омыв миндаль" shaklida beriladi – ya'ni so'zma so'z tarjimada "tirik yomg'ir bilan bodom gullarini yuvgan". Bu so'zma-so'z tarjimadan chekinish bo'lib, u she'rga harakat, hayot, yangilanish unsurlarini qo'shadi. Demak, tarjimonda bahor – muhabbatni izlovchi emas, balki hayotni uyg'otuvchi kuch sifatida talqin etilgan.

Endi shu ikki misrani ingliz tilida qayta jonlantirish qanday bo'ladi. Avvalo so'zma-so'z tarjimasini ko'rib chiqamiz:

*Spring has come, asking for you,*

*In the cool mornings, among the almond blossoms.*

Guvohi bo'lganingizdek, tarjima asl matn tushuntirgan adibadagi hissiy bo'shliqni ifodalay olmayapti. Demak "Bahor keldi, seni so'roqlab" misrasidagi aynan so'roqlab fe'lining tarjimasini aynan "asking for you" bilan emas, balki boshqa ekvivalentlaridan foydalanish zaruriyatini beradi.

*Spring has come, calling your name,*

*In the tender dawns, among almond blooms.*

yoki

*Spring returned, whispering of you,*

*In the gentle mornings, through almond blossoms.*

Albatta, bu o'rinda leksik tanlov keyingi misralarning semantik va poetik tuzilishidan ta'sirlanadi, chunki qofiya tizimi, vazn strukturası va ohang uyg'unligi kabi poetik komponentlar badiiy matnning umumiy estetik ta'sirini belgilaydi.

#### 4. Estetik uyg'unlik va hissiy ta'sir me'yori

Badiiy asarning kuchi – uning o'quvchi qalbiga ta'sirida. Shu sababli tarjimada so'zning hissiy kuchi, estetik tovushi va obrazli ma'nosi yo'qolmasligi kerak.

"So'z qo'llash san'ati" (Omonturdiyev, 1994) asarida aytilganidek, har bir so'z inson qalbiga tegishi, unda tuyg'u uyg'otishi kerak. Demak, tarjimada hissiy ekvivalentlik muhim – ya'ni asliyatdagi his-tuyg'ularning yangi tilda ham tabiiy ifodasi.

G'afur G'ulomning "Sen yetim emassan" (G'ulom, 1956) she'ri – o'zbek adabiyotida urush davri lirikasining eng insonparvar namunasi bo'lib, unda xalq, ona va Vatan obrazlari mehr va taskin timsolida uyg'unlashadi. She'r 6 va 5 hijoli qisqa misralar, joylarida Mayakovskiy usulidagi zinapoya satrlardan iborat, bu shakl o'zbek xalq qo'shiqlariga xos tenglamali ritmik qurilmani eslatadi. Bu o'z navbatida, ona allasi ohangini yaratadi.

Axmatova (Гулям, 1944) tarjimasida esa she'r to'rt qatorli (katren) shaklida berilgan bo'lib, bu rus poeziyasiga xos klassik silabik-tonik tizimda yozilgan. Ya'ni, u rus she'riyatining "четырёхстопный ямб" (to'rt bo'g'inli yamb) vaznida ifodalangan. Bu formal o'zgarish, tashqi shakl jihatdan semantik musiqiylikni yo'qotmaydi, balki uni rus poetik an'analariga moslashtiradi.

Asliyat:

*Sen yetim emassan, tinchlan, jigarim,*

*Quyoshday mehribon Vataning – onang,*

*Zaminday vazminu mehnatkash, mushfiq,  
Istagan narsangni tayyorlaguvchi  
Xalq bor – otang bor. Cho'chima, jigarim.*  
(G'afur G'ulom, 1956)

Tarjima (Anna Axmatova, 1944):  
*Разве ты сирота?.. Успокойся, родной!  
Словно доброе солнце, склоняясь над  
тобой,*

*Материнской, глубокой любовью  
полна,*

*Бережет твое детство большая  
страна.* (Гулям, 1944)

Asliyatdagi "Xalq bor – otang bor" qat'iy ijtimoiy ma'nosi tarjimada "Бережет твое детство большая страна" satrida siyosiy-falsafiy umumlashma sifatida ifodalanadi. Bu semantik transformatsiya – ya'ni milliy konkret obrazning universal poetik simvolga aylanishi.

"Jigarim" so'zining hissiy quvvati "родной" bilan almashtirilgan. Bu emotsional adekvatlikni saqlab, milliy ekspressiyani neytrallash usulidir.

Tarjimon o'quvchiga asar mazmunini emas, uning estetik holatini va ruhiy ta'sirini yetkazishi kerak. Bu tarjimada san'atning eng nozik qismidir: so'z o'zgarsa ham, tuyg'u o'zgarmasligi lozim. Ingliz tiliga tarjima jarayonida bo'lajak tarjimonlar e'tibor qaratishi lozim bo'lgan jihatlari quyidagilar:

Ingliz tilida to'liq semantik mos tarjima qilish emas, balki ruhiy uyg'unlikni saqlash muhim. She'rda "yetim emassan" iborasi so'zma-so'z "You are not an orphan" deb tarjima qilinsa, grammatik jihatdan to'g'ri, ammo poetik jihatdan sovuq eshitiladi. "You're not alone", "You are not forsaken", "You're not without a home" kabi variantlar hissiy jihatdan taskin beradi, ya'ni ona so'zlayotgandek ohangni yaratadi. "Jigarim" – bu o'zbek tilida emotsional, samimiy, milliy so'z. Uni "my dear" yoki "my child" bilan almashtirish mumkin, lekin konnotativ (ichki ma'no) jihatdan "my heart" yoki "my little one" tabiiyroq. "Calm down, my little one," "Rest easy, my heart," deb tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. "Quyoshday mehribon Vatanning – onang" iborasi uchun metaforik ekvivalentga to'xtaladigan bo'lsak,

bu satr Vatan = ona = quyosh uchburchagini yaratadi. Ingliz tilida bunday metafora nature imagery (tabiat obrazlari) orqali berilishi kerak. Masalan: "Your homeland, like the sun, is your mother's care," "Your land, warm as the sun, holds you near," bu holatda "care" va "holds" so'zlari ona bag'rining iliqqligini ifodalaydi. Ingliz tilida "People" so'zi xalqni, "father" esa himoya timsolini beradi, ammo to'g'ridan-to'g'ri "You have people – you have a father" sovuq chiqadi. Shuning uchun simvolik parallel tavsiya qilinadi: "Your people stand beside you, strong as a father," yoki "Your people's heart will guard your way." kabi ifodalar kollektiv himoya va milliy birdamlik ruhini saqlaydi deb o'ylayman.

"Sen yetim emassan" she'rini ingliz tiliga o'girishga ahd qilgan ijodkor-tarjimon so'zma-so'zlik emas, badiiy-emotsional ekvivalentlikni saqlashga ko'proq e'tibor qaratishi lozim. Asliyatdagi ona bag'rining iliqqligi, xalqning ishonchi, Vatan mehrining taskini – tarjimada universal "umuminsoniy qadriyatlar" orqali ifodalansa, u holda G'afur G'ulom badiiy uslubi saqlangan bo'ladi.

#### 5. **Axloqiy va estetik mas'uliyat me'yori**

Tarjima – bu ijodiy mas'uliyatdir. Tarjimon matnga nisbatan sadoqatli, so'zga ehtiyotkor, estetik didli bo'lishi shart. "So'zning joyi o'zgarsa, ma'nosi so'nadi" degan fikr bejiz emas: tarjimon asliyat ruhiga zarar yetkazmay, uni yangi tilda tabiiy shaklda qayta yaratishi kerak.

Tarjimada axloqiy mas'uliyat – bu faqat matnga nisbatan sadoqat emas, balki muallifning fikriga, xalqning ruhiyatiga, badiiylilikning mohiyatiga sadoqatdir. Bunday yondashuv tarjimani shunchaki til amaliyoti emas, balki ma'naviy va estetik jarayonga aylantiradi.

#### 6. **Badiiy asarning mohiyati**

"O'zbek adabiyoti" (Matjon & Sariyev, 2005) hamda "Adabiyot nazariyasi" (Umurov, 2004) asarlarida badiiy asar – bu muallif yaratgan, ammo xalqning hayoti, madaniyati, turmush tarzi va qadriyatlarini o'zida mujassam etgan san'at mahsuli sifatida izohlanadi.



Muallif yozadi, xalq esa qabul qiladi – natijada asar jamiyatning estetik hodisasiga aylanadi. Badiiy asar muallif tafakkuridan tug‘iladi, xalq ruhidan oziqlanadi va jamiyat hayotida badiiy qadriyat sifatida yashaydi.

Albatta nasr va nazm tarjimasida e’tibor qilishimiz kk bo’lgan turli komponentlar bor ularni quyidagicha tizimli tushuntirish mumkin:

Poetik asarlar tarjimasida:

- *Vazn (ritmik tuzilma)* – she’rning ohang va musiqiy tizimini tashkil etuvchi metr birlik.
- *Qofiya (tovush uyg’unligi)* – misralar oxiridagi tovushlarning takrorlanishidan hosil bo’ladigan poetik uyg’unlik.
- *Ohang (intonatsion tizim)* – she’rning ichki musiqasi, his va kayfiyatni ifoda etuvchi ohangdorlik.
- *Badiiy tasvir vositalari* – o’xshatish, istiora, ramz, epitet kabi poetik ifoda shakllari.
- *Ma’no qatlamlari (semantik qatlam)* – so’zning tashqi (denotativ) va ichki (konnotativ, obrazli) ma’nolari.
- *So’z tanlovi (leksik mahorat)* – muallifning maqsadga muvofiq, ta’sirchan so’zlarni tanlay bilishi.
- *Uslubiy yaxlitlik* – asardagi so’z, ohang va g’oya uyg’unligi.
- *Obrazlilik* – poetik ifodaning badiiy tasvirga aylanish darajasi.
- *Milliy obraz va ramzlar* – milliy tafakkur va madaniyatni ifoda etuvchi obrazlar tizimi.
- *Estetik ta’sir kuchi* – she’rning o’quvchiga ruhiy, hissiy va badiiy ta’sir doirasi.

Nasriy asarlar tarjimasida:

- *Mazmun aniqligi* – voqea, fikr va g’oyaning aniq, mantiqiy ifodasi.

- *Til va uslub uyg’unligi* – matndagi tildan foydalanish va yozuvchining uslubi orasidagi muvofiqlik.
- *Kompozitsion izchillik* – asar qismlarining tartibli, mantiqiy ketma-ketligi.
- *Sintaktik tuzilish* – gaplar tizimi va ularning o’zaro bog’lanish usuli.
- *So’z boyligi (leksik boylik)* – yozuvchining til imkoniyatlaridan foydalanish darajasi.
- *Dialog tabiiyligi* – qahramon nutqining hayotiyli va xarakterga mosligi.
- *Uslubiy aniqlik* – nutqning badiiy, ilmiy yoki publitsistik turiga mos bo’lishi.
- *Kontekst uyg’unligi* – asar ichida g’oyaviy va ma’noviy bog’liqlikni saqlash.
- *Obrazli tafakkur* – nasriy ifodada ham obrazli fikrlashni saqlash.
- *Tarixiy va madaniy muhitni ifodalash* – asar voqealarini zamon va makon ruhiga mos aks ettirish.

